



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAHALLA VA OILANI QO'LLAB-QUVVATLASH
VAZIRLIGI



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

**OILA PSIXOLOGIYASI YO'NALISHI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



TOSHKENT – 2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAHALLA VA OILANI QO'LLAB-QUVVATLASH VAZIRLIGI
MAHALLA VA OILA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

“Mahalla va oila”

ilmiy-tadqiqot instituti direktori

N.M.Egamberdiyeva

“ 7 ” aprel 2021-y.

OILA PSIXOLOGIYASI YO'NALISHI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Umumiy o'quv soati - 40 soat
Shu jumladan: 30 soat ma'ruza,
10 soat amaliy mashg'ulot

Bugungi kunda joylardagi mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalari bo'yicha o'rinbosarlarining faoliyatiga hamda oila va oilada psixologik muhitni sog'lomlashtirish yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur **O'QUV-USLUBIY MALMUA** shaxs va uning psixologik holati diagnostikasiga va inqiroz holatlarini oldini olish hamda psixologik tang holatdagi insonlarga birinchi ruhiy ko'mak ko'rsatish usul, vosita va yo'llariga, hamda respublikamizda oilalarni qo'llab-quvvatlash, xususan xotin-qizlar muammolarini tashhislash, ular uchun muqobil va zarur xizmatlarni tashkil qilishga hamda oila va oila psixologiyasi bo'yicha xotin-qizlar kompetensiyasini ta'minlashga, shuningdek, mahalla va oila tizimi rahbarlari, mutasaddilari, ijtimoiy soha mutaxassislariga bag'ishlangan.

Tuzuvchilar:

H. Norqulov– pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

G. Tuychiyeva – filologiya fanlari doktori.

Mas'ul muharrir:

N.M. Egamberdiyeva– pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

O. Musurmonova – pedagogika fanlari doktori, professor

O. Jamoldinova – pedagogika fanlari doktori, professor

O'QUV-USLUBIY MAJMUA O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2021-yil 7-apreldagi 4-son majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

© "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti

© H. Norqulov, G. Tuychiyeva.

MUNDARIJA

I. Kirish.....	4
II. O'quv kursi dasturi.....	13
III. Nazariy mashg'ulot materiallari.....	25
IV. Amaliy mashg'ulot materiallari.....	224
V. Glossariy.....	237
VI. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	247

KIRISH

O'zbekistonda so'nggi davrlarda oilani qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarga ijtimoiy ko'maklar xizmatlarini tashkil qilish, xususan ular bandligini ta'minlash, ular imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish hamda oilaviy turmush, uning pastu-balandi, oila iqtisodiyoti, oila psixologiyasi bo'yicha zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalar bilan ularni qurollantirish dolzarb va davlat siyosati darajasidagi vazifaga aylandi.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash borasida davlat hujjatlari ishlab chiqilib, tasdiqlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5325-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-son qarori, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 561-son qonuni, 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-son qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4602-son Qarori.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil

etish to'g'risida"gi 367-son qarori asosida aholiga psixologik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishga erishishni nazarda tutadi.

Mazkur o'quv kursi tinglovchilarni mamlakatimizning oila, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorlik darajasini va oila psixologiyasi, shaxs yosh davrlari, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid bilimlarini oshirish hamda xotin-qizlarni mazkur bilimlarini amaliyotga tatbiq etish kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quv kursi tinglovchilarda shaxsning turli hayot bosqichlaridagi ruhiy-psixologik holatlarini diagnostika qilishga, atrof-muhitdagi odamlar bilan sog'lom ruhiy munosabat o'rnatishga, inqiroz holatlar oldini olishga, oilada uchrashi mumkin bo'lgan turli psixologik muammolarni anglash va ularning yechimlarini topish malakasiga hayot uslubi va shaxs tiplari haqidagi bilimlarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga oiladagi nizolar va ularning turlari, er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzand orasidagi oilaviy nizolarni bartaraf etishning psixologik usullari, muloqot kompetentligini, oilada shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan trening mashg'ulotlarini tashkil etish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur amaliy ko'nikmalar soha mutaxassislarining oiladagi shaxslararo munosabatlardagi nizolarni oldini olish samaradorligini ta'minlaydi.

Kurs 40 akademik soatga mo'ljallangan bo'lib, bunda bir akademik soat 40 daqiqa qilib belgilangan. Har bir mavzu uchun 2 akademik soat (80 minut) ajratilgan. Kurs mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlarini oila psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha zarur bo'lgan materiallar, bilimlar, ta'lim ta'minoti va axborotlar bilan ta'minlashdan iborat. Materiallar o'quv jarayonida davlat siyosati maqsadlariga mos, tarixiy ketma-ketlik, oddiydan murakkabga qarab taqdim etilgan.

METODIK KO'RSATMALAR

Kursni ishlab chiqishga metodologik yondashuv quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- kurs kun tartibi mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlarini oila psixologiyasi bo'yicha seminar-trening orqali zarur bilimlar bilan qurollantiradi;
- kurs kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ijtimoiylashuv g'oyasini ilgari suradi;
- majmua mahalla va oila tizimida yangi innovatsion g'oyalarni joylarda tizim mahalliy strukturalari orqali joriy qilinishi uchun xizmat qiladi.

O'quv-uslubiy majmyada psixologik mashqlar olib borish metodikasi chuqur tushuntirilgan bo'lib, faoliyati uchun barcha zarur elementlarni o'zida aks ettiradi. Har bir mavzuning yoritilishi jarayoni tegishli o'quv metodik yo'riqnomalarga ega. Yo'riqnomalarda quyidagilar inobatga olingan:

- mashqlarni bajarish uchun talab etiladigan vaqt;
- trening jarayonida foydalaniladigan materiallar (ushbu metodik qo'llanmaga qo'shimcha ravishda);
- o'qitish shakli (hamkorlikda ishlash, guruhda ishlash, juftlikda ishlash, yakka tartibda ishlash va b.).

Xotin-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari inson omili bilan bog'liq bo'lib, ularning hayot murakkabliklariga nisbatan ma'naviy, ruhiy, psixologik va moddiy tayyorligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, muloqot qoidalari, oilada e'tiqod, burch, adolatparvarlik mezonlari, shukur, sabr va qanoat, sadoqat va vafo, kamtarlik kabi o'nlab dolzarb masalalarni o'z mazmuniga qamrab oladi.

Mazkur o'quv kursi, respublikamizning turli hududlarida faoliyat olib borayotgan mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlarini oila psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha o'z faoliyatlarida hozirgi davrning amaliy psixologiyasi erishgan yutuqlar, aholiga psixologik xizmat ko'rsatishda zamonaviy yondashish, yangi g'oya-

ta'limotlarni kundalik hayotga tatbiq etish, sohadagi yangiliklar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, yangi metodik qo'llanma va tavsiyalar, adabiyotlar bilan tanishtirishga, egallagan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini kelgusida amaliyotga tatbiq etishga yo'naltiradi.

O'QUV KURSINI O'QISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ushbu kurs mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlarini oila psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha, xususan, mahallada aholining turli guruhlariga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos jihatlariga oid bilimlarini rivojlantirishga hamda mahallada maqsadli ravishda aholiga psixologik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha zarur bilimlar bilan qurollantirishga va ularning faoliyatini takomillashtirishga mo'ljallangan.

Mana shu vazifalar va maqsadlardan kelib chiqqan holda mazkur mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalari bo'yicha o'rinbosarlarini oila psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha malakasini va kompetensiyasini ta'minlovchi o'quv - uslubiy majmua tayyorlandi.

Kursning **maqsadi** - mahalla rais o'rinbosalarining oila psixologiyasi, xususan shaxs psixologiyasi, yoshlar psixologiyasi, psixologiyaning yosh xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarga oid bilimlarini kengaytirish, oila muammolari va ularni hal etish yo'llari bilan tanishtirish, shaxsning ilk psixologik-ma'naviy qadriyatlari shakllanadigan ijtimoiy institut bo'lgan oilaning nufuzini ko'tarish, jamiyatda oilaviy munosabatlar muqaddasligi tamoyilini joriy etishdan iboratdir.

Kursning **vazifasi** – mahalla rais o'rinbosalarining psixologik bilimlarini oshirish, bunda ularga oila psixologiyasiga oid nazariy hamda amaliy bilimlarni berish va olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish kompetensiyasini oshirish.

BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARGA QO'YILGAN TALABLAR

Mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlarining professional faoliyati bevosita oila, oilaning nufuzi va ijtimoiy maqomi, oiladagi psixologik muhit va oilaviy majorolar jarayonlariga bog'liq. Shunga ko'ra, o'rinbosarlar oila psixologiyasi bo'yicha bilimlarni egallagan va ularni amaliy hayotda qo'llay olishlari talab etiladi. Biroq, tizimli ishlayotgan ko'pchilik o'rinbosarlar bunday bilimlarga ega emas. Demak, o'z navbatida mazkur kurs asosida o'z malakasini oshirgan o'rinbosarlar aholiga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos jihatlari oid bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiriladi.

O'QUV KURSI DASTURI

O'QUV KURSINING MASHG'ULOTLAR KESIMIDAGI JADVALI		
№	Ma'ruzalar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1.	Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish. Hozirgi zamon oilasining asosiy funksiyalari.	2
2.	Oilaviy psixologiya va uning tadqiqot metodlari. O'zbek oilasining psixoetnik xususiyatlari. O'zbek mentaliteti: uning ijobiy va salbiy jihatlari.	2
3.	Zamonaviy hayot va uning inson psixologiyasiga ta'sir etuvchi muammolari. Ehtiyoj, motiv va motivatsiya. Shaxs ehtiyojlarini baholash.	2
4.	O'zbek oilasi muammolari tasnifi. O'zbek oilasi muammolarini yechishga tayyormi? Iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy, axloqiy muammolar.	4
5.	Migratsiya va uning oilada muammolarni keltirib chiqarishi. Migratsiyaning oila psixologiyasiga ta'siri (erkaklar, ayollar, bolalar, kattalar).	2
6.	Muloqotning psixologik tuzilishi. Muloqot jarayonida zarur sifatlarni shakllantirish.	2

7.	Yoshlarni oilaga ijtimoiy va psixologik moslashtirish usullari. Qaynona-kelin munosabatlari. Er va xotin munosabatlari.	2
8.	Oilaviy nizolar. Agressiya. Gazlayting. Ab'yus. Zo'ravonlik va uning oila tinchligiga salbiy ta'siri. "Himoya daftari".	2
9.	Oilaviy nizolarni oldini olish usul, vosita va yo'llari. Oila psixologiyasida nizo davrida o'zini tutish qonun va qoidalari. Oilada muomala madaniyati.	2
10.	Oiladagi shaxslararo munosabatlarning psixologik aspektlari: sog'lom munosabatlar – sog'lom oila asosidir.	2
11.	Deviatsiya xulq diagnostikasi va korreksiyasi. Suitsid prevensiyasi. Agar ayol suitsid holatiga tushgan bo'lsa?	2
12.	Oilada ajrimlar va ularni oldini olish. Ajrim etikasi. Ajrimga doir islom qoidalari.	2
13.	Oilaviy axloq. Oilaviy nizo va ziddiyatlarni yengib o'tishda axloqning roli. Islom axloqi.	2
14.	Shaxs psixologiyasida erkak va ayolning psixologik xususiyatlari. Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda tarbiyaviy ta'sir usullari.	2

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1.	Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj (kambag'allikni oldini olish) qatlam bilan ishlashning psixologik xususiyatlari	2
2.	Shaxsda hayot mazmunini, o'zini anglash ko'nikma va malakalarini shakllantirish.	2
3.	Reproduktiv salomatlikning ijtimoiy – psixologik jihatlari (sog'lom oilani rejalashtirish usullari)	2
4.	Xotin-qizlarni ijtimoiy faollashtirishning psixologik usullari (motivatsiya, ijtimoiy integratsiya)	2
5.	"Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari", "Ayollar maslahat kengashlari" – xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tizim.	2

OILA PSIXOLOGIYASI YO'NALISHI BO'YICHA O'QUV KURSI

DASTURNING QISQACHA MAVZULAR MAZMUNI

1-MAVZU. OILAGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH. HOZIRGI ZAMON OILASINING ASOSIY FUNKSIYALARI.

Oila va uning zamonaviy davrdagi muammolari. Psixologiya muammolar yechimini topishning alohida usuli sifatida. Psixologiya fanining kelib chiqishi. Oila psixologi kim? Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish nima? O'zbekistonda milliy psixologiya asoslarini yaratish zarurligi. Mahalla va oila tizimida psixologik xizmatlarni tashkil qilish. Ayollar maslahat kengashi xonalari. Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish. Psixologik xizmatni tashkil qilish, psixodiagnostika va uning tamoyillari. Aholiga psixologik xizmat ko'rsatuvchi xodimning axloqiy - etik me'yorlari. Amaliyotchi psixologning etik kodeksidan na'munalar. Psixologik xizmatning umumiy yo'nalishlari. Oilaning iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv) funksiyalari.

2-MAVZU. OILAVIY PSIXOLOGIYA VA UNING TADQIQOT METODLARI. O'ZBEK OILASINING PSIXOETNIK XUSUSIYATLARI. O'ZBEK MENTALITETI: UNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI.

Oilaviy psixologiyaning zaruriyati. Oilaviy psixologiya va uning tadqiqot ob'ekti va predmeti. O'zbek oilasining o'ziga xos tomonlari. O'zbek oilasi psixologiya ob'ekti sifatida. O'zbek mintaliteti tushunchasi. O'zbek mintalitetining ijobiy va salbiy jihatlari. O'zbek oilasida kim psixologik xizmatga muhtoj? Psixologik xizmat bizga qanday yordam bera oladi? Shaxsni bunyodkor sifatida jamiyat hayotiga tayyorlash. Psixologik korreksiya. Oiladagi shaxslararo munosabatlarda oilaviy psixologiyaning tutgan o'rni. Oilaviy psixologiyaning kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, so'rov, eksperiment, statistik metodlari.

3-MAVZU. ZAMONAVIY HAYOT VA UNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIR ETUVCHI MUAMMOLARI. EHTIYOJ, MOTIV VA MOTIVATSIYA. SHAXS EHTIYOJLARINI BAHOLASH.

Globalashuv sharoitida ijtimoiy hayotning o'zgarishlarga moyilligi. Iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy inqirozlar. Hayot tarzining tezlashuvi va muammolarning ko'payganligi. Atrof-muhitdagi muammolarning insonlar hayotiga va oila hayotiga salbiy ta'siri hamda uning oqibatlari. Ehtiyoj to'g'risida tushuncha. Ehtiyojlar faollikning manbai sifatida. Ehtiyojlarning turlari. Motiv nima? Xotin-qizlarni ijtimoiy jihatdan motivatsiya qilish asoslari. Motiv muammosi va uning yechimga doir mulohazalar. Motivatsiya nima? Motivatsiyaning nazariy muammolari. Shaxsning shakllanishida motivatsiyaning roli. Shaxs ehtiyojlarini rivojlantirish.

4-MAVZU. O'ZBEK OILASI MUAMMOLARI TASNIFI. O'ZBEK OILASI MUAMMOLARINI YECHISHGA TAYYORMI? IQTISODIY, MOLIYAVIY, MA'NAVIY, AXLOQIY MUAMMOLAR. QARINDOSHLAR ORASIDA NIKOH TUZISH HOLATLARI VA UNING SALBIY OQIBATLARINI OLDINI OLISH.

Oilaning muammolari: iqtisodiy-moliyaviy; ma'naviy-axloqiy; antropogen; psixologik-ruhiy muammolar; muammolarni diagnostika qilish metodlari. Xotin-qizlarning muammolarga munosabati markerlari: xotirjamlik; qabul qilmaslik; inkor etish; muammolar yechimiga tayyor emaslik; muammolar yechimini bilmaslik; infantillik; ijtimoiy faollik; muammolardan qo'rqmaslik; davlat strukturalari faoliyatini bilish. Iqtisodiy muammolar: pul yetishmovchiligi; qarz; ishsizlik; malakaning yo'qligi; kasb-korning yo'qligi. Moliyaviy muammolar: pulsizlik; qarz. Ma'naviy muammolar: muomala madaniyatining yetishmasligi; ma'naviy manqurtlik; ommaviy madaniyat; individualizm; egoizm; xudbinlik; mafkuraviy immunitetning yetishmasligi; o'z xalqi tarixini bilmaslik. Axloqiy muammolar: axloqsizlik; bevafoqlik; inson sha'nini hurmat qilmaslik; bilimsizlik; jaholat; hiyonat.

5-MAVZU. MIGRATSIYA VA UNING OILADA MUAMMOLARNI KELTIRIB CHIQRISHI. MIGRATSIYANING OILA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI (ERKAKLAR, AYOLLAR, BOLALAR, KATTALAR).

Mehnat migratsiyasi (gastarbayterlar). Mehnat migratsiyasi va uning ijobiy va salbiy tomonlari. Zamonaviy O'zbekiston mehnat migratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Rossiya, G'arbiy Yevropa, AQSh, Sharq mamlakatlari. Gastarbayterlar mahalliy aholi tomonidan qabul qilinish xususiyatlari. Erkaklar psixologiyasidagi o'zgarishlar: uzoq vaqt oiladan yiroqda bo'lganligi sababli o'z oilasidan uzoqlashish; o'z xalqidan va oilasidan norozilikning kuchayishi; destruktiv kayfiyatlar, yangi oila qurilishi, o'z oilasi va farzandlarini tashlab qo'yish, befarqlik, pessimizm, deviantlik. Ayollar psixologiyasidagi o'zgarishlar: hayotdan norozilik, pulsizlik, yolg'izlik, sho'r-peshonalik, kasb-korning yo'qligi, ishsizlik, pessimizm, deviantlik, depressiya, alkogolizm, yomon yo'lga kirishi. Bolalar: hayotda tayanchning yo'qligi, hech kimga ishona olmaslik, depressiya, suitsid, konfliktogenlik, yomon o'qish, betga sapchish, o'g'irlik, giyohvandlik, odam savdosi.

6-MAVZU. MULOQOTNING PSIXOLOGIK TUZILISHI. MULOQOT JARAYONIDA ZARUR SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH.

Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi. Nutq va psixologiya. Nutq psixologik muammolarni belgilab beruvchi omil ekanligi. Psixolingvistika. Muloqot nima? Muloqot mahorati. Oratorlik san'ati. Vazxonlik. Oiladagi muloqot. Oiladagi muloqotning buzilish holatlari. O'zgani yakkalab qo'yish. E'tiborsiz bo'lish. Muloqot jarayonini cheklab qo'yish. Gaplashmaslik. Informatsiyadan yiroqlatib qo'yish, kibr-havo, manmalik. Muloqotning tarbiyadagi roli. Muloqotning funksiyalari. Muloqot jihatlar. Muloqot texnikasi. Muloqotdoshni idrok etish. Muloqotning perseptiv jihatlar.

7-MAVZU. YOSHLARNI OILAGA IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MOSLASHTIRISH USULLARI. QAYNONA-KELIN MUNOSABATLARI. ER VA XOTIN MUNOSABATLARI.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zaruriyati. Oilaviy hayotga tayyorgarlik jihatlar. Turmush qurishning umumiy motivatsiyasi. Yosh oila muammolari. Umr yo'ldoshini ideallashtirish. Psixologik adaptatsiya va oila

integratsiyasi. Moddiy, axloqiy-psixologik, intim-shaxslilik adaptatsiyalari. Oilaviy motivlar shakllanishi va rivojlanishiga olib keluvchi oila integratsiyasining ijtimoiy-funksional mexanizmlari. Oiladagi rollar. Birinchi farzandning tug'ilishi. Adaptatsiya. Oilaning funksional-rolli tuzilishi. Oiladagi rollar va ularning etnopsixologik jihatlari. Yoshlarni jamiyat hayotiga integratsiya qilish: kasbiy, oilaviy, ma'naviy integratsiya. Qaynona-kelin munosabatlarining o'ziga xos milliy jihatlari. Qaynona – kelin munosabatlaridagi muammolar silsilasi: liderlik talashish, mehr ob'ektini talashish, bola tarbiyasi, uy-ro'zg'or muammolari, moliyaviy muammolar va pulni taqsimlash muammolari. Er va xotin munosabatlari: ruhiy psixologik yaqinlikning yo'qligi, xarakterlar va hayotiy pozitsiyaning to'g'ri kelmasligi, pul muammosi, xo'jalik muammolari, bola tarbiyasi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan trening mashg'ulotlar.

8-MAVZU. OILAVIY NIZOLAR. AGRESSIYA. GAZLAYTING. AB'YUS. ZO'ROVONLIK VA UNING OILA TINCHLIGIGA SALBIY TA'SIRI. "HIMOYA DAFTARI".

Oila va oilaviy nizolar. Nizolarning tabiiyligi. Konfliktlar har kim bilan har qanday vaqtda sodir bo'lish mumkinligi. Nizolardan qo'rqish emas, balki ularni boshqarishni bilish zarurligi. Oilaviy konfliktlar shaxslararo konfliktlar ekanligi. Oilaviy konfliktlar turlari. Konfliktlarning kelib chiqish sabablari. Rivojlanish xususiyatlari. Ishtirokchilari va oqibatlari. Agressiya. Agressiya turlari. Ayollarga nisbatan qo'llaniladigan zo'rovonlik. Adolatparvarlik mezonlari. Muloqot texnikasi. "Men tasdiqlar". Odamlarning konfliktga va agressiyaga nisbatan turlari. Men qaysi tipga mansubman? Gazlayting. Ab'yus. "Himoya daftari", "Davlat meni qanday himoya qila oladi?"

9-MAVZU. OILAVIY NIZOLARNI OLDINI Olish USUL, VOSITA VA YO'LLARI. OILA PSIXOLOGIYASIDA NIZO DAVRIDA O'ZINI TUTISH QONUN VA QOIDALARI. OILADA MUOMALA MADANIYATI.

Er-xotinning urishi – doka ro‘molning qurishi. Oilaviy nizolarda uchinchi tomon va uning manfaatlari. Tomonlar janjalida tomonlar manfaati. Kompromiss. Nizo va ziddiyatlarda kim past kelishi lozim? Ayol kishiga “Xo‘p bo‘ladi”, erkak kishiga “Hafa bo‘lma”. Ayollar nazdida erkak kim? Erkaklar nazdida xotin kim? Adolatparvarlik mezonlari. Manfaatlarning yaqinlashishi. Sabr-qanoat. O‘zga, ammo yaqin kishisi uchun xizmat qilishlik baxti. Erkaklarga osonmi, ayollargami? Islom dinida ayol va er majburiyat va huquqlari. Oila psixologiyasida nizo davrida o‘zini tutish qonun va qoidalari. Oilada muomala madaniyati.

10-MAVZU. OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI: SOG‘LOM MUNOSABATLAR – SOG‘LOM OILA ASOSIDIR.

Shaxs kim? Shaxs psixologiyasi nima? Sog‘lom munosabatlar nima? Oilada o‘zaro hurmat. Hamjihatlik. Tinchlik, totuvlik, muammolarni birgalikda hal etish, yakdillik-sog‘lom munosabatlar asosi ekanligi. Kattaga hurmat kichikka izzat. Sog‘lom oila bolasidagi Qur‘on va hadislarda ta‘kidlangan tamoyillar. Zamonaviy oila nuqtai nazaridan va gender tenglik asoslariga ko‘ra uy yumushlari va majburiyatlari taqsimoti. O‘zaro yordam. Oiladagi munosabatlarda vafodorlik, mehr, muruvvat, shirinso‘zlik, bosiqlik, xotirjamlikning o‘rni. Oila tinchligining buzilishida jizzakilik, qo‘pollik, beandishalik, vafosizlik, axloqsizlik, hurmatsizlikning oqibatlari. Oilaning yakdillik bilan bir tomonga qarab harakat qilish strategiyasi.

11-MAVZU. DEVIATSIYA XULQ DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI. SUITSID PREVENSIYASI. AGAR AYOL SUITSID HOLATIGA TUSHGAN BO‘LSA?

Oilaviy hayotdagi muammoli o‘rinlar. Muloqotdagi xatolarning o‘rni va oqibatlari. Deviatziya nima va uning turlari. Deviant xulq-atvorning namoyon bo‘lish sabablari: biologik, psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, ma‘naviy. Deviant xulq-atvorli odamlar, xususan erkaklar, xotin-qizlar va bolalar bilan

psixologik amaliyot yuritishning o'ziga xosligi. Mahallada deviantlik ko'rinishlari bilan kurashish tizimi va rejasi. O'smirlar jinoyatchiligi va uning zamonaviy xususiyatlari. "Pichoq ko'tarib yurish" falsafasi. U bizni muammolarimizni hal qilib beradimi yoki yangi muammolarni keltirib chiqaradimi? O'smirlar deviant xulq-atvorining profilaktikasi. Suitsid nima? O'z joniga qasd qilishning islom arkonlarida ta'qiqlanganligi. Birovning joniga qasd qilish, butun insoniyatga tahdid ekanligi. Agar ayol suitsid holatiga tushib qolsa, mutassaddi tashkilotlar vakili nima qilishi kerak? 1. Mutaxassisni chaqirish. 2. Hamma ishini yig'ishtirib ayolni suhbatga tortish. 3. Ayolning barcha dardlarini qanoat bilan eshitish. 4. Hech qanday va'dalar bermaslik, hech nima yozib olmaslik. 5. Hammasi yaxshi bo'ladi demaslik. 6. Ayol kishi tinchlanmaguncha uni yakka qo'ymaslik. 7. Ayol kishini oilasi bag'riga sog'-omon topshirish.

12-MAVZU. OILADA AJRIMLAR VA ULARNI OLDINI OLISH. AJRIM ETIKASI. AJRIMGA DOIR ISLOM QOIDALARI.

O'zbekiston qonunlarida ajrim huquqi. Ajralish muammolari. Ajralishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari. Ajralishga sabab bo'luvchi omillar. Ajralishning oqibatlari. Ajralishning er-xotin va farzandlar taqdiriga ta'siri. Qayta turmush qurish. Ota-onalarning bola bilan o'zaro munosabati va muloqot usullari. Ota-ona va bola munosabatlari sohasida olib boriladigan korreksion ishlarning maqsad va vazifalari. Islom arkonlarida ajrimning qoralanishi. Taloq huquqi. Ajrim huquqi. Ajrimda oila muqaddasligining buzilishi. Ajrim oqibatida bolalar taqdirining salbiy tomonga o'zgarishi. Ajrimning iqtisodiy, moliyaviy tomonlari. Nikoh shartnomasi va uning ajrim holatida huquqlar kafolatli ekanligi. Oilaviy nizolar va ularning turlari. Er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzand orasidagi nizolarning asosiy sabablari. Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari. Oilaviy munosabatlarning buzilishi. Oilaviy nizolarni bartaraf etishning psixologik usullari. Muloqot kompetentligini, ijtimoiy-persepsiyani oshirishga qaratilgan trening mashg'ulotlari.

13-MAVZU. OILAVIY AXLOQ. OILAVIY NIZO VA ZIDDIYATLARNI YENGIB O'TISHDA AXLOQNING ROLI. ISLOM AXLOQI.

Axloq nima? Axloq inson ma'naviyatining asosi bo'lib, yaxshi va yomon amallar chegarasini belgilab beruvchi kategoriya ekanligi. Oilaviy axloq va uning asoslari. Oila vafodorlikni istashi. Bevafoqlik oilani qurbon qilishi. Axloqning barcha ma'naviy jihatlarini o'z mazmuniga qamrab olishi, jumladan to'g'ri so'zlik, samimiylilik, mehnatsevarlik, bosiqlik, muruvvat, mehr, hamdardlik, yordamga tayyorlik, erinmaslik, ochiqlik kabi fazilatlar majmuining oilaviy, axloqiy sifatlardan ekanligi. Sharq va G'arb allomalarining axloqqa oid qarashlar tizimi. Axloqning oilaviy nizo va ziddiyatlarni bartaraf etish uchun yo'l xaritasi ekanligi. Islom axloqida bandaning yaratgan oldidagi majburiyatlarni bajarishi kerakligi. Allohdan qo'rqish gunoh ishlardan qo'rqish ekanligi. Gunoh amallar va gunohi kabiralar.

14-MAVZU. SHAXS PSIXOLOGIYASIDA ERKAK VA AYOLNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. OILADA OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDA TARBIYAVIY TA'SIR USULLARI.

"Ayol nima istaydi?" yoki "Erkakka nima kerak?". Erkak va ayol munosabati. Erkak va ayol o'rtasidagi tafovutlarning psixologik ko'rinishlari. Oilada er va xotin burch va mas'uliyati. Islom dinida oila tinchligi va farovonligini ta'minlashda er va xotin majburiyatlari hamda er va xotin huquqlari. Erning oiladagi vazifalari. Oilada er psixologiyasini shakllantirish uchun payg'ambar ibratidan foydalanish. Xotin-qizlar psixologiyasini shakllantirishda Hadicha onamiz, Fotima onamiz va Oysha onamiz tajribalaridan foydalanish. Psixologiya va tarbiyaning o'zaro bog'lik jihatlar. Tarbiyada otaning roli va onaning vazifalari. Zamonaviy oilalardagi ba'zi muammoli o'rinlar. Bolalar tarbiyasidagi xatoliklar. Zamonaviy bola tushunchasi va uning tasnifi. Ota-onalik ustanovkalari va funksiyalarining psixologik xususiyatlari. Ota-ona va bola munosabatlarida tarbiyaviy ta'sir masalalari. Oiladagi devyatsiyaga moyilligi bor bolalar bilan ishlash. Bolada

ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda uning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish. Tarbiya usullari.

1-AMALIY MASHG'ULOT. MAHALLADAGI IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ (KAMBAG'ALLIKNI OLDINI OLISH) QATLAM BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Mahallada kam ta'minlangan oilalar bilan ishlash. Noto'liq oila va ular bilan ijtimoiy-psixologik ish. Imkoniyati cheklangan aholi bilan ishlashning psixologik jihatlari. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy psixologik ish. Ijtimoiy barqaror muhit ta'minlanishi zamonaviy davlat siyosatining muhim vazifasiga aylanganligi. Davlat kambag'allikka qarshi kurashishning oldingi saflarida ekanligi. Davlatning kambag'allikka qarshi siyosatining mohiyati. "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kambag'allikni oldini olish mexanizmlari sifatida. Davlat strukturalarining kambag'al qatlam bilan ish olib borish uslubi va uning asoslari: sabrli bo'lish, himmatli bo'lish, ochiq yuzlilik, samimiylik, aniq so'zlash, quriq va'dalar bermaslik.

2-AMALIY MASHG'ULOT. SHAXSDA HAYOT MAZMUNINI, O'ZINI ANGLASH KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH.

Xotin-qizlarda "hayot mazmuni borasidagi mavjud tafakkur: uning salbiy jihatlari va ijobiy tomonlari. Hayot mazmuni indekatorlari. Mablag', pul va boylikka munosabat. Ma'naviy yetuklik, to'g'rilik, chin inson bo'lishning hayotdagi foydasi. Hayot darslari va sinovlaridan to'g'ri xulosa qilish. Hayot mazmunini topishda "Shaxs meni" va uning ijobiy jihatlari. Hayotga pozitiv nazar bilan qaray olish. Psixologik kompetentlik. Yoshlarda psixoemotsional holatlarni barqarorlashtirish va uning oqibatlari. Xotin-qizlarning o'ziga

bahosini oshirish. Xotin-qizlarning o'ziga ishonchi hissini shakllantirish. Xotin-qizlarning ijtimoiyligini ta'minlashda hayotiy xulosalarga tayanish.

3-AMALIY MASHG'ULOT. REPRODUKTIV SALOMATLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI (SOG'LOM OILANI REJALASHTIRISH USULLARI). QARINDOSHLAR ORASIDA NIKOH TUZISH HOLATLARI VA UNING SALBIY OQIBATLARINI OLDINI OLISH.

Reproduktiv salomatlik nima? Nima uchun reproduktiv salomatlik kerak? Reproductive salomatlik institutlari va vositalari. Oila va reproduktiv salomatlik. Reproductive salomatlikda sog'lom turmush tarzi. Reproductive salomatlikning ijtimoiy – psixologik jihatlari. Reproductive salomatlik har bir shaxsning o'z qo'lida. Reproductive salomatlik oila o'sishining asosi ekanligi. Uning rejali taqsimoti. Reproductive salomatlik ham erkakning ham ayolning vazifasi ekanligi. Oilani rejalashtirishda ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, tibbiy ahamiyatni bilish. Islom arkonlarida oilani rejalashtirish masalalari. Embriyon va unga munosabat. Homiladorlikning oldini olishning an'anaviy usullariga nimalar kiradi? Ularning afzallik va kamchilik jihatlari nimalardan iborat?

Oilani qurishdan maqsad, nikoh tushunchasi, nikoh masalalari, nikoh tuzish munosabatlari, nikoh va oilaning axloqiy asoslari. Qarindoshlar toifasi, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish holatlarining kelib chiqish sabablari va omillari, tarihi, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohni rasmiylashtirish borasida xorij tajribasi. Qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohlar ko'p tarqalgan hududlarning xususiyatlari, ijtimoiy-ma'naviy muhitdagi salbiy holatlar, Qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohlarning oldini olish hamda bartaraf etish yo'llari. Qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikoh munosabatlariga diniy va dunyoviy olimlarning qarashlari va ekspertlarning fikr mulohazalari.

4-AMALIY MASHG'ULOT. XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY FAOLLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI (MOTIVATSIYA, IJTIMOY INTEGRATSIYA).

Xotin-qizlar ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyat hayotiga integratsiyasi ekanligi. Xotin-qizlarning kasbiy, mehnat, oila, siyosiy jihatdan ijtimoiy integratsiyasini amalga oshirish muhimligi. Siyosiy partiyalardagi xotin-qizlar mavqei. O'zbekistonda ayollar integratsiyasiga oid davlat siyosati. Ayollar integratsiyasining psixologik aspektlari. Xotin-qizlarda o'ziga ishonchni kuchaytirishning muhimligi. "Ijtimoiy shartnoma". Xotin-qizlar faolligi - jamiyat rivojining muhim omili. Xotin-qizlarga oid me'yoriy hujjatlarning ahamiyati. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish. Psixologik usullar: motivatsiya, ijtimoiy integratsiya.

5-AMALIY MASHG'ULOT. "AYOLLAR DAFTARI" VA "YOSHLAR DAFTARI", "AYOLLAR MASLAHAT KENGASHLARI" – XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN YANGI TIZIM.

"Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari", "Ayollar maslahat kengashlari" xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishning yangi tizimi ekanligi. "Ayollar daftari" xotin-qizlar muammolarini aniqlash, ularni hayotga integratsiya qilish orzu havaslari va intilishlarini ro'yobga chiqarish usuli ekanligi. "Ayollar daftari" qanday ishlaydi? "Ayollar daftari"ga qanday javob beriladi?. "Ayollar maslahat kengashlari" nima? Agar siz hayotingizda biror bir muammo bilan ro'baro' bo'lsangiz kimga murojaat etishingiz kerak?

AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR:

Amaliy mashg'ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

O'QUV KURSINI OLIB BORISH SHAKL VA USLUBLARI:

O'quv kursining mashg'ulotlari nazariy va amaliy qismlardan iborat dars shaklida tashkillashtiriladi. Nazariy qism qisqa axborot beruvchi ma'ruza

metodida, amaliy qism “Keys-stadi?”, “Trening”, “Master-klass”, “Debat”, “Disput”, “Rolli o‘yinlar” kabi metodlardan foydalangan holda o‘tkaziladi.

O‘QUV KURSIDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR:

Mahalla fuqarolar yig‘ini raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari psixologiya yo‘nalishi kursini muvaffaqiyatli o‘qib tugallab quyidagi yo‘nalishlarda zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

- O‘zbekiston Respublikasida mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati;
- o‘smirlik yoshidagi o‘g‘il va qizlarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari;
- oilaviy munosabatlar psixokonsultatsiyasining nazariy-amaliy asoslari;
- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik jihatlari;
- yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolari;
- oiladagi shaxslararo munosabatlardagi nizolar va ularni bartaraf etish yo‘llari;
- oilaviy munosabatlardagi ajrimlar va ularning oldini olishni psixologik usullari;
- oilada ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarda tarbiyaviy ta’sir usullari;
- mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bilan ishlashning psixologik xususiyatlari;
- shaxsda hayot mazmunini, o‘zini anglash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

OILA PSIXOLOGIYASI YO'NALISHI BO'YICHA NAZARIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI.

1-MAVZU: OILAGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH. HOZIRGI ZAMON OILASINING ASOSIY FUNKSIYALARI

Reja:

1. Psixologik xizmat nima? Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish, psixologik xizmatni tashkil qilish, psixodiagnostika va uning tamoyillari.
2. Aholiga psixologik xizmat ko'rsatuvchi xodimning axloqiy - etik me'yorlari. Oila psixologining etik kodeksidan na'munalar.
3. Oilaning iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv) funksiyalari.

Tayanch iboralar: Psixologik xizmat, o'zini-o'zi tushunish, bilish, anglash, o'z-o'ziga va atrofida qilarga nisbatan bo'lgan munosabatlar, psixodiagnostik tamoyillar, amaliyotchi psixologning etik kodeksi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda keng jamoatchilik orasida psixologiya haqida, psixologik xizmat haqida ko'p gap yuritiladi. Xo'sh, psixologik xizmat nima? U qanday yo'nalishlarda olib boriladi?

Psixologik xizmat, aholiga, u yoki bu jamoa a'zolariga, ayniqsa oilalarga, uning a'zolariga o'zlarining psixologik muammolarini yechish, o'zini-o'zi tushunish, bilish, anglash, o'z-o'ziga va atrofida qilarga nisbatan bo'lgan munosabatlarini to'g'ri

Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish, oilalarga psixologik xizmat qilish oilaviy hayotida turli muammolarni xis qilayotgan, og'ir turmush sharoitiga tushib qolgan, ota-ona va farzand, er va xotin, qaynona va kelin va oilaning boshqa a'zolarining o'zaro va shaxslararo munosabatlarida muammoli vaziyatlarga duch kelib qolgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatishdan iborat. Albatta bunday holatlarda aholiga psixologik yordam ko'rsatish o'z-o'zidan bo'lavermaydi.

Psixologik xizmatni tashkil qilish, uni amalga oshiruvchi xodim shaxsi va uning professional etik jihatlari nimalardan iborat? Aholi o'rtasida psixologik xizmatni tashkil qilish, fuqarolar o'rtasida psixologik xizmatni amalga oshirish, muassasalarning tegishli lavozimlariga nomzodlarni qidirib topish, ulardan munosiblarini tanlab olish va bu borada amaliy psixodiagnostikadan o'rinli foydalanish - o'ta muhim, mas'uliyatli hisoblanadi. Bu ish o'ziga xos maxsus ma'lumot, kasbiy mahorat talab qiladi. Chunki, bu o'rinda gap inson taqdiri, xalq manfaatlari, yurt kelajagi ustida boradi.

Oilaga yordamni har xil soha egalari beradilar. Bularga seksologlarni, xuquqshunoslarni, psixologlarni, psixiatrlarni, narkologlarni, pedagoglarni va sh.k. kiritamiz. Hozirgi vaqtda oila va oilaviy munosabatlar haqida bilim berish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Bunday vazifani oilaga psixologik xizmat ko'rsatish markazlari va boshqa shu sohaga kiruvchi yo'nalishlar bajarishi lozim. Bu jarayonda psixologik maslaxat berish o'z oldidagi masalalarni hal qilishda katta qiyinchiliklarga to'g'ri kelayapti. Psixologik xizmatni bir xil


tushunib bo'lmaydi. Uning ikkita umumiy bo'lgan ta'rifi mavjud. Ularda psixologik xizmatni vazifalari va muammolarni yechish yo'llari ko'rsatilgan.

Birinchidan, psixologik xizmat ijtimoiy yo'nalishni: sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, oila mustahkamligi va boshqalarni psixologik jihatlardan ta'minlab beradi. Bu jarayonni boshqacha so'z bilan aytganda amaliy psixologiya deb yuritamiz.

Ikkinchidan, psixologik xizmat maxsus tashkilotlar tizimini ham belgilaydi. Shu xizmatga muxtoj bo'lganlarga xizmat ko'rsatadi. Psixologik xizmatni asosiy maqsadi odamlarga xizmat ko'rsatish, odamlarni bunga bo'lgan ehtiyojini qondirish hisoblanadi. Shunday qilib aytish mumkinki odamlarga maqsadga ko'ra xizmat ko'rsatishni "Psixologik xizmat" deb ataladi. Demak psixologik xizmat – bu psixologik yordamni keng ko'rinishidir. Psixologik xizmat orqali shaxslarga psixologik yordam beriladi. Psixologik xizmat haqida ko'plab ta'riflar berilgan. Deylik I. V. Dubrovina o'z fikrini bildirib shunday yozadi "Psixologik xizmat - integral xodisadir, u to'rtta yo'nalishni o'zida aks etdiradi, ya'ni ilmiy, tajriba, amaliy va tashkiliy".

Psixodiagnostika va psixodiagnost shaxsiga qator ijtimoiy etik talablar qo'yiladiki ularga amal qilish shart.

Psixodiagnostik tamoyillar



Psixodiagnostika natijalarini sir saqlash tamoyili - bu o'rganilayotgan odam shaxsan ruxsat bermaguncha uning natijalarini oshkor qilmaslikni taqozo etadi. Psixodiagnostika ilmiy maqsadlarda, eksperimental tadqiqotning bir qismi sifatida o'tkazilayotgan holatlar bundan mustasno.

Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganligi tamoyili - ularni eng kamida **validlik** va **ishonchlilik** talablariga javob berishini taqozo etadi, ya'ni ular ishonish mumkin bo'lgan natijalarni berishi kerak.

Ziyon yetkazmaslik tamoyili - psixodiagnostika natijalarini har qanday holatlarda tadqiq etilgan odamga ziyon yetkazmasligi kerakligini nazarda tutadi. Agar psixodiagnostika tanlov asosida tanlab olish maqsadida yoki odamni ishga qabul qilishda o'tkazilayotgan bo'lsa, unda mazkur tamoyil psixodiagnostika natijalari sinaluvchi uchun oshkora bo'lishi tamoyili bilan birgalikda qo'llaniladi.

Xulosalarning ob'ektivligi tamoyili - testlashtirish natijalaridan ularning ilmiy asoslangan bo'lishligini talab qiladi. Ya'ni, psixodiagnostika xulosalari test o'tkazayotgan yoki uning natijalaridan foydalanadigan

shaxsning sub'ektiv ustanovkalariga mutlaqo bog'liq bo'lmasligi va u tomonidan belgilangan bo'lmay, balki dalilli va ishonchli metodikalarni qo'llagan holda o'tkazilgan testlashtirish natijalariga asoslangan bo'lishi shart.

Taklif etiladigan tavsiyalarning samaradorligi tamoyili - bunday tavsiyalar kimga berilayotgan bo'lsa, shu odamlar uchun albatta foydali bo'lishi kerak. Testlashtirish natijalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan odam uchun foydasi tegmaydigan yoki qanday oqibatlarga olib kelishi noma'lum bo'lgan amaliy tavsiyalarni berishga ruxsat etilmaydi.

Psixodiagnostika ishlarini amalga oshirishda psixodiagnostikaga qo'yiladigan yuqoridagi talablar bilan bir qatorda, amaliyotchi psixolog shaxsiga ham alohida kvalifikatsion talablar qo'yiladi. Ularning asosiylari: yaxshi nazariy tayyorgarlikka ega bo'lish, psixodiagnostik metodikalar va ularni qo'llash qoidalarini mukammal bilish, tegishli metodikalardan amalda foydalanish borasida yetarlicha tajribaga ega bo'lish kabilardir.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi mo'tadil bo'lgan qator rivojlangan mamlakatlarda psixodiagnostik testlardan foydalanish, ularning natijalarini e'lon qilishga nisbatan qonuniy qayd etilgan cheklanishlar mavjud.

Aholiga psixologik xizmat ko'rsatuvchi xodim o'z faoliyatida quyidagi axloqiy - etik me'yorlarga amal qilishi shart:

1. Odamni uning ixtiyoriy rozilgisiz psixologik tadqiqotga jalb qilmaslik kerak (qonunda belgilangan alohida sud, sud-psixologik ekspertiza yoki meditsina amaliyoti holatlari bundan mustasno).

2. Psixodiagnostik testlashtirish o'tkazishdan oldin sinaluvchini, u tadqiqot jarayonida o'zi anglamagan (sezmagani, bilmagan) holda o'zi haqida, o'z fikr o'ylari, hissiyoti haqida ayrim ma'lumotlarni berib yuborishi mumkinligi haqida ogohlantirib qo'yish lozim.

3. Agar bu qonunda ko'rsatilmagan bo'lsa, har qanday odam (sinaluvchi) testlashtirish natijalarini va undan olingan ma'lumotlarni va ulardan kim, qayerda va nima maqsadda foydalanishi mumkinligini bilishga haqli.

4. Psixologik testlashtirish natijalari testni o'tkazgan odam tomonidan sinaluvchiga to'g'ri tushuniladigan shaklda berilishi kerak.

5. Voyaga yetmagan sinaluvchilarni testlashtirishda ularning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, bolaning testlashtirish natijalarini bilishga haqli.

6. Agar testlashtirish odamning psixik rivojlanganlik darajasini aniqlash, konkurs asosida tanlab olish yoki ishga qabul qilish maqsadida o'tkazilayotgan bo'lsa, bunda ham sinaluvchi nafaqat testlashtirish maqsadi, balki u haqida test natijalariga ko'ra qanday asosda xulosa qilinishini bilishga haqli.

7. Psixodiagnostik testlardan amalda foydalanish uchun asosiy javobgarlik ularni qo'llayotgan shaxslarga va tashkilotlarga yuklatiladi.

Amaliyotchi psixologning etik kodeksidan namunalar.

Etik kodeks - deb, odamlarning ular muloqotga kirishadigan u yoki bu jihatlardagi o'zaro munosabatlari va faoliyatida amalga oshadigan xulqining axloqiy qoidalari majmuiga aytiladi. Etik kodeks asosida o'zida adolat, mehribonlik mezonlarini namoyon etadigan, axloqiy me'yorlar yotadi.

Quyida psixologik amaliyotning turli vaziyatlarida amaliyotchi psixolog xatti-harakati axloqiy jihatlarini muvofiqlashtiruvchi **namunaviy** (taxminiy) **etik kodeksini** keltirib o'tamiz:

1. Psixologning psixodiagnostik amaliyotdagi kasbiy faoliyati uning sinaluvchilar oldida alohida javobgarlikka ega ekanligi bilan harakterlanadi.

2. Sinaluvchining shaxsiy manfaatlari, tegishli muassasa, uning rahbarlari va boshqa odamlar manfaatlariga zid bo'lgan holatlarda, psixolog o'z vazifasini maksimal xolislik bilan bajarishga majbur.

3. Psixologning ishi kasbiy mustaqillik va avtonomiya tamoyillari asosida tashkil qilinadi. Uning kasbiy-psixologik tavsifi masalalari yuzasidagi qarori yakuniy hisoblanadi va u yuqori boshqaruv idoralari, tegishli muassasalar ma'muriyati tomonidan bekor etilishi mumkin emas.

4. Psixolog qarorini tegishli hukm chiqarish vakolatiga ega bo'lgan va yuqori malakali psixologlardan tashkil topgan maxsus komissiya bekor qilishi mumkin.

5. Sinaluvchilar bilan ishlashda psixolog adolatlilik va samimiylik tamoyillariga asoslanadi.

6. Sinaluvchilarga psixologik yordam bera oladigan bo'lishi uchun psixolog kafolat va tegishli huquqqa ega bo'lishi lozim. U o'z navbatida unga berilgan huquqlardan o'rinli, to'g'ri foydalanish uchun shaxsan javobgardir.

7. Davlat xizmati idoralarida faoliyat ko'rsatayotgan psixologning ishi, har bir sinaluvchining intellektual va shaxsiy rivojlanishi yo'lidagi cheklanishlarning bartaraf etishni nazarda tutadigan mutloq guman (insoniy) maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak.

8. Psixolog o'z ishini, sinaluvchi sha'nini mutloq hurmat qilish va sinaluvchining shaxsi daxlsizligini ta'minlash asosida tashkil qiladi, uning asosiy insoniy huquqlarini faol himoya qiladi va hurmat qiladi.

9. Psixolog sinaluvchi manfaatlarini jamiyat oldida, barcha odamlar oldida himoya qiladigan asosiy himoyachilardan biri hisoblanadi.

10. Psixolog psixodagnostik va psixokorreksion metodikalarni tanlab olishda, shuningdek, o'zining xulosa va tavsiyalarini berishda ehtiyotkor, xushyor bo'lishi kerak.

11. Psixolog sinaluvchining shaxsiy rivojlanishini, uning insoniy erkini, jismoniy va psixologik daxlsizligini cheklaydigan ishlarda ishtirok etmasligi kerak. Psixologning kasbiy etikasining eng og'ir buzilishi, uni sinaluvchiga ziyon yetkazuvchi ishlarda bevosita yoki shaxsan ishtirokida namoyon bo'ladi. Bunday holatga bir bor yo'l qo'ygan shaxs psixodagnostik ishlar bilan shug'ullanish, professional psixologlik mutaxassisligini ta'kidlaydigan hujjatlardan foydalanish huquqidan butunlay (bir umrga) mahrum etiladi, qonun bilan belgilanadigan holatlarda esa sudga beriladi.

12. Psixolog sinaluvchining haq-huquqlari boshqa odamlar tomonidan paymol qilingan, sinaluvchilar bilan nogumon muloqotda bo'lingan holatlarni sezgan vaqtda bu haqda o'zining bevosita rahbariga xabar berishi shart.

13. Psixolog sinaluvchi huquqlarining buzilishiga olib keladigan har qanday siyosiy, g'oyaviy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa ta'sirlarga qarshilik ko'rsatishi kerak.

14. Psixolog, faqat o'zi zarur ma'lumot va malakaga ega bo'lgan sohalar bo'yichagina xizmat ko'rsatish huquqiga ega.

15. Yetarlicha aprobatsiyadan o'tmagan yoki barcha ilmiy standartlarga to'la javob bera olmaydigan psixodagnostik (psixokorreksion) usullardan noilojlik tufayli foydalanishga to'g'ri kelib qolgudek bo'linsa, unda psixolog bu haqda manfaatdor shaxslarni ogohlantirib qo'yishi va o'zining xulosa va tavsiyalarida ehtiyotkor bo'lishi kerak.

16. Psixologning psixodagnostik, psixokorreksion yoki psixoterapevtik materiallarni ulardan foydalanish uchun tegishli tayyorgarlikdan o'tmagan, nomutaxassis shaxslarga berishga haqqi yo'q.

17. Psixolog psixodagnostika va psixologik ta'sir etish metodikalaridan maxsus professional tayyorgarlikka ega bo'lmagan shaxslar tomonidan foydalanilishiga to'sqinlik qilish kerak, bu haqda bundan bexabar holda unday shaxslar xizmatidan foydalanayotgan kishilarni ogohlantirib qo'yishi shart.

18. Sinaluvchilarni individual psixologik tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni, psixolog faqat ularni o'zlarining roziligi bilangina uchinchi odamlarga aytishi yoki berishi mumkin. Bunda sinaluvchi u haqda kimga va qanday ma'lumotlar berilayotganligini bilishga haqli.

19. Tegishli muassasalar ma'muriyatiga sinaluvchi haqida, faqat bu odamlar ulardan sinaluvchiga ziyon yetkazish maqsadida foydalana olmaydigan ma'lumotlar beriladi, xolos.

20. Psixolog ommaviy axborot vositalari va boshqa psixologik yordam ko'rsatish vositalaridan foydalanishda, bunday ma'lumotlarni olish yoki tarqatishda, odamlarni psixologik xarakterdagi yordam uchun bunga haqqi yo'q yoki yaroqsiz, nomutaxassis shaxslarga murojaat qilishlari kabilar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirishi, bunday yordamni qayerdan va kimdan olish mumkinligini aytib o'tishi lozim.

21. Psixolog o'zini, uning roli va funksiyasi sinaluvchilarga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan turlicha (ikki) ma'noda tushunilishi mumkin bo'lgan ishlar yoki faoliyat bilan shug'ullanmasligi kerak.

22. Psixolog mijozlarga o'zi bajara olmaydigan va'dalarni bermasligi kerak.

23. Agar sinaluvchini tadqiq qilish yoki unga psixologik aralashish boshqa shaxsning: tegishli idoralar vakillari, shifokor, sudya va h.k. talabiga ko'ra bo'layotgan bo'lsa, psixolog bu haqda sinaluvchini xabardor qilib qo'yishi kerak.

24. Psixolog o'zi o'rgangan sinaluvchilar haqidagi ma'lumotlarning sir saqlanishi uchun shaxsan javobgar.


25. Biron-bir idoraga (muassasaga) ishga qabul qilinishda psixolog o'zining professional vakolati (kompetensiyasi) doirasida mustaqil faoliyat qilishligini aytib o'tishi, shuningdek, o'zi ishlaydigan (ishlashi lozim bo'lgan) idora ma'muriyatini va boshqa manfaatdor shaxslarni mazkur etik kodeks mazmuni haqida ogohlantirib qo'yishi lozim. Shu bilan birga psixolog ularni, uning ishiga faqat psixologik xizmatning tegishli vakolatga ega bo'lgan yuqori tashkilotlarga professional aralashishi mumkin ekanligi haqida ogohlantirib

qo'yishi kerak. Shuningdek, u boshqa shaxslar tomonidan bildirilgan noetik talablarni bajara olmasligi haqida ham ta'kidlab o'tishi joiz.

26. Professional amaliyotchi psixolog tomonidan etik kodeks nizomlarini buzish amaliyotchi psixologlar assotsiatsiyasi "psixolog obro'si" (sudom chesti)da muhokama qilinishi, zarur bo'lib qolgan sharoitlarda psixologik xizmat tarkibiga kiruvchi yanada yuqoriroq professional tashkilotlarda muhokama qilinishi kerak.

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funksiyalarini hisobga olish lozim.

Hozirgi zamon oilasining asosiy funksiyalari



Oilaning iqtisodiy funksiyasi

Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish er-xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lishlariga bog'liq. Shuningdek oilada o'sayotgan bola ham mana shu malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib borishi zarurligini unutmagan holda bolaga iqtisodiy masalalarni hal etishni o'rgata borish lozim.

Oilaning reproduktiv funksiyasi

Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan yana biri bu uning **reproduktiv** (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson turini davom ettirishdan iboratdir. Oila faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, ularni insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirish, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Tabiatan berilgan nasl qoldirish instinkti odamda farzand ko'rishga, ularni o'stirishga va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyojlarni qondirmasdan turib, kishi odatda o'zini baxtiyor his qila olmaydi.

Oilaning tarbiyaviy funksiyasi

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir funksiyasi **tarbiyalash** funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona san'atkor, bola - san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi.

Oilaning kommunikativ funksiyasi

Oilaning **kommunikativ** funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli ijtimoiy orientatsiyalar, ustanovkalar, hissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi - oiladagi o'zaro, ichki muloqot xarakteri, oiladagi katta a'zolarining muloqotda psixologik ustanovkalarni namoyon qilishlari, oiladagi ahloqiy-psixologik iqlimga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Hozirgi zamon oilalarida esa (nuklear oilalar miqdorining ortishi, urbanizatsiya, oila a'zolarining ko'proq vaqti ishga, ishdan bo'sh vaqtlarida teleseriallarni tomosho qilish va sh.k.larga sarflanishi tufayli) oila a'zolarining shunchaki o'zaro "gaplashib" o'tiradigan vaqtlari miqdorining keskin kamayib ketishiga, bu esa oqibatda oila a'zolarining muloqotga bo'lgan ehtiyoji qondirilmay, oilaning **kommunikativ** funksiyasining dolzarblashuviga olib kelmoqda.

Oilaning rekreativ funksiyasi

Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo'lib kelgan xususiyatlardan biri, undagi shaxslararo munosabatlar talablaridan biri uni o'z a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalanihini ta'minlash, shuningdek bolalarga va mehnatga yaroqsiz yoki keksa qarindoshlarga moddiy va jismoniy yordam ko'rsatish kabilardan iborat bo'lib kelgan.

Bu holat o'z navbatida oilaning asosiy funksiyalaridan yana birini, uning **rekreativ** funksiyasini tashkil qiladi. Bu oilaning **rekreativ - o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolari dam olishini tashkil etish funksiyasidir**. Bu funksiya keyingi yillarda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oilaning felitsitologik funksiyasi.

Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning felitsitologik funksiyasidir (italyancha "felitsite"-baxt). Shaxsiy baxtga erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi bo'lib bormoqda. Baxt nima o'zi? Hozirgi zamon oilasi o'z a'zolarining baxtini ta'minlashda qanday rol o'ynaydi? Baxtga intilish har bir inson uchun tabiiydir va ayni shu baxtga intilish ularni oila qurishga undaydi. Inson o'ziga ato etilgan baxtning to'rttdan uch qismini oiladan, choraktaga yetar-yetmas qismini boshqa narsalardan topadi. Oilada er-xotinning bir-birini

to'liq tushunishini - ularning o'zini baxtli his qilishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, o'zidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlar (iqtidor)ni ro'yobga chiqarish, jamiyat va oila doirasida sarflash ham insonga o'zini baxtli his qilish imkonini beradi. Keyingi vaqtlarda insonning imkoniyatlari ortgan sari uning baxtga intilish darajasi ham ortib bormoqda.

Oilaning regulyativ funksiyasi.

Oilaning regulyativ funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi. O'tgan zamonlarda oilaning boshqarish funksiyasi ma'lum darajada rasmiy tarzda belgilab ham qo'yilgan. Unga ko'ra oilada kim oila bo'lishligi, uning obro'si va ustunligi qayd etilgan va oilaning shu a'zosi (asosan ota) butun umri davomida o'z farzandlari va oila a'zolari xatti-harakati, xulqi uchun javobgar bo'lgan. Ota-onasiga bo'ysunmaganlarni jazolash hollari ham nazarda tutilgan.

Shu bilan birga oilaning boshqaruv funksiyasi oila a'zolarining xulqi, mas'uliyati, majburiyati kabilarni ham boshqarishni, nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Odam oila qurganidan so'ng albatta uning ijtimoiy mavqei o'zgaradi. Endi u "uylanmagan yigit", "turmushga chiqmagan qiz" emas, balki "oilali" odamdir. Shunga ko'ra u o'zining xatti-harakatlari, xulqini ham oilali odamga xos tarzda qaytadan ko'rib chiqadi. Oila qurish tufayli uning mas'uliyati ortadi. Erning va xotinning xulqi ham endi o'ziga xos boshqariladi.


Oilaning relaksatsiya funksiyasi.

Hozirgi zamon oilasining eng asosiy funksiyalaridan yana biri relaksatsiya funksiyasidir. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana **qayta tiklash** demakdir. Ishlab chiqarish jarayonlari jadalligining bunday tarzda davom etishi shu jarayonlar ishtirokchisi, boshqaruvchisi insonni tezda toliqib,

o'zining mehnat qobiliyatini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Ish kuni davomida ko'tarinkilik, kuchli zo'riqish bilan ishlagan xodim, ishchi ishdan so'ng o'z uyida, oila a'zolari qurshovida boshqa tashvishlarni unutib, ular unga ko'rsatadigan mehr-oqibatdan bahramand bo'lib, ular bilan bo'ladigan o'zaro muloqot, ular tomonidan bo'ladigan emotsional qo'llab-quvvatlash, beriladigan daldalardan ruhiy quvvat olib, ertangi kun mehnat faoliyatiga o'zini qayta tiklab olishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa uning oilasida tinchlik, totuvlik, o'zaro tushunish, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, ijobiy psixologik iqlim hukm surmog'i lozim. Aks holda odam bu oilada emotsional jihatdan, ruhiy jihatdan o'zini qayta tiklay olmaydi.

 Topshiriq. Ven diagrammasi orqali axloqiy - etik me'yorlarni aniqlaymiz.

Venn diagrammasi asosida bajariladi. Venn diagrammasining har bir doirasiga asosli fikrlar yoziladi. **“Axloqiy - etik me'yorlar”** va **“Axloqiy - etik me'yorlarning inson hayotidagi roli”**ning bir-biridan farqli ijobiy jihatlarini alohida-alohida doiralarga, ularning uyg'unligini doiralarning tutashgan hududiga qayd etiladi.



Nazorat savollari:

1. Oila psixologining etik kodeksiga berilgan ta'rifning to'g'ri javobni ko'rsating?

- A) Odamlarning ular muloqotga kirishadigan u yoki bu jihatlardagi o'zaro munosabatlari va faoliyatida amalga oshadigan xulqining axloqiy qoidalariga majmuiga aytiladi.
- B) O'zaro munosabatlar va faoliyatida amalga oshadigan xulqining axloqiy qoidalariga aytiladi.
- D) Odamlarning o'zaro munosabatlari va faoliyatida amalga oshadigan axloqiy qoidalariga majmuiga aytiladi.
- E) Muloqotga kirishadigan u yoki bu jihatlardagi o'zaro munosabatlari va faoliyatining axloqiy qoidalariga aytiladi.

2. Oila funksiyalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating?

- A) iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv), felitsitologik
- B) iqtisodiy, reproduktiv, produktiv, pedagogik, nopedagogik
- D) iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naqiy, moddiy, regulativ
- E) ijtimoiy, reproduktiv, produktiv, kommunikativ

2-MAVZU: OILAVIY PSIXOLOGIYA VA UNING TADQIQOT METODLARI. O'ZBEK OILASINING PSIXOETNIK XUSUSIYATLARI. O'ZBEK MENTALITETI: UNING IJOBIY VA SALBIY JIHALTLARI.

Reja:

1. Oiladagi shaxslararo munosabatlarda oilaviy psixologiyaning tutgan o'rni.
2. Oilaviy psixologiya va uning ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. O'zbek xalqi mentaliteti va uning o'ziga xos jihatlari.

Tayanch iboralar: Oilaviy psixologiya va uning tadqiqot metodlari, psixoetnik xususiyatlari, o'zbek oilalariga xos muammolar, oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

O'zbekiston psixologlari tomonidan o'zbek oilalariga xos muammolarni o'rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o'rganilib tahlil qilingan. Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda.

Oila psixologi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlaydi. Xo'sh, qanday hollarda oila psixologi zarurligini taqozo qiladi?

Oilaviy psixologiya - oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo'lishini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya amaliy tarmog'i sifatida u nikohga oid ustanovkalarni, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning - mehribonlik, g'amxo'rlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo'ysunish, yetakchilik kabi o'ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsimoti va o'zaro ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-ona va farzandlar, yaqin qarindosh urug'lar o'rtasidagi hissiy-emotsional bog'liqlikni, oilaviy ro'zgor yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bo'lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o'rganadi.

Oilaviy hayot psixologiyasi, shunday qilib, insonlarning qanday qilib o'zaro qovushishlari, birgalikda yaxshi niyat bilan oila - ro'zg'or


yuritishlari, bahamjihatlikda hayot kechirishlarini o'rganuvchi fan tarmog'idir.

Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan. Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui bo'lib hisoblanadi. Oila haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo ko'z o'ngimizda ona siymosi shakllanadi. Oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omil - ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehru - muruvvati, sadoqati va vafodorligidir. Ota-onalar munosabatlarda namoyon bo'luvchi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar ularning o'zaro munosabatlarida uyg'unlasha borib, oilada o'zaro munosabatlar maromini vujudga keltiradi.

O'zbekiston psixologlari tomonidan o'zbek oilalariga xos muammolarni o'rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan, ya'ni,

- *oila-nikoh munosabatlari;*
- *yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;*
- *o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik;*
- *o'zbek oilalaridagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar;*
- *ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi birqator masalalar har tomonlama o'rganilib tahlil qilingan.*

Har bir oila konkret davr, vaqt, zamon va makonda mavjud bo'lganligi sababli, u avlodlararo bog'liqlik, ma'naviy meros, milliy an'analar, urf-odatlar va rasm-rusmlarni saqlovchi noyob insoniy uyushmadir. Shu institut bo'lgani sababli, har bir millat, elat va xalqlarning noyob udumlari asrlar osha saqlanib kelmoqda. Umuman, nikoh deb atalmish qadriyatning mavjudligi va unga avlodlarning e'tiqod qilishi ham oilaning muhim vazifasidir.



1. Kuzatish metodi. Oilaviy munosabatlarni kuzatish deb oilaviy va turmush vaziyatlarida odamlarning tashqi xulq-atvorini idrok etish va muntazam qayd etib borishga bog'liq faoliyatga aytiladi.

2. Konkret vaziyatlarni tahlil qilish metodi. Oila muhitida yoki hayotiy sharoitlarda ro'y bergan voqea-hodisalarni qayd etish unga kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda o'rganayotgan shaxs testlar o'tkazishi, oila a'zolarining biografik ma'lumotlarini tahlil etishi yoki aniq maqsadli so'rov o'tkazishi mumkin.

3. So'rov metodi. So'rov odatda bevosita yuzma-yuz ko'rishib o'tkazilishi, telefon orqali yoki pochta orqali yuborilgan yozma savolnoma tarzida o'tkazilishi mumkin.

4. Statistik metodlar. Matematik statistikaning qator usullari empirik izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning qay darajada ilmiy jihatdan asoslanganligini isbotlash maqsadida qo'llaniladi.

5. Eksperiment. Ushbu usul yordamida bir omil ta'sirining boshqa bir omil yoki xolatning kelib chiqishiga turtki bo'lishini aniklash mumkin. Odatda oilaviy munosabatlar dinamikasini o'rganishda, u yoki bu xodisalar yoki omillar o'rtasidagi bog'liklikni aniqlashda eksperiment usulidan foydalaniladi.

XXI asr o'zbek xalqi tarixi va milliy qadriyatlarini o'rganish sohasida yangi zarvaraqlarni muhrlamoqda. Bugungi kunda tariximizning noma'lum bosqich va qirralari qaytadan kashf etilmoqda. O'zbekistan mustaqilligidan so'ng o'zbek xalqining qadimiy davlatchilik an'analari, etnik tarixi va etnogenezigaga bag'ishlagan qator salmoqli tadqiqotlar yaratilmoqda¹. Lekin, afsuski hozirgi qadar o'zbek xalqning mentaliteti, uning o'ziga xos tomonlari, milliy yutuqlarimiz va nuqsonlarimiz borasida tadqiqotlar aytarli ko'zga tashlanmayapti².

Tarixdan ma'lumki, dunyodagi har bir millatning shu jumladan o'zbeklarning ham aqliy ruhiy qiyofasi ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etniq tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllangani bois, uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham turli bo'lishi shubhasiz. Zero, milliy o'ziga xosliklar uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnashuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy psixologik qarashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi.

O'zbek xalqining milliy mentaliteti haqida so'z yuritishdan oldin shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqi 4 ta katta diniy-mafkuraviy bosqichni (zardo'shtiylik, buddaviylik, islom, kommunistik) o'z boshidan kechirganligi va har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davri tugaguncha necha avlodlar almashganini va bu jarayonlarning millat fe'l-atvorida o'chmas iz qoldirganini unutmaslik kerak.

O'zbek xalqining etnik jihatidan ko'p tarmoqli va sertomir ekanligi uning mentalitetida barcha urug' va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlari, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatning ayniqsa rivoj topishni taqozo etib

¹ Ўзбек халқининг қадимий давлатчилиги ва этник тарихига бағишлаган адабиётлар тўғрисида қаранг: Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т., 2000; Ртвеладзе Э.В. ва бошқалар. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар.-Т., 2001; Ўзбек давлатчилиги тарихидан очерклар.Т.,2001; К.Шониёзов Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т., 2001. Асқаров А.А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари // Ўзбекистон тарихи 2002. №4. 54-60 бетлар

² Бу мавзуда социолог олимлар томонидан маълум тадқиқотлар бажарилган. Қаранг: М.Б. Бекмуродов, А.Бегматов Миллий менталитет ва раҳбар маънавияти.-Т.,2003. Бекмуродов М.Б. Ўзбек менталитети хусусиятлари // Ижтимоий фикр 1998 №1.49-53 бетлар. Ўша. муаллиф. Ўзбек менталитети: кеча ва бугун // Тафаккур 2002 №2. 10-15 бетлар

kelgan. Xalqimiz fe'lidagi bag'rikenglik, hotamtoylik, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikda moyillik, g'am-anduhi paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlarini ana shu jamoaviy yakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr birligini saqlash ehtiyojlaridan tug'ilgan va sayqal topgandir.

O'zbeklarning boshqa asosiy ildizi turkiylardan boshlaganligiga (turkiylikka xos jangovarlik, mardlik, lafz halolligi) bag'rikenglik, sahovatpeshalik, hojatbarorlik kabi xislatlarimizda o'zining yorqin ifodasini topgan. Biz buni ayniqsa xalqimizning to'y-tantanalarga o'ta o'chligida, yillar mobaynida yig'ib – terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, a'za va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motam marosimlarimizgacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarimizda, keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lishi kabi udumlarimizda kuzatamiz.

Milliy mentalitetimizda turkiylarga xos jihatlar ma'naviy madaniyatimizda, chillak chavgon, ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlarmizda, "quloqtishlar", "beshikkerti", "qalin", "to'qqiz" kabi rasm-rusm va udumlarimizda, qolaversa, otga bo'lgan o'ziga xos mehr-muhabbat va motam marosimlarda ishtiroki bilan bog'liq udumlarimizda yorqin ifodasini topgan.



Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ming-ming yillar davomida shakllangan milliy mentalitetimiz bizga qo'shni bo'lgan boshqa xalqlarga muallaq holda o'zga xalqlardan ayri rivojlanmagan. Aksincha, milliy mentalitetimizga biz bilan qo'shni bo'lib yashab kelgan boshqa xalqlarning ma'lum ma'noda ta'siri bo'lgan. Ayniqsa o'zbek milliy mentalitetida forsiy zabon xalqlar va arablarning ta'siri katta bo'lgan.

O'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan yana biri jamiyat hayoti, insonlar turmushtarzini ko'proq an'ana urf-odatlar orqali boshqarilishidir.

O'zbek xalqi oila qurish an'analarga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo'lmish tomon xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o'rnini va obro'- e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodning jamoadagi mavqei va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda, hal qiluvchi omil vazifasini o'taydi. Farzandlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'ymaslikda jamoa, jamiyat ra'yi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham, jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir. Shu o'rinda "G'arb qonunlari, sharq urf-odatlari bilan boshqariladi" degan iborani eslamoq joiz. Darhaqiqat, Sharqda, shu jumladan o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlar qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida, yoiniki, keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnichilik an'analарimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida bajariladi.

G'arbda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa insonning ichki, botiniy dunyosi, ruhiyati va shaxsiy hayotiga mutloq aralashmaydi. Sharqda jamoaga asosiy e'tibor beriladi. Har bir urf-odat, marosim jamoa, mahalla ahli ishtirokida o'tkaziladi. Jamoa insonni ijtimoiy nazorat ostida tutib turish, shaxsning jamoadagi muntazam ishtiroki uning umumiy ahloqiy me'yorlari doirasida ish tutayotganining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ajralgan holda ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida baholanadi.

Xulosa qilib, aytish mumkinki, butun jahon bo'yicha ulkan globallashuv jarayonlar kechayotgan bir vaqtda o'zbek milliy mentalitetini tadqiq qilish, uning nechog'lik umuminsoniy qadriyatlarga mosligini kuzatish imkonini

beradi. Shuningdek, xalqimizning qadimiy anʼanalari, azaliy urf-odat hamda marosimlariga ega boʻlishi bilan birgalikda, oʻziga xos va oʻziga mos milliy mentalitetga ega xalq ekanligidan dalolat beradi.



Topshiriq. Oʻzbek mentalitetining oʻziga xos va etnik jihatlarini (T-sxema yordamida oʻrganiladi) yozing.

Oʻzbek mentalitetining oʻziga xos jihatlar	Oʻzbek mentalitetining etnik jihatlar

Nazorat savollari:

1. Oilaviy psixologiya nimani oʻrganadi?

A) Oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining obʼektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urugʻchilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila aʼzolari ijtimoiy xulqining namoyon boʻlishini oʻrganadi.

B) Oila-nikoh hamda qarindosh-urugʻchilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila aʼzolari ijtimoiy xulqining namoyon boʻlishini oʻrganadi.

D) Oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining obʼektiv qonuniyatlari namoyon boʻlishini oʻrganadi.

E) Oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining obʼektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila aʼzolari ijtimoiy xulqining namoyon boʻlishini oʻrganadi.

2. Oila psixologiyasining tadqiqot metodlarini sanab bering?

A) Kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, soʻrov, eksperiment, statistik metodlari

B) Kuzatish, analiz ,sintez, vaziyatlarni nazorat qilish

D) Iqtisodiy, ijtimoiy, maʼnaqiy, moddiy, regulyativ

E) Ijtimoiy, reproduktiv, produktiv, kommunikativ

3-MAVZU. ZAMONAVIY HAYOT VA UNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIR ETUVCHI MUAMMOLARI. EHTIYOJ, MOTIV VA MOTIVATSIYA. SHAXS EHTIYOJLARINI BAHOLASH.

Reja:

1. Zamonaviy hayot va uning inson psixologiyasiga ta'sir etuvchi muammolari.
2. Ehtiyoj nima? Motiv nima? Motivatsiya nima? Motivatsiyaning nazariy muammolari. Shaxsning shakllanishida motivatsiyaning roli.

Tayanch iboralar: Pragmatik va samarali muloqot, kreativ iqtisodiyot, inson psixologiyasi, milliy brend, ehtiyoj, motiv, motivatsiya.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi islohotlar, eng avvalo, dunyoda, shu jumladan, jahon iqtisodiyoti kon'yunkturasida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga mos holda amalga oshirilmoqda. Tanlab olgan yo'limiz global inqirozdan keyin jahon iqtisodiyoti rivojlanish sur'atlari pasaygan bir sharoitda o'zining barqarorligi va hayotiyligini ko'rsatayotir.

Ekspertlarning tasdiqlashicha, O'zbekistonda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik tashqi salbiy ta'sirlarga samarali qarshi turish imkonini berayapti.

Ayni vaqtda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalar izchil ro'yobga chiqarilmoqda. Ushbu dasturiy hujjat mamlakatimizning mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishi uchun yo'l ochib berdi. Ekspertlar fikricha, Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi O'zbekiston uchun katta qadam bo'lib, mamlakat bu borada izchil va ishonchli harakat qilib, zarur mustahkam asosni yaratgan edi.

Pragmatik va samarali muloqot

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat va jamiyat munosabatlariga yangicha ruh bag'ishladi. Soha rivoji davlat hamda jamiyat, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning yangi shakllari amaliyotga joriy etilishiga xizmat qilmoqda.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichi, joylardagi muammolarni chuqur tahlil etish hamda hal qilish mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etayotir.



Shunday qilib, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi javobgarligi tamoyili amalda ro'yobga chiqarilmoqda. Fuqarolarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usi kuchaygan. Bu esa davlat va xalq munosabatlaridagi o'zaro ishonchning mustahkamlanishida, jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qilayotir. Eng muhimi, ekspertlar aholi tafakkurida, dunyoqarashida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganini qayd etishayapti. Ularning nazdida bu jamiyat oldidagi vazifalarni ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kreativ iqtisodiyot sari

Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, qishloq xo'jaligini tarkibiy yangilash, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan hayotiy tashabbuslar ilgari surilmoqda. Shunisi e'tiborliki, belgilangan vazifalarni to'liq amalga oshirish uchun O'zbekistonda innovatsion taraqqiyotga hamda iqtisodiyotning o'sish sur'atini jadallashtirishga asoslangan kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari ko'rilayotir.



Uning asosiy g'oyasi nafaqat eksportni ko'paytirish, balki sifatli ish o'rinlari yaratish imkonini beruvchi yangi tarmoqlar, tovar va xizmatlarni yo'lga qo'yishni ta'minlashdan iborat. Kreativ iqtisodiyot, shuningdek, "start-up"lar, ya'ni yangicha biznes-loyihalar, original g'oyalarni qo'llab-quvvatlash orqali fuqarolarning ishlab chiqarishdagi faol ishtirokini ko'zda tutadi.

Yurtimizda "start-up"lar tobora keng joriy etilmoqda. Ular, ayniqsa, yoshlar orasida ommalashgan. Masalan, Yoshlarning "start-up" tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash dasturiga start berildi. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim muassasalaridan mingdan ziyod talabalar ishtirok etdi. Keng qamrovli ushbu loyihada eng ko'p tashabbuslar elektron tijorat, ta'lim, kommunikatsiya va navigatsiya texnologiyalari, transport hamda yo'l infratuzilmasi, tibbiyot va biotexnologiyalar sohasiga tegishli bo'ldi.



Prezidentimiz tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish hamda liberallashtirish maqsadida 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul

qilindi, amaldagi qator qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili instituti tuzildi. Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, O'zbekistonda iqtisodiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha yondashuv o'zgarayapti. Bu, avvalambor, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgandir. Bunda asosiy e'tibor yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishni tashkil qilish hamda kengaytirishga xorijlik sheriklar va investitsiyalarni jalb etishga qaratilmoqda.

Chet el investitsiyalarini faol jalb qilish, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarni tashkil qilish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimiz hududlarida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati yo'lga qo'yilayapti. Qisqa davr ichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida **11 ta** erkin iqtisodiy zona tashkil etildi. Bu ham hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan foydalanish jug'rofiyasi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning rivojlanganini inson kapitali, ya'ni intellektual salohiyat, salomatlik, ta'lim, mehnat unumdorligi, yuqori hayot sifati belgilab beradi. Bugungi zamonaviy dunyoda aynan ushbu omil kreativ iqtisodiyotning asosiy lokomotivi sanaladi. BMT tadqiqotiga ko'ra, O'zbekiston 2016-yil yakunlari bo'yicha inson rivojlanishi yuqori darajada bo'lgan davlatlar qatoridan joy oldi.

Ekspertlar yana shunga e'tibor berishmoqdaki, O'zbekistonda kreativ sinfning shakllanishi faollashdi va u kelgusida mamlakat iqtisodiyotida tayanch nuqtaga aylanadi. Jumladan, ilmiy ishlanma hamda tadqiqotlar, tajriba-sinovlar o'tkazish, innovatsion mahsulotlar na'munalarini o'zlashtirishga ixtisoslashgan innovatsion texnoparklar tashkil etish mo'ljallanmoqda. Ular kimyo texnologiyalari, farmasevtika va tibbiy

biotexnologiyalar, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati, energiya tejamkorligi, muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish, mashinasozlik, elektrotexnika singari sohalarga tegishli.

Milliy brend shakllanmoqda

Ma'lumki, muayyan davlatni xalqaro miqyosda ikki yo'l bilan, ya'ni mamlakat brendini yaratish hamda shu asosda milliy tovarlar va xizmatlarni keng ishlab chiqarish orqali targ'ib qilish mumkin. Mutaxassislarning fikricha, muvaffaqiyatli brendni yaratish "iqtisodiyotning olti burchagi" deb ataladigan hamda o'zaro bog'langan oltita sohani rivojlantiradi. Bular turizmni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, ichki va tashqi siyosatni faollashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, mamlakat madaniyatini targ'ib qilish hamda aholi farovonligini yuksaltirishdir.



O'zbekiston jahon bozorida milliy brendni ilgari surish bo'yicha ulkan imkoniyatlarga, zaxiralarga ega. Xususan, xalqimizning boy madaniy merosi, yurtimizning barqaror rivojlanib borayotgani, mehmondo'st xalqimiz, zamonaviy infratuzilmalarga ega shaharlarimiz bu borada bizga qo'l kelishi mumkin. Milliy brendni shakllantirishda davlat, biznes va jamiyat hamkorligi muhim o'rin tutadi. Chunki aynan ishbilarmonlar xorij investitsiyasini jalb qilish va mamlakatimiz mahsulot hamda xizmatlarining dunyo bozorlariga chiqishidan manfaatdor. Davlatning muvaffaqiyatli brendi yaratilishi nafaqat ichki va tashqi siyosiy imijni yaxshilashga, balki uning xalqaro maydondagi siyosiy ta'sirini kuchaytirish, eksport hajmini oshirish, xalqaro aloqalar va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash, milliy g'urur va milliy o'zlikni

anglash tuyg'ularini rag'batlantirish, mamlakat raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Binobarin, yurtimiz dunyo tamaddunining beshiklaridan biri sifatida asrlar davomida Mag'rib va Mashriq o'rtasida ko'prik vazifasini o'tab, insoniyatning madaniy hamda ilmiy boyliklarini o'zida jam qilgan. Jonajon Vatanimiz ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek singari buyuk alloma hamda mutafakkirlarni yetishtirib bergan. Ekspertlar e'tirof etishicha, o'zbekistonliklar azal-azaldan nafaqat uddaburon tijoratchi, iqtisodiyotni boshqarishga qodir, pul topishning hadisini olgan kishilar bo'lishgan, shu bilan birga, ilm-fan dovrug'ini yoyishga ham katta hissa qo'shgan.

Bugungi kunda mamlakatimizning eksport jug'rofiyasi izchil kengayib borayapti. Dunyoning Yaponiya, Koreya Respublikasi, Kuvayt, Ummon singari qator davlatlarida savdo uylarini ochish bo'yicha faol ish olib borilayapti. Afg'onistonga "tahdidlar manbai" sifatida emas, balki strategik imkoniyatlar makoni sifatida qaralib, savdo aloqalari jadallashayotir.

Mamlakat xalqaro imidji, ko'p jihatdan, o'z yetakchisining barcha islohotlarda asosiy tashabbuskor sifatidagi roli bilan belgilanadi. Bugungi kunda Prezidentimiz axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishi, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi eng dolzarb muammolar bo'yicha muloqotga ochiqqligi bilan mamlakat milliy brendini shakllantirishda o'rnak bo'lmoqda.

Ushbu yo'nalishda nufuzli xalqaro institutlarning baholari, reyting va indeksleri muhim ahamiyatga ega. Masalan, Jahon bankining "Biznes yuritish - 2017" deb nomlangan ma'ruzasiga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 190 ta mamlakati orasida 87-o'rinni egallagan. Bundan tashqari, Jahon banki o'tgan yili mamlakatimizni tadbirkorlik sohasida muhim islohotlar o'tkazgan mamlakatlar o'ntaligiga kiritdi. "Focus Economics" tadqiqotlari natijalariga muvofiq, O'zbekiston 2016-yilda yalpi ichki mahsulot o'sishi sur'atlari bo'yicha dunyoning 127 mamlakati orasida 7-o'rinni egalladi. AQShning Gull-up


instituti tadqiqotida o'zbekistonliklar sayyoramizda eng baxtiyor va ijobiy kayfiyatdagi xalqlar uchligidan joy oldi.

Umuman, kuchli milliy brendni shakllantirish alaloqibat mamlakatimizning xalqaro reytingi, siyosiy ta'siri, investorlar ishonchi ortishiga, mahalliy mahsulotlar eksporti o'sishiga, turizmning rivojlanishiga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga, aholi hayot sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Bugun O'zbekiston o'z atrofida farovonlik kamarini shakllantirish, jamiyat hayotining barcha jabhasiga zamonaviy yondashuv va usullarni keng tatbiq etish orqali o'z bunyodkorlik salohiyatini jadal safarbar qilib borayapti.

Ehtiyoj nima? Motiv nima? Motivatsiya nima?

Ehtiyoj nima? Tabiiy boyliklarni, resurslarni ko'proq ishlatish hisobidan ehtiyojlarni qondirish vaktinchalikdir, chunki tabiiy boyliklar, resurslar tugab borganidan kishilar uni kamroq sarflash yo'lini qidiradi.

Extiyojlar ko'p bo'lganidan ularning hammasini birdaniga qondirish mumkin emas, shu boisdan ularning eng muhimlari ajratib olinadi va ehtiyojlarni qondirishga qaratiladi.



Ma'lumki, "**Motiv**" deyilganda, insonni ma'lum bir ehtiyojini qondirish bilan bog'liq bo'lgan muayyan faoliyatga ichki undalishi tushuniladi. Bu o'rinda, insonning ideallari, shaxsning qiziqishlari, e'tiqodi, ijtimoiy ustanovkalari, qadriyatlarini motiv sifatida hisoblash mumkin. Shu bilan birga bu sabablarning barchasini ortida baribir inson ehtiyojlari yotadi (bunda ehtiyojlarni ifodalanishining barcha ko'rinishlari: biologik ehtiyojlardan tortib to oliy, ijtimoiy ehtiyojlargacha narazda tutiladi). Ehtiyojlar esa insonni har qanday faoliyatga undovchi asosiy omil, motiv bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning motivatsion jihatlari deyilganda, an'anaviy ravishda shaxsning yo'nalganligini ifodalovchi va ma'lum bir ierarxiyaga ega, turg'un motivlari majmui tushuniladi.

MOTIVLAR TAVSIFI	
ANGLANGAN MOTIVLAR	ANGLANMAGAN MOTIVLAR
ODAM – O'ZINI U YOKI BU FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHGA UNDAGAN NARSA NIMA, NIMALAR UNI EHTIYOJLARINING MAZMUNI BO'LIB HISOBLANISHLIGINI BILADI, ANGLAYDI VA ULAR UCHUN O'ZIGA HISOBOT BERADI.	ODAM – O'ZINI U YOKI BU FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHGA UNDAGAN NARSA NIMA, NIMALAR UNI EHTIYOJLARINING MAZMUNI BO'LIB HISOBLANISHLIGINI ANGLAMAYDI, BILMAYDI VA ULAR UCHUN O'ZIGA HISOBOT BERA OLMAYDI.
ANGLANGAN MOTIVLAR	ANGLANMAGAN MOTIVLAR
QIZIQISHLAR, INTILISHLAR BILAN XARAKTERLANADI	USTANOVKALAR, MAYLLAR BILAN XARAKTERLANADI

Inson faoliyati va motivatsion holati muammolarini tadqiq etgan psixolog olim Yerks-Dodson qonuniga ko'ra faoliyat samaradorligi - motivatsiya kuchiga bog'liq bo'ladi. Motivatsiya kuchi qanchalik kuchli bo'lsa, faoliyatning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Shaxsning motivatsion jihatlari deyilganda, an'anaviy ravishda shaxsning yo'nalganligini ifodalovchi va ma'lum bir ierarxiyaga ega, turg'un motivlari majmui tushuniladi.

Motiv nafaqat miqdoriy (kuchli – kuchsiz), balki sifatiy jihatlardan ham xarakterlanishi mumkin. Bu o'rinda odatda ichki va tashqi motivlar farqlanadi. Bunda gap motivning faoliyat mazmuniga munosabati haqida boradi. Agar, shaxs uchun faoliyat o'z holicha ahamiyatli bo'lsa, unda bu ichki motivatsiyaning muhimligini ko'rsatadi. Agar boshqa motivlar ahamiyatli bo'lsa (ijtimoiy mavqe, maosh va sh.k.), unda tashqi motivlar ustuvorlik qilayotgan bo'ladi. Motivlarning sifat xarakteristikasi juda muhim ahamiyatga ega.

Shaxs faolligi ko'rinishlari

Inson ma'lum bir faoliyatni amalga oshirar ekan, uni faoliyatining asosini turli motivlar tashkil qiladi. Shunday holatlar ham bo'ladiki, ba'zan bir faoliyatni amalga oshirishga ikki xil motiv asos bo'lishi mumkin. Bunda, qaysi motiv "kuchli" bo'lsa shu motiv ustunlik qiladi va inson shu motiv turtki bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. Agar odamni faoliyatga undaydigan motivlar "kuchi teng" bo'lib qolgudek bo'lsa, unda shaxsda "**motivlar kurashi**" jarayoni ro'y beradi. Motivlar kurashi o'z navbatida insonda iroda aktining asosiy ko'rinishlaridan bo'lmish, "**irodaviy zo'r berish**" holatini yuzaga keltiradi. Irodaviy zo'r berish holatida esa, shubhasiz irodaning **undovchi** va **tormozlovchi** funksiyalari ishga tushadi. Bu o'rinda qaysi motivning shaxs uchun "ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lsa", irodaning undovchi funksiyasi shaxsni shu faoliyatni amalga oshirishga yo'llaydi (undaydi). Irodaning tormozlovchi funksiyasi esa, shaxsni ko'zlagan maqsadiga erishishiga halaqit qilishi mumkin bo'lgan xohish istaklari, motivlarini to'xtatib turadi.

"**Analitik psixologiya**" ta'limoti asoschisi, g'arbning atoqli psixolog olimlaridan biri Karl Gustav Yung (1875-1961), o'zining "Psixologik tiplar" kitobida, faoliyat motivlari, asoslari, shaxsni u yoki bu faoliyatga undovchi kuchlar haqidagi muammoni muhokama qilar ekan, Z.Freydning "libido" tushunchasini yanada kengroq talqin qilib, "libido" deganda inson qalbidagi

jarayonlar faolligini belgilaydigan ruhiy quvvatni tushunadi. Bu quvvat, Yungning ta'kidlashicha, inson ruhiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan ichki holat bilan bog'liq.

Yung ongsizlik masalasini talqin qilishda "arxetip" tushunchasidan foydalanadi. "Arxetip" deganda u butun insoniyatga xos ichki immanent³ xususiyatlarni tushunadi. "Arxetip" shunday simvolik-timsoliy formulaki, anglanmagan holatda ishga tushadi va **hech qachon anglanmaydi**"⁴. Shuning uchun ham, odam hamma vaqt ham va har bir ishda o'z xatti-harakatlarining haqiqiy "asosini" tushunib yetmasligi, adekvat izohlab bera olmasligi mumkin.

Odam o'z faoliyati motivlarini anglashi ham, anglamasligi ham mumkin. Bu o'rinda anglanmagan motivlar nisbati ko'proq. Bu nisbat tahminan qancha bo'lishi mumkinligi bizga yaxshi tanish (ba'zi manbalarda 1/4 dan 1/7 hatto 1/9 gacha ham deb yuritiladi). Agar psixologik adabiyotlarni mutolaa qilib mavzuga oid materiallarni o'rganadigan bo'lsangiz, yanada ahamiyatliroq, yanada zarurroq ma'lumotlarni o'zlashtirishingiz mumkin.

Biz yuqorida oilaga psixologik xizmat ko'rsatuvchi xodim uchun kerak bo'ladigan psixologik bilimlardan ayrimlari ustida to'xtalib o'tdik xolos. Bu ma'lumotlardan nafaqat aholiga psixologik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun, balki har qanday soha vakili, ayniqsa oila a'zolarini o'rganishda ham foydalanish mumkin. Chunki, bunda o'rganilayotgan ob'ekt va predmet xususiyatlarining umumiy qonuniyatlari, umumiy mexanizmlari haqidagi ma'lumotlar berilgan. Ulardan ayrim detellarni bilish uchun foydalanish maqsadga muvofiq. Buni "ummondan tomchi" deyish mumkin. Biroq, inson omili bilan ishlaydigan har bir xodim, ayniqsa aholiga psixologik xizmat ko'rsatish sohasidagi har bir kadr o'z ustida tinimsiz ishlashi, bu kabi bilimlarni muntazam o'zlashtirib borishi lozim. Bu ham davr, ham kasb taqozosi!

³ Имманент – имманент, ички (бирор-ходисанинг ички хусусиятига хос бўлган, унинг табиатидан келиб чиқадиган).

⁴Рўзматова Г. Қалб қатламлари //Тафаккур. № 4. 2009. – Б.56.



Topshiriq. Quyidagi savollarga T-sxemasi yordamida javoblar yozing.

Ehtiyoj nima?	Motiv nima?	Motivatsiya nima?	Shaxs faolligi ko‘rinishlari

Nazorat savollari:

1. Muvaffaqiyatli brendni yaratish “iqtisodiyotning olti burchagi” deb ataladigan hamda o‘zaro bog‘langan oltita sohani rivojlantiradi. Bular qaysilar?

A) Turizmni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, ichki va tashqi siyosatni faollashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, mamlakat madaniyatini targ‘ib qilish hamda aholi farovonligini yuksaltirishdir.

B) Eksport salohiyatini oshirish, tashqi siyosatni faollashtirish, importni yo‘lga qo‘yish, mamlakat ma‘naviyatini targ‘ib qilish hamda aholi farovonligini, sog‘lomlashtirishni yuksaltirishdir.

D) Turizmni rivojlantirish, import salohiyatini oshirish, ichki va tashqi siyosatni faollashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, ma‘naviyatini oshirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishdir.

E) Turizmni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, tashqi siyosatni faollashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, ma‘rifatni targ‘ib qilish hamda aholi farovonligini yuksaltirishdir.

2. “.....” deyilganda, insonni ma‘lum bir ehtiyojini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan faoliyatga ichki undalishi tushuniladi?

A) Motiv

B) Iqtisod

D) Konsesiya

E) Ijtimoiylashuv

4-MAVZU: O'ZBEK OILASI MUAMMOLARI TASNIFI. O'ZBEK OILASI MUAMMOLARINI YECHISHGA TAYYORMI? IQTISODIY, MOLIYAVIY, MA'NAVIY, AXLOQIY MUAMMOLAR.

Reja:

1. O'zbek oilasi muammolari tasnifi.
2. O'zbek oilasi muammolarini yechishga tayyormi?
3. Iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy, axloqiy muammolar.

Tayanch iboralar: O'zbek oilasi, psixodiagnostika, tasnifi, Iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy, axloqiy muammolar.

O'zbek oilasi muammolari tasnifi:

1. **Psixologik-ruhiy; muammolarni diagnostika qilish usullari.**
2. **Xotin-qizlarning muammolarga munosabati markerlari:** xotirjamlik; qabul qilmaslik; inkor etish; muammolar yechimiga tayyor emaslik; muammolar yechimini bilmaslik; infantillik; ijtimoiy faollik; muammolardan qo'rqmaslik; davlat strukturalari faoliyatini bilish.
3. **Iqtisodiy muammolar:** pul yetishmovchiligi; qarz; ishsizlik; malakaning yo'qligi; kasb-korning yo'qligi.
4. **Ma'naviy muammolar:** muomala madaniyatining yetishmasligi; ma'naviy manqurtlik; ommaviy madaniyat; individualizm; egoizm; hudbinlik; mafkuraviy immunitetning yetishmasligi; o'z xalqi tarixini bilmaslik.
5. **Axloqiy muammolar:** axloqsizlik; bevafoqlik; inson sha'nini hurmat qilmaslik; bilimsizlik; jaholat; hiyonat.

Psixologik-ruhiy muammolarni diagnostika qilish usullari.

Psixodiagnostikada turli psixodiagnostik vositalar (metodlar, testlar, so'rovnomalar) yordamida o'rganilayotgan odamning psixologik xususiyatlari, shaxsi, o'rganilayotgan jamoadagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari, undagi o'zaro munosabatlar tizimi aniqlanadi. Bu obektning kim va qanday

ekanligi bilinadi. Psixodiagnostika yordamida aniqlangan xususiyatlar, aksariyat hollarda ularning asosan salbiy xarakterga ega bo'lgan jihatlari **psixologik tuzatish** ishlari orqali bartaraf etilishi lozim.

Unda o'rganilayotgan shaxsning ma'lum bir faoliyatlarni maqsadga muvofiq amalga oshirishiga halaqit qilishi mumkin bo'lgan ayrim sifatlari ko'rsatiladi, ularni bartaraf etish yuzasidan **psixologik maslahatlar** beriladi. Psixologik maslahatlar berishda boshqa bir qancha ilmiy manbalardan olingan ma'lumotlardan, psixologning, mutasaddi xodimning hayotiy tajribasi, kasbiy mahorati va boshqa shu kabi manbalardan foydalanish ham mumkin, lekin bu o'rinda hal qiluvchi manba bo'lib, shu maslahat berilayotgan odam, er, xotin, qaynona, kelin, farzand, yosh xodim va boshqalarning o'zidan, psixodiagnostika yordamida olingan ma'lumotlar asos bo'lishi (xizmat qilishi) kerak. Ya'ni shu **odamning o'zidan olib - o'ziga qaytarish** maqsadga muvofiq.

Psixoprofilaktikada psixodiagnostika orqali aniqlangan ma'lumotlarga asoslangan holda shaxsda mavjud bo'lgan ijobiy va salbiy xislatlar qanday natijalarga, oqibatlariga olib borishi mumkinligi haqida mulohaza yuritiladi. Ro'y berishi ehtimoli bo'lgan salbiy holatlar, vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ogohlantirishlar beriladi, yo'nalishlar belgilab olinadi.

Nihoyat psixologik xizmatning so'nggi yo'nalishi bu **psixologik oqartuv** (ma'rifat) **ishlarini olib borishdir**. Ma'lumki, hamma odamlar ham psixologiyaga qiziqavermasligi yoki o'zining kasb faoliyati xarakteridan kelib chiqqan holda psixologiya fani yutuqlari, psixologik ta'limotlar, amaliy psixologiya imkoniyatlaridan bexabar, bular haqidagi ma'lumotlarga duch kelmagan bo'lishi, yoki ularning bu haqdagi tasavvurlari noadekvat bo'lishi mumkin. Psixologik oqartuv ishlarini olib borish esa odamlarni shu ma'lumotlardan xabardor qilish, aholi o'rtasida psixologik bilimlarni targ'ib qilish, ularning psixologik savodxonligini oshirish, psixologik ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yilishini taqozo qiladi. Uning samaradorligi, shubhasiz, psixologik

xizmatning yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlari natijalariga qanchalik asoslanishga bog'liq.

“Har bir ilmiy ma'lumotli pedagog - psixologdir”.

K.D.Ushinskiy

Bartaraf etilishi zarur psixologik muammolar borki, konsultant ko'magida ishning amalga oshirilishi muayyan darajada mijoz hayotiy holatini yengillashtirishga yordam berishi mumkin:

Ular quyidagilar:

- 1) mijozni diqqat bilan tinglash, unga ko'nglidagi bor dard-hasratini aytib olishga imkon yaratish;*
- 2) qayer, qaysi bosqich, instansiyaga, nima uchun murojaat qilish borasida malakali mutaxassis maslahatini berish;*
- 3) mutaxassis yordam berishi uchun eng kamgap mijozga ham uning farzandi borasidagi batafsil ma'lumotlarni aytishiga imkon yaratish;*
- 4) mijozning o'z farzandi bilan me'yor doirasidagi, risoladagidek munosabatlarni yo'lga qo'yishiga ko'maklashish.*

Bunday mijozning hikoyasini eshitgan mutaxassis psixologik yordam ko'rsatishni qiyinlashtiradigan kamida uch jihat mavjudligiga e'tibor qaratishi lozim:

- 1) muammo mavjudligi to'g'risida nafaqat ota-ona, balki farzand ham o'ylayotganligi xususida ishonch bilan ayta olish;*
- 2) mijoz uning konsultatsiya yoki yordami vaziyatni o'zgartira oladigan darajada obro', nufuzga ega emasligi;*
- 3) psixologda hayotiga ta'sir ko'rsatish so'ralayotgan shaxs bilan aloqa, muloqotga kirishish imkonining yo'qligi. Mijozning boshqa inson (garchi u farzandi bo'lsa-da) hayoti, ishlariga aralashishga urinishi shubhali tuyulishi zarur: uning psixolog huzuriga kelishiga rostdan ham bayon qilgan muammosi sababmi yoki bu yerda boshqa gap bormi? Ushbu vaziyatda konsultantning vazifasi suhbatni boshqa o'zanga burib, mijozning o'zi ham*

ko'pincha anglayvermaydigan, aytavermaydigan sabablarni topishga harakat qilishida namoyon bo'ladi.

Suhbatning bu darajasiga o'tishda quyidagilarga tayanish tavsiya etiladi:

a) mijoz hikoyasida ifodalangan dalil va asoslarga;

b) suhbat olib borishning muayyan usullariga;

v) mijoz xususidagi farzandlari yoki turmush o'rtog'i fikriga.

Mijoz tomonidan bayon qilingan muammoli vaziyatlarni aniqlashtirish jarayonida mijozning o'zi aytayotganlari bo'yicha yetarli darajada axborot, ma'lumotga ega emasligini anglab boradi. Dastlab farzand muammosiga qaratilgan diqqat, asta-sekin mijozning shaxsiy muammolariga ko'cha boshlaydi. Biroq psixolog, yaxshi anglaydigan bunday muammo, holatni, otalarning o'zlari yaqqol tushunadilar, deb ham bo'lmaydi. Shuning uchun mijoz psixologga murojaatining asl sababini o'zi his etishi, anglashi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mutaxassis faol pozitsiyani egallashi, suhbatni olib borishning muayyan usullaridan foydalanishi, misol uchun mantiqsiz, paradoksal ko'rinishdagi quyidagi savollarni berishi tavsiya etiladi: "Nega Sizni farzandingizning muammolari tashvishlantiryapti?" yoki "Uning ishlariga bu qadar aralashish, qiziqish haddan tashqari noo'rin emasmi?" Refleksiyaga moyil bo'lmagan, farzandi ishlariga har qanday darajada aralashish tabiiy tuyuladigan mijoz bilan suhbat mobaynida boshqacha yo'l tutsa ham bo'ladi.

Konsultant: *Sizga yaqin tanishlaringiz yoki farzandingizning o'zi u haqda haddan tashqari xavotirlanishingiz to'g'risida gapirishmaganmi?*

Mijoz: *Undan boshqa kim haqda qayg'urishim lozim? (yoki: Siz balki unga aytishim zarur bo'lgan biror narsani maslahat berarsiz, natijada farzandim meni hurmat qilib qolsin).*

Konsultant: *Haqiqatan ham hayotingizda boshqa tashvishlanadigan jihat yo'qmi? (yoki: Farzandingiz hurmat qilishi Sizga shunchalik zarurmi?)*

Bunday dialog doirasida murojaatning asl sababini oydinlashtirish imkoni bor. Oxir-oqibatda murojaat zamirida albatta murojaat qiluvchi shaxs, mijozning muammolari turadi.

Farzand masalasi bo'yicha psixolog huzuriga kelgan ota-onaning qanday shaxsiy muammolari bo'lishi mumkin?

1. Hafsalasizlik, shavqsizlik, tushkunlik holatiga tushish, o'zining hech kimga keraksizligi, boshqalar, farzandlariga nisbatan xafagarchilik tuyg'usini his etish ("Mana, qarib hech kimga keragim bo'lmay qoldi").

2. O'z imkoniyatlari, salohiyatini to'liq amalga oshirolmaganligi, omadsizligining farzandlari hayotida takrorlanishidan qo'rqish ("Farzandlarim mening xatolarimni takrorlashmasin").

3. Ota-onalik vazifalarini to'liq bajarolmagani, farzandiga bolaligida yetarli darajada e'tibor qaratolmaganidan aybdorlik hissini sezish, shu aybini yuvishga harakat qilish.

4. Chuqur mazmunga ega turli qo'rquv, fobiyalar va h.k.

Mijoz muammosiga boshqa nuqtai nazardan qarash, murojaat sababi farzandlar emas, uning o'zi ekanligini anglatish – suhbat jarayonidagi muhim qadamdir. Lekin ayni sharoitda mijozda uni majburlab, nega kelganligini tan oldirishgani to'g'risidagi noxush tuyg'u uyg'onmasligi kerak. Mijozning o'z shaxsiy muammosini muhokama qilishga o'tish jarayonida psixolog quyidagi takliflar asosida ish yuritishi mumkin: "Voyaga yetgan, yoshi katta farzandlar to'g'risida bunchalik jon kuydirish shartmikan, undan ko'ra o'z muammolaringiz to'g'risida suhbatlashsak bo'lmaydimi?" yoki "Ular uchun ko'p ishlarni amalga oshirib qo'ygansiz, endi o'zingizni o'ylashingiz kerakmasmikan?".

Bunda mijozdagi ijtimoiy ma'qullanish, qo'llab-quvvatlanish hissi mavjudligi psixologning ishini osonlashtiradi. Chunki, ko'pchilikda shakllangan tushunchaga ko'ra, faqat o'zi va oilasi to'g'risida o'ylaydigan odam boshqalarga qizig'i yo'q, tund, odamovi, xudbin inson hisoblanadi. Ahamiyatli shaxs – psixolog nazarida shunday taassurot qoldirishni esa mijoz umuman istamaydi. Biroq mutaxassis mijozni qiziqtiradigan mashg'ulotlar borligini

eshitibgina qolmasdan, uni o'z hayotiga nisbatan faol munosabatda bo'lishga, qiziqarli yumushlari bilan shug'ullanishga undashi zarur. Biror ishga faollik bilan kirishish kafolati sifatida hamkorlikda faoliyat yuritish imkoni mavjud, qiziqish, dunyoqarash mushtarak sherikning borligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotin-qizlarning muammolarga munosabati

Biz mamlakatimizda yangi siyosiy munosabatlar hamda yangi siyosiy madaniyat shakllanishi jarayonining ishtirokchilarimiz. Qurilayotgan Yangi O'zbekiston, ya'ni inson huquqlari kafolatlari ta'minlangan demokratik va fuqarolik jamiyatida esa idrokli ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki talab etiladi. Mazkur ishtirokni ko'pchilik bo'lib ta'minlash esa hammamizning zimmamizdagi vazifalardan. Rivojlangan demokratik jamiyatlar amaliyoti xotin-qizlarning turli huquqlarini qonunchilik orqali ta'minlashning o'zi yetarli emasligini, haqiqiy gender tenglik amaliyot orqali tasdiqlangandagina hayotiy bo'lishini ko'rsatmoqda.

Shu bois, mamlakatimizda xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish keng quloq yozib, rivojlanib borayotgan bir davrda ular huquqlarining amaliyoti haqida mulohaza qilish dolzarblik kasb etadi. Biz zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarga psixologik ko'mak berishning metodlari, usul va vositalari haqida fikr yuritamiz.



Ilk bor milliy qonunchiligimizda “**gender**” tushunchasiga ta'rif berildi, uning mohiyati va milliy xususiyatlari belgilandi. Qonunda zo'ravonlik tushunchasi ta'rifi quyidagicha belgilandi: “**Zo'ravonlik - xotin-qizlarga**

nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)" ekanligi aniq aytiladi.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlari himoyasiga qaratilgan qariyb 20 ta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori, 4 ta Prezident Farmoni, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Jamiyatda o'z o'rnini, ovozi, mavqei va hurmatiga ega bo'lgan muvaffaqiyatli ayollarning hayot tajribasini ommalashtirish maqsadida www.genkom.uz sayti yaratildi.

Oilaviy, maishiy, psixologik, jismoniy, jinsiy-seksual tazyiq va zo'ravonlik tarixiy-ijtimoiy hodisadir. Zo'ravonlik, xususan oiladagi va maishiy zo'ravonlik turli xalqlarda, turli davrlarda mavjud bo'lgan, u oddiy odamlar hayotida ham, yoki mashhur va boy odamlar hayotida ham sodir bo'lishi mumkin, ya'ni zo'ravonlik turli ijtimoiy tabaqalar ichida uchraydi. Biroq oiladagi uzoq davr mobaynida davom etadigan surunkali ishsizlik, moddiy muammolar, yetishmovchilik, yo'qchilik, kambag'allik, depressiya, qiyinchilik va undan chiqib keta olmaslik kabilar oiladagi agressiyaning ortishiga sabab bo'lishi mumkin va zo'ravonlik orqali o'z manfaatlari ifodasini yuzaga keltirishi mumkin.

Iqtisodiy muammolar: pul yetishmovchiligi; qarz; ishsizlik

Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejamli ro'zg'or yuritish er-xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lishiga bog'liq. Shuningdek, oilada o'sayotgan farzand ham

mana shu malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib borishi zarurligini unutmagan holda o'g'il-qizga iqtisodiy masalalarni hal etishni o'rgata borish lozim.

Oila o'zining shu funksiyasi tufayli jamiyatga, davlatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Ayniqsa, kelajak avlodni tarbiyalashda jamiyatga keltiradigan ham ma'naviy ham iqtisodiy foydasi benihoya kattadir. Bu oila iqtisodiy funksiyasining atigi bir shaxsni shakllantirishdagi foydasini ko'rsatadi, xolos. Oilada xo'jalik yumushlarini yuritish, ro'zg'orning yo'lga qo'yilishi, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, fermer xo'jaligi, shaxsiy ishlab chiqarishning yuritilishi kabilar uning jamiyat oldidagi iqtisodiy funksiyasi va ahamiyatini tobora orttiraveradi.

Oilada iqtisodiy muammolarning kelib chiqishi, ya'ni er yoki xotinning kelishgan holda ishlamasligidir. Eng asosiysi ish o'rinlarining kamligi ishsizlikni keltirib chiqarmoqda. Pulning yetishmasligi bu o'z-o'zidan oiladagi har xil muammolarni, ya'ni qarz olishga majbur bo'lish, urish, janjal, kasallik va nosog'lom muhitda farzandlarning tarbiyalanishi kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Qonun bilan Mehnat kodeksiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, ishsizlik nafaqasi 12 oylik davr ichida ko'pi bilan 26 hafta davomida to'lanishi belgilandi (amalda ishlamagan va birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga 13 hafta, boshqa toifadagilarga 26 hafta mobaynida to'lanadi).

Aholining bandligini ta'minlashga oid qator masalalar Qonun darajasida belgilandi. Jumladan:

- aholi bandligini rag'batlantirish va tadbirkorlikka jalb etish uchun subsidiya, grant va kreditlar ajratish;

- har yili ish o'rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish;

- mahalliy mehnat organlari tomonidan ish qidirayotgan va ishsiz shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar turlari;

- ish qidirayotgan shaxslarni mahalliy mehnat organlari tomonidan ro'yxatga olish va hisobdan chiqarish tartibi;

- ***“Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksini yuritish;***

- ***mehnat stajini elektron tarzda hisobga olish.***

“Har bir oila –tadbirkor”

Mamlakat Prezidenti 2018-yil 8-iyun kuni imzolagan **“Har bir oila – tadbirkor”** dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qaror ham oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish, har bir oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ishsizlikka barham berishni maqsad qilgan.



Oilaviy tadbirkorlik nega oqsamoqda?

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo‘lida to‘liq erkinlik berish, amaliyotda ***“Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”***, degan tamoyil asosida islohotlar boshlangan.

Mamlakatimizda aynan oilaviy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoit va bu orqali yangi ish joylari yaratishga e‘tibor ortdi. Misol uchun, oilaviy tadbirkorlik hamda hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadlari uchun o‘tgan yili **367,2 mlrd.** so‘m ajratildi. Hozirgi kunda yurtimizda **13 mingdan** ortiq oilaviy korxonalar mavjud.

Ma'naviy muammolar.

Muomala madaniyatining yetishmasligi. Kishilar bilan muomala o'rnatishdagi muammolar – psixolog yordamiga murojaat qiluvchilarning asosiy keng tarqalgan shikoyat sabablaridan biridir.

Bu singari shikoyatlar asosan quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

1) "Boshqalar bilan muomalaga kirishishim uchun menda nimadir yetishmaydi" yoki "Boshqalar bilan muomalaga kirishishimda uyatchanligim, o'zimga nisbatan ishonch hissining yetishmasligi menga hamisha halaqit, pand beradi";

2) "Men omadsizman, gaplashadigan odamim yo'q, atrofimdagilar meni mutlaqo qiziqitirmaydi";

3) "Men boshqa jins vakili bilan muomalaga kirisha olmayman, ular bilan munosabatga kirishishiga urinishim negadir samarasiz tugaydi".

Xullas, tahlil qilib ko'rilganda, shikoyatlarning sabablari a) insonning o'zi; b) boshqa insonlar; d) insonlardagi ma'lum bir sifatlar bo'lishi mumkin.

Psixologik konsultatsiya samarali bo'lishining asosiy shartlaridan biri mijozning o'z muammolari uchun javobgarlikni zimmasiga olishga tayyor ekanligidir. Shuning uchun, konsultatsiyaga kelgan inson o'zidagi kamchiliklarni ko'rmay, nuqul atrofdagilardan shikoyat qilsa, bunday vaziyatda psixolog-konsultantning vazifasi mijozni muammo sababini o'zidan qidirishga o'rgatishdir. Buning uchun psixolog suhbatdoshiga quyidagicha savollar bilan murojaat etishi mumkin: "Siz o'z hayotingizda o'zingizning darajangizdagi insonlar bilan uchrashganmisiz?", "Kimnidir, qachondir yoqtirib qolganmisiz?", "Hayotingizning muayyan davrida kim bilandir bo'lgan muloqot Sizning yodingizda qolganmi?" va h.k.

Psixolog-konsultant mijoz hikoyasining quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishi lozim:

1) qiyinchilik sabablarini tushuntirish tarzi, xulq-atvori, emotsional holati;

2) mijozning boshqalar uni qanday qabul qilishlari, o'zgalarning xulq-atvorlari, boshqalarning mijoz haqidagi tasavvuri yuzasidan fikrlari;

3) mijozning boshqa odamlarga bergan va qachondir bu haqda ularning o'zlariga aytgan bahosi (har doim ham ochiqdan-ochiq ro'y bermaydigan, lekin muomalada qo'llaniladigan va tez-tez ko'zga tashlanadigan, esda qoladigan "qaytar aloqa").

Muomalaga kirishishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, shuningdek ularning sabablari ham turlichadir.

Ifodalashga oson bo'lishi uchun muomalaga kirishishdagi muammolarni ijtimoiy psixologiyada ma'lum bo'lgan uch xil darajadagi ustanovka (yo'l-yo'riq) bilan qiyoslagan holda quyidagi guruhlariga ajratamiz:

1) Muomala jarayonini murakkablashtiruvchi xulq-atvor;

2) Muomala jarayonini qiyinlashtiruvchi emotsional aks ta'sir;

3) Muomala jarayoniga destruktiv ta'sir etuvchi holatlar.

Bu kabi ajratish shartli xususiyat kasb etsada, ko'pchilik hollarda, psixolog-konsultant turli vaziyatlar (qabul vaqtining cheklanganligi, mijozning maxsus tayyorlanmaganligi) taqozosi bilan muammoning bir muncha yorqin namoyon bo'lgan jihatigagina e'tiborini qaratadi.

Ma'naviy manqurtlik – inson va jamiyat ongu tafakkurining bo'ysundirilishi, qaram etilishi, ma'naviy tamoyillarning zaiflashuvi, mustaqil rivojlanish imkoniyatlarining cheklangani, taraqqiyotdan ortda qolish, o'zgalarning g'oyaviy-mafkuraviy tazyiqi oqibatida sodir bo'ladigan salbiy holat va jarayonni ifodalovchi inson, shaxs, fuqaro, oila, millat, xalq va mamlakatga nisbatan qo'llash mumkin.

Ommaviy madaniyat - hozirgi davrning yoshlari o'ziga xos bo'lgan "Tushunchalar urushi" sharoitida, ularning keskin tus olgan vaqtida yashamoqdalar. G'arbdan kirib kelgan, haqiqiy madaniyatga umuman aloqasi bo'lmagan, "Ommaviy madaniyat" atalmish, bu ajnabiy holat barchani bir tusga, bir qolipga, bir xil ko'rinishga, bir xil fikrlashga, bir xil turmush tarziga

odatlantirishga, urf-odatlarimizdan, mentalitetimizdan yuz o'girtirishga chiranmoqda, ota-bobolarimiz "qora" degan narsalarni "oq", "oq" degan narsalarini "qora" deb uqtirishga harakat qilmoqda.



Bu "ommaviy madaniyat" deganlarining lug'atiga, ya'ni ushbu "madaniyat" targ'ib va talqin qilayotgan so'zlarning mazmun-mohiyatiga bir nazar tashlasak hammasini ayon bo'ladi. Masalan:

Isrofgarchilik - boylik, to'kin-sochinlik, hashamat, dabdaba belgisi;

Yoshlik - tez o'tib ketadigan, lazzatlanib, rohatlanib, o'ynab, kulib, kayf-safo, aysh-ishrat, maishat, har xil beboshliklar, bema'nigarchiliklar, nomaqbulchiliklar qilib qoladigan va qilinishi kerak bo'lgan vaqt;

Vafo, sadoqat - feodallar tuzumidan qolgan, umuman qizig'i, keragi, foydasi yo'q eskilik sarqitlari;

Fohisha - hirsli, his-tuyg'uga limmo-lim, jozibali, latofatli, juda kerakli, bahosi yo'q xodima;

Hayo, ibo - madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik va keragi yo'q bir mavhum tushunchalar;

Insof qilish – imkoniyatni, fursatni boy berish, chuv tushib, g'aflatda qolish;

Saxovat - mablag'ni, ya'ni g'amlab qo'yilgan boylikni, sarmoyani hech qanday maqsadsiz sovurish;

Yaxshi ota - bola qo'liga katta miqdordagi pulni berib qo'yib, barcha xohish - istaklarini ruyobga chiqaradigan, ulkan imkoniyatlar yaratib bergan yaxshi sherik;

Yomon ota - bolasiga pul emas, aksincha, ta'lim-tarbiya, bilim, odob-axloq, malaka egallashga, ko'nikma hosil qilishga ko'maklashuvchi, tergap turuvchi, kezi kelganda jazolovchi yomon sherik;

Oila - shaxsga xohlagan ishini qilishga to'sqinlik qiluvchi, bema'ni, keraksiz majburiyatlarni yuklovchi, ko'ngilxushliklarini, kayf-safosini erkinligini bo'g'uvchi, besh kunlik dunyoda yayrab, o'ynab qolish kerak, degan aqidaga g'ov bo'luvchi iskanja, zanjir;

Xiyonat - inson zamonaviyligini yorqin namoyondasi, "zanjirband" bo'lgan insonga yetishmoq, ozod sevgi tantanasi, g'alabasi;

Xudbinlik - o'zini huzur halovatini o'ylab, mazza qilib o'zi uchun, yashashdir. "Zanjirband" qiluvchi oila, rohatni buzuvchi farzand, keragi bo'lmay qolgan ota-ona uchun umuman qayg'urmaslik.



Ommaviy madaniyat” o’zi nima?” degan savolga, bu hamma uchun bir xil ko'rinishdagi, bir xil qolipdagi, o'zini, o'zligini yo'qotish evaziga erishilgan bir holatdir deyish mumkin.

“Men tashqaridagi bo'rondan qo'rqib, derazamni yopib qo'ya olmayman, chunki menga toza havo kerak. Shu bilan birga, toza havo kerak ekan deb derazamni katta ochib ham qo'ya olmayman, chunki meni uyimni chang-to'zon bosib ketishini xohlamayman”.

Mahatma Gandhi

“Ommaviy madaniyat”ning ba’zi bir ko’rinishlariga to’xtalib o’tamiz:

Starizm – sub’ektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, mashhur insonlar, televideniya va radio boshlovchilarini ilohiylashtirish.

Badanga turli xil shakllarni chizish va chizdirish Islom dinida katta gunoh hisoblanadi, deyiladi.

Zo’ravonlik - bu insonga yetkaziladigan har qanday jismoniy, ma’naviy, ruhiy, moddiy tazyiqlar sirasidan joy oladi, kiradi. Jumladan, o’ziga nisbatan tazyiq o’tkazish ham zo’ravonlik sanaladi. Bu kabi ko’rinishdagi holatlar hozirgi kunda keng avj olib bormoqda. Uning namoyishlari ham turlicha bo’lib, bular:

Xeppining (vahshiyona “ko’ngil ochish”lar). Bu kabi voqealar bizning mamlakatimizda deyarli kuzatilmaydi. Lekin “ommaviy madaniyat”ning mahsuli bo’lgan film va o’yinlarning sarhadlarimizdan yashirinib, sezdirmay kirib kelishi va ularni yosh avlod tomonidan qabul qilinishi Vatanimizda ham xeppining paydo bo’lishi ehtimoldan holi emas. Shuning uchun ogoh bo’lishimiz darkordir.

Nigilizm lotincha “hech nima”, “hech narsa” so’zidan olingan. Nigilizm - jamiyatning axloqiy, ma’naviy norma va ustunlari, umume’tirof etilgan tarixiy va madaniy qadriyatlarning inkor etilishi, shuningdek, ularga nisbatan mutlaqo salbiy, o’ta tanqidiy munosabatda bo’lish; muayyan hodisaga bir yoqlama, kelishuvni rad etgan tarzda munosabat bildirish; buzg’unchilik g’oyalarini o’zida ifodalash va targ’ib qilish.

Dunyo haqidagi ishonchli bilimlarga erishish mumkinligini shubha ostiga oluvchi ta’limotlardan biri *skeptitsizmdir*. U bilim, tajribadan ko’ra hissiy idrokni ustun qo’yish va shu asosda ish tutishdir, ya’ni o’zlarining his-tuyg’ulari asosida ish ko’rishni eng maqbo’l yo’l deb biluvchilar.

Vandalizm - madaniy yodgorliklarni, qadriyatlarni vahshiylarcha vayron, oyoq osti qilish, yo’qotish; madaniyatsizlik, jaholat, nodonlikni bir ko’rinishidir.

“Ommaviy madaniyat”ning manbalari:

Turli virtual (kompyuter) o‘yinlar, ayrim chet el va xususiy studiyalarda olingan o‘zbek filmlari, tum-taraqay, ma’no-mazmunsiz qo‘shiqlar, chet el telekanallarining ayrim ko‘rsatuvlari, internet va undagi turli ijtimoiy tarmoqlar, Uyali aloqa telefonlari, sariq matbuot, urbanizatsiya jarayoni, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilgan tantanalar va to‘ylar hamda yolg‘on axborot va ma’lumotlarni tarqatuvchi OAV.

Bugungi kunda yurtimizda istiqomat qilayotgan yevropa millatiga mansub yoshlar orasida ko‘proq tarqalayotgan “emo”, “got” kabi submadaniyat yo‘nalishlarini targ‘ib etuvchi 10 dan ortiq internet saytlari ishlamoqda.

Individualizm (fr. Individualisme, lotincha individuum - bo‘linmas) - bu konstitutsiyaviy huquqiy tartib doirasida shaxs erkinligi, shaxsning ustuvor ahamiyati, shaxsiy mustaqilligini ta’kidlaydigan axloqiy, siyosiy va ijtimoiy dunyoqarash (falsafa, mafkura). Individualizm shaxsni jamiyat yoki davlat tomonidan bostirish g‘oyasi va amaliyotiga qarshi turadi. Individualizm kollektivizmga ziddir.



Egoizm (qadimgi yunoncha Εγώ, lot. Ego – “men”) - bu shaxsning o‘z manfaati, foydasi uchun istagi bilan to‘liq belgilanadigan xatti-harakatlardir. Hozirgi vaqtda (XXI asrning boshlari) psixologiyada egoizmning ikki darajasi farqlanadi. Xudbinlikning kuchli shaklini ta’qib qilish va faqat o‘z manfaatini ko‘zlash deb hisoblanadi, ammo odam boshqasiga yordam berishi mumkin, agar bu shaxsan o‘zi uchun foydasi bo‘lsa.

Ota-onalar farzandlarni bir xil tarbiyalaydi, mehrini bir xil ifodalaydi, ammo ularning hammasi xarakter jihatidan jumladan, egoizm hislarining ifodalanishi jihatidan ham bir xil bo'lmaydi. Ikkinchidan, tug'ma xususiyatlarning tashqi ifodalanishi va shaxsning xudbin sifatida shakllanishi ikki omil bilan belgilanadi:

- ***egoizm hislari genetik dasturining qay darajada kuchliligi;***
- ***tug'ma xususiyatlar to'liq namoyon bo'lishi uchun qulay shart-sharoit, egoizm hislarining shaxs shakllanayotgan muhitdagi ahamiyatlilik darajasi.***

Xudbinlik - O'zbek tilining izohli lug'atida "xudbinlik (forscha so'z) — manman, egoist, o'zinigina ko'zlovchi, o'zini yoki o'z manfaatini hammadan ustun qo'yuvchi", deyilgan. Kishining o'z manfaati doirasida o'ralashib qolishi, boshqalar bilan hisoblashmay, faqat o'z fikrini ma'qullashi, shaxsiyatini yuqori qo'yishi xudbinlikni keltirib chiqaradi.

Inson fe'l-atvoridagi qusurlardan yana biri manmanlik bo'lib, u kibrdan farqlanadi. O'zidagi ne'matlar bilan g'ururlanib, o'zini ko'z-ko'z qilib yuradiganlar manmanlikka moil odamlardir. Kibr esa o'zini boshqalardan ustun hisoblab, haq gapni tan olmaslikdir.

"O'ziga bino qo'yishlik – baxtsizlikdir, buning farq va darajalari bor. Xudbinning har bir ishi o'ziga yaxshi ko'rinadi, lekin bu ko'rimsiz qiliqda farqlar ko'pdir".

Alisher Navoiy

Donishmandlar xudbinlikning kelib chiqish sabablarini quyidagicha izohlashadi:

- ***Ba'zi insonlar o'zlarini haddan ortiq yaxshi ko'rishi;***
- ***O'zlarini boshqalardan ustun qo'yishi;***
- ***Ayrim kishilarning manman va kibrli ekani.***

Inson tabiatida o'zini yaxshi ko'rish hissi mavjud. Imom G'azzoliy muhabbatning besh turi haqida fikr yuritib, insonning o'ziga, o'zining a'zolariga, salomatligiga muhabbatini birinchi o'ringa qo'yadi. Uningcha, bu

muhabbat Alloh, ota-ona, qarindosh-urug', do'st-birodar, muhtoj-ehtiyojmandlar xizmatida bo'lishga imkon yaratuvchi vosita hisoblanadi.

Xudbinlik tug'ma xislatmi?

Yoki hayot davomida shakllanadimi? Ayrim yurtdoshlarimizning mavzu yuzasidan mulohazalarini bilish maqsadida shu savollar atrofida so'rov o'tkazdik.

Tabiatan olganda, hammamizda ham xudbinlik bor. Busiz bo'lishi mumkin emas, - deydi iqtisodchi Sherhali Ergashev.- Ayrimlarning xudbinlik hissi juda kuchliligiga esa, ular tug'ilib o'sgan muhit, ota-onasining tarbiyasi sabab bo'ladi. Ayrimlar farzandlarini haddan ortiq erkalashadi, ularning nuqsonini ko'pda o'zlariga aytmay, aksincha, ozgina yutuqlarini ham ko'pirtirib maqtashlari va shunga o'xshash ko'p holatlar bolaning xudbin bo'lib ulg'ayishiga xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitetning yetishmasligi:

“Mafkuraviy immunitet ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi”.

Mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Xo'sh, mafkuraviy immunitet nimalardan shakllanadi? Eng avvalo, bilim va xalqning milliy o'zligini anglashidan qaror topadi. Ahmad Yugnakiyning fikriga ko'ra aql-zakovatli insonni bilimdan, bilimni esa aqlli kishidan ajratib bo'lmaydi. Inson bisotidagi barcha nodonliklarning, uning kundalik amaliy faoliyatidagi barcha noxushliklarning sababini bilimsizlikdan qidirmoq darkor.

O'z xalqi tarixini bilmaslik.

Har qanday mamlakatning qudrati, uning mustaqilligi, davlat chegaralarining daxlsizligi o'sha mamlakat fuqarolarining o'z yurtiga mehr – muhabbatli qilib tarbiyalanganliklari, milliy istiqlol uchun kurashda zarur bo'lsa jon fido qilishga ham tayyor bo'lishdek olijanob fazilatlarga ega bo'lishliklariga

bog'liqdir. O'zbekiston tarixini bilmaslik o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va urf – odatlaridan uzoqlashish oqibatida jamiyatda shunday avlod vakillari shakllandiki, ularning aksariyatida milliy ong va milliy g'urur tushunchalari so'nib ketdi. Ularning ongida O'zbekiston taqdiriga, o'zbek millati taqdiriga, madaniyatimiz, tariximiz va tilimiz, dinimiz taqdiriga loqayd va befarqlik munosabatlari g'oyasi ustuvor mavqeni egalladi.

Axloqiy muammolar. Axloqsizlik.

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, shaxs faoliyatida uning kamol topishida xulq qoidasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Axloq – insonning boshqalar uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlari, kundalik hayotida amal qilishi shart bo'lgan tartib-qoidalarining yaxlit yig'indisi. Buning aksi esa axloqsizlik sanaladi. Insonning axloqsizligi sanaladi. Insonning **axloqsizligi** uning xudbinligi va tarbiyasizligi oqibatida vujudga keladi.



Ular: **yolg'on** – haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, noto'g'ri so'z va amallarni aytishlik. Yolg'on yovuzlikka boshlaydi.

Haqorat – insonlarning nafsoniyatiga, sha'niga, iffatiga tegadigan so'zlarni aytishlik. Birovni haqorat qilish katta gunohdir.

Xudbinlik – inson o‘z manfaatini ko‘pchilik manfaatidan ko‘ra yuqori qo‘yishi, faqatgina o‘zini va o‘z foydasini ko‘zlashidir.

G‘iybat – insonlarning orqasidan yomonlab gapirish, fisqu-fasod tarqatishdir. G‘iybat odamlarning orasiga sovuqchilik tushiradi.

Tuhmat – insonlarni nohaq ayblash yoki qoralash maqsadida o‘ylab topilgan asossiz da‘vo, bo‘hton.

Zo‘rovonlik – jismonan baquvvat insonlarning nisbatan ojizlar ustidan o‘z hukmini o‘tkazishi.

Zulm – insonning o‘z mansabi, boyligi va kuch-quvvatiga ishonib boshqalarning joniga, mavqeiga yoki boyligiga zarar yetkazmoqligi.

Ikkiyuzlamachilik – insonning bir joyda bir xil, boshqa joyda esa boshqacha o‘zini tutishi. Bunday kishilar xiylakor, yolg‘onchi, ko‘rnamak va munofiq bo‘ladi.

Amalparastlik – amalga intilib, axloqqa zid bo‘lgan hatti-harakatlarni amalga oshirishlik.

Manmanlik – insonning o‘ziga nisbatan juda yuqori baho berib, boshqalarni nazar - pisand qilmaslik.

Ta‘magir – insonning boshqa insonlardan bir narsaga umidvor bo‘lishidir. Ta‘magir kishilar – benomus va bahayo bo‘ladi.

Axloqsizlik turlari ko‘p. Ichkilikbozlik, giyohvandlik va fahsh ishlari ham axloqsizlikdir. Jinoyat va jinoyatchilikning zamirida ham insonning axloqsizligi yotadi. Axloqsizlik – illat. Undan saqlanish yoki xalos bo‘lish zarur. Chunki u inson boshiga kulfat keltiradi.

Bevafolik. Balki avval, vafo nima ekanligini o‘ylab ko‘raylik? Oilada baxtli bo‘lish uchun talab qilinadigan eng asosiy narsa ishonch va sadoqatdir. Yillar bo‘yi oilaviy muammolarni tadqiq qilamiz. Shunga amin bo‘ldikki, sadoqat bo‘lmagan joyda baxt bo‘lmaydi. Oila qurishdan oldin iffatli, oilali bo‘lgach sadoqatli bo‘lish lozim.

Bevafolik oqibatlari

Bevafolik bevafo va uning turmush o'rtog'igagina emas, balki yana bir juftga, farzandlarga ham salbiy ta'sir qiladi. Bu ta'sir doirasi ularning otionalari va qarindoshlarini ham o'z ichiga oladi.

Asosiy zararni bevafolik qilgan kishi ko'radi. Uning ishidan baraka, ro'zg'oridan fayz ketadi. Hattoki o'zi ham vijdotsiz, yolg'onchi ekanligi haqida o'ylay boshlaydi. Shu taxlit munosabatlarni davom ettirsa o'ta vijdotsiz, insofsiz kishi bo'ladi.

Aldash nimaga kerak?

Insonlar nega umr yo'ldoshini aldaydi? Javobi: umri qisqa rohat (orom) uchun. Rohat baxtdan farq qiladi. Rohat o'tkinchi, baxt esa umrboqiydir. Rohatda nafs bor. Baxtda esa davomli mamnunlik hissi, xushnudlik tuyg'usi hokim. Baxtli kishi huzur-halovatda yashaydi.

Inson sha'nini hurmat qilmaslik.

**HAR KIM O'Z SHA'NI VA OBRO'SIGA QILINGAN
TAJOVUZLARDAN, SHAXSIY HAYOTIGA ARALASHISHDAN
HIMOYALANISH VA TURAR JOYI DAXLSIZLIGI HUQUQIGA EGA.**

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi 27-moddasi**

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro xujjatlarning prinsipial qoidalarini o'zida mujassam etgan xolda, Konstitutsiyamiz inson huquq va manfaatlari, uning erkinliklari davlat manfaatlaridan ustunligini mustahkamladi, odamlarimiz uchun munosib hayot sharoitini yaratishni o'zining tub maqsadi etib belgiladi, ijtimoiy adolat tamoyillarini e'lon qildi. Jinoyat protsessida ushlab turish jinoyat sudlov

vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda qo'llanadigan preventiv protsessual majburlov choralaridan biridir.

Sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish turli shakllarda amalga oshiriladi: konstitutsiyaviy-huquqiy, jinoiy-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy va boshqa sohalar. Bu holatda, agar konstitutsiyaviy-huquqiy shakl himoya institutining o'zini mustahkamlasa, boshqa shakllar uni amalga oshirish mexanizmini tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VI bobi quyidagi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi sodir etilgan jinoyatlarga bag'ishlangan: tuhmat (139-modda), haqorat qilish (140-modda), shuningdek ayolni nikoh qurishga yoki nikohda birga yashashda davom etishga majburlash yohud uning xohish-irodasiga qarshi nikoh qurish uchun olib qochish (136-modda).

O'zbekiston Respublikasi JPKning 17-moddasida "Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish" prinsipi mustahkamlanib, unda "Inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlar tarqalib ketishiga olib keladigan, sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadigan, asossiz ravishda unga jismoniy va ma'naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish yoki qarorlar chiqarish taqiqlanadi", deyiladi.

Bilimsizlik.

Bilimsizlik insonni jaholatga yetaklaydi. Afsuski, bugun ana shunday bilimsizlar soni global miqyosda ortib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotidan olingan ma'lumotlarga qaraganda ayni paytga kelib voyaga yetgan dunyo aholisining **750 millionlik** qismi savodsiz bo'lib, ularning uchdan ikki qismini ayollar tashkil etadi. Maktab yoshidagi **250 million** bola savod chiqarmagan, **124 million** bola esa maktab nima ekanini bilmaydi. Jahondagi aksariyat mamlakatlarda hukm surayotgan to'xtovsiz urushlar va bu mamlakatlarning ichki ishlariga g'arblik "yordamchilar"ning aralashuvi sabab maktab va boshqa ta'lim muassasalarining faoliyati to'xtagan. Bu o'z-o'zidan bilimsizlikning ortishiga sharoit yaratmoqda.

8 sentabr – Xalqaro savodxonlik kuni BMTning YUNESKO tashkiloti tomonidan 1966-yil 8-sentabr kuni Eronning Tehron shahrida bo‘lib o‘tgan “Xalq ta’limi vazirlarining savodsizlikni tugatish bo‘yicha xalqaro konferensiyasi”ning tavsiyasiga ko‘ra e’lon qilingan edi.

Bilimsizlik - kishi tomonidan o‘z ona tili qoidalariga asoslangan o‘qish va yozishni muayyan o‘zlashtirganlik darajasidir. Shu bilan birga, u aholining ijtimoiy-madaniy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

Endilikda xalqaro savodxonlik kuni butun dunyoda nishonlanmoqda. Uni nishonlashda har yili hukumatlar, nodavlat tashkilotlar, hamjamiyatlar, hamda o‘qituvchi va o‘quvchilar, hamda soha mutaxassislari ishtirok etadilar.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlari savodsizlikni tugatish borasida sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsalarda, bugungi kunda **750 milliondan** ortiq katta yoshli insonlar savodsizligicha qolmoqdalar. **267 million** bola esa maktabga qatnashdan mahrumdir.

Shuning uchun bugungi sana bilimsizlikning darajasini kelajakda yanada yaxshilashga qaratilgan, ushbu mavjud muammolarga yangicha yechimlarini taqdim etadi. Mazkur kunda, shuningdek, savodxonlikni targ‘ib qilishga ko‘mak beruvchi ilg‘or g‘oyalar egalariga mukofotlar beriladi.

Jaholat.

Jaholat - bilim etishmasligi, ma’lumot etishmasligi, rivojlanmaganligi, qoloqligi. Ushakov lug‘atiga ko‘ra - bilim etishmasligi, madaniyat etishmasligi, qoloqlik; boshqasida, so‘zlashuv ma’nosida - yomon xulq, odobsizlik, bilim yetishmasligi, madaniyat etishmasligi; odobsiz xatti-harakatlar.



Jaholat asosiy narsani bilmaydigan yoki e'tiborsiz qoldiradigan odamning intilishlari va harakatlarida ifodalanadi, bu esa, qoida tariqasida, uning intilishlarining asl, haqiqiy ma'nosini yo'qotishiga olib keladi. Bu yoki boshqa yo'l bilan asosiy narsani topish va o'rganishga qaratilgan intilishlar va harakatlar johillik emas.

Jaholat tajovuzkor harakatlar (vandalizm) bilan ifodalanishi mumkin. Bunday holda, johillar o'zlarining baxtsizliklari uchun aybdor bo'lgan intellektual yoki ma'naviy faoliyatning ma'lum natijalarini yo'q qilishga intilishadi. Adolat uchun, shuni ta'kidlash kerakki, kamtarlik, insonparvarlik, adolat yo'qligi, bu jamiyatning farovon va baxtli a'zolari orasida kamdan-kam uchraydi, bu nafaqat johillarni bezovta qiladi.

Jaholat nafaqat kam ma'lumotli odamlar orasida, balki u yoki bu shaklda, juda tor ma'lumotli mutaxassislar orasida ham o'zini namoyon qilishi mumkin.

Hiyonat.

Hiyonat turlari: Vatanga hiyonat, do'stga hiyonat, oilaga hiyonat, ota-onaga hiyonat, erga hiyonat, xotonga hiyonat, omonatga hiyonat.

Nega ba'zi erkaklar hiyonat qiladi va bunda ayollarning roli qanday?

Aslida bu savol ko'pchilik uchun qiziq. Tabiatan ayol va erkak psixikasi va jismoniy tuzilishi har xil bo'lganiday, ularning xiyonat haqida fikrlashi ham turlicha. Misol uchun ayollar oilasiga bog'langan bo'lib, psixologik stabil bo'lsa, erkaklarda esa shunchaki jinsiy ehtiyoj kuchli va buni xiyonat sifatida ko'rmaydi.



Ko'pgina xalqlarda ajrimlarning motivi sifatida er-xotin xiyonati qayd etiladi.

Shunisi xarakterliki, erkaklarning xiyonatidan ko'ra ayolning xiyonati barcha madaniyatlarda ham qattiqroq qoralanadi, chunki buning asosiy sababi – xiyonatkor ayol boshqa erkak bilan uchrashib yurib, undan homilador bo'lib qolishi va nikohsiz begona bolaning tug'ilishiga sababchi bo'lib qolishi mumkin.

Xiyonatni qanday sezish mumkin?

Xiyonatning dastlabki alomatlari turmush o'rtog'idagi o'zgarishlar, ko'nglidan kechuvchi hislardir. Hiyonatkor tomon turmush o'rtog'idan uzoqroq bo'lishga harakat qiladi, oilasiga beparvo bo'ladi, bolalariga kam vaqt ajratadi. Kiyimlari, yurish-turishiga alohida e'tibor beradi. Tashqi ko'rinishi, vaznining me'yorda bo'lishiga diqqat qiladi. Ko'p vaqtini uydan uzoqda o'tkazadi. Uyda bo'lganida esa televizorning qarshisidan ketmaydi. Jinsiy munosabatlarda o'zgarishlar bo'ladi. Jinsiy mayl susayadi. Juftini qo'llab-quvvatlaydi. Shunga o'xshash o'zgarishlar shubxaga sabab bo'ladi. Qizig'i shundaki, ayollar ko'pincha hiyonatni his qilib turadilar.

Aybdor kim?

Oila ma'suliyati ikki tomon zimmasidadir. Shuning uchun aybni bir tomonga ag'darib bo'lmaydi. O'zaro muhabbat va e'tiborning yo'qligi kabi omillar ham ishga aralashadi. Eriga xiyonat qilgan ko'plab ayollarning dardiga, iztirobiga guvoh bo'ldim. Ko'p hollarda ruhiy, hissiy ehtiyojlari qondirilmagan ayollar shunday yo'l tutadilar. Jisman, ruhan, hissan qoniqqan ayol eriga xiyonat qilmaydi. Bunday niyat ko'nglidan ham o'tmaydi. Erini baxtli qiladi.

Nima qilish kerak?

• Oila ikki inson - ayol va erkakning birligidan tashkil topadi. Bu birlik, butunlik hamma jihatga tegishlidir. Shuning uchun mehrga asoslangan muloqot bo'lishi zarur. Bir-biriga e'tiborli bo'lish, muammolar yechimini birgalikda qidirish, baxtga munosib bo'lish lozim.

• *Ishxonada, ko'cha-ko'yda o'ziga oro bergan, chiroyli kiyingan ayollarni ko'radigan erkakning turmush o'rtogi ham o'ziga e'tibor beradigan, ochiq chehrali bo'lishi, erining boshqa ayollarga mahliyo bo'lmasligi harakatini qilishi lozim. Kechqurun ishdan qaytganida hafsala va did bilan kiyingan, tabassum bilan kutib oladigan xotini bo'lgan erkakning ko'ngli sevinchga to'ladi, uyga bir lahza bo'lsa ham ertaroq qaytishga intiladi.*

• *Er rafikasiga vaqt ajratishi shart. Uyga imkoni boricha ertarok qaytishi, dam olish kunlarini u bilan o'tkazishga harakat qilishi lozim.*

• *Xiyonatda oiladagi noxushliklar, kelishmovchiliklar ham sabab bo'ladi. Shuning uchun oila mas'uliyatini teng bo'lishish, ro'zgorni boshqarishga hissa qo'shish zarur.*

• *Er-xotin shuni tan olishi lozim: boshqalardagi jozib (jalb qiluvchi, o'ziga tortuvchi) fazilatlar turmush o'rtog'ida ham bor. Hatto uning ustun jihatlari ham ko'p. Shunday ekan, ko'ngilga yo'l topib, o'zaro muhabbat va hurmatni saqlab qolmoq kerak.*

Er-xotin turmush o'rtogini boshqalarga qiyoslamasligi lozim. Chunki har bir narsada o'ziga xoslik bor. O'z turmush o'rtog'ining yaxshi tomonlarini ko'rib, shu bilan o'zini baxtli his qilishga harakat qilmog'i lozim.

Ayolning oilaga sadoqati har qanday madaniyatning ilk bosqichi va cho'qqisidir.

 **Topshiriq. “Avliyoni hatlab o'tma!”. Jumlani o'qing va xulosa diling.**

Maosh olgan Ravshanjon bozordan shirinlik va ho'l meva olib, uyiga qaytdi. Qo'lidagi qog'ozxaltacha bilan darvoza oldidagi onasining xonasiga kirmay to'g'ri o'zlari turadigan uyga o'tib ketdi. Bu holatni ko'rgan onaning ko'ngli o'ksib, o'g'lidan ranjidi.

Kelin bu vaziyatda qanday ish tutishi kerak?

A) qog'ozxaltachadagi narsalarni ko'rgan bolalariga ham ularni bermay olib qo'yishi va keyin o'zimiz yeymiz deyishi kerak;

B) taqsimchaga mevalardan solib, bolalaridan qayinonasiga berib yuborishi kerak;

D) O'yijon! O'g'lingiz maosh olgan ekanlar – bizlarga ilinib, bozor qilib chiqibdilar. Shuni o'zingiz taqsimlab, rejalab bersangiz, deb qog'ozxaltachani oldilariga olib chiqib, maslahatlarini olishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Psixodiagnostika orqali nimalarni aniqlash mumkin?

A) Turli psixodiagnostik vositalar (metodlar, testlar, so'rovnomalar) yordamida o'rganilayotgan odamning psixologik xususiyatlari, shaxsi, o'rganilayotgan jamoadagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari, undagi o'zaro munosabatlar tizimi aniqlanadi.

B) Psixodiagnostik vositalar yordamida o'rganilayotgan odamning psixologik xususiyatlari, shaxsi, o'rganilayotgan shaxs munosabatlar xususiyatlari, undagi o'zaro munosabatlar tizimi aniqlanadi.

D) Turli psixodiagnostik vositalar (metodlar, testlar, so'rovnomalar) yordamida o'rganilayotgan psixologik xususiyatlari, o'rganilayotgan jamoadagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari, munosabatlar tizimi aniqlanadi.

G) Psixodiagnostika yordamida o'rganilayotgan odamning psixologik xususiyatlari, shaxsi, o'rganilayotgan munosabatlar xususiyatlari, undagi o'zaro munosabatlar tizimi aniqlanadi.

2. Axloq tushunchasi nima?

A) Insonning boshqalar uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlari, kundalik hayotida amal qilishi shart bo'lgan tartib-qoidalarining yaxlit yig'indisi.

B) Ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, uning kamol topishida xulq qoidasi bo'lib xizmat qiladi.

V) Ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, shaxs faoliyatida asosi bo'lib xizmat qiladi. Bo'la oladigan xatti-harakatlari, kundalik hayotida tartib-qoidalarining yaxlit yig'indisi.

G) Ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, shaxs faoliyatida uning kamol topishida xulq qoidasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlari, kundalik hayotida amal qilishi shart bo'lgan tartib-qoidalarining yaxlit yig'indisi.

5-MAVZU. MIGRATSIYA VA UNING OILADA MUAMMOLARNI KELTIRIB CHIQRISHI. MIGRATSIYANING OILA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI (ERKAKLAR, AYOLLAR, BOLALAR, KATTALAR).

Reja:

1. Migratsiya va uning oilada muammolarni keltirib chiqarishi.
2. Migratsiyaning oila psixologiyasiga ta'siri (erkaklar, ayollar, bolalar, kattalar).

Tayanch iboralar: Migratsiya, mehnat muhojirlari, oilalar, oila psixologiyasi, bola, ta'lim, ijtimoiy holat.


Migratsiya (lot. migrato – ko'chaman, joyini o'zgartiraman) – degan ma'noni bildiradi.

Migratsiya ko'pincha uzoq masofalardagi yoki katta guruhlardagi odamlar tomonidan biron bir hududdan boshqa joyga ko'chib o'tishni anglatadi. Odamlar tarixdan avvalgi va insoniyat tarixida ko'p ko'chib kelganliklari ma'lum. Hozirgi vaqtda populyatsiyalarning harakati mintaqa, mamlakat yoki undan tashqarida ixtiyoriy ravishda migratsiya hamda odam savdosi va etnik tozalashni o'z ichiga olgan holda davom etmoqda. Ko'chib kelgan odamlarni tarixiy sharoitga, vaziyatga va istiqbolga qarab muhojirlar, aniqrog'i muhojir, immigrant yoki ko'chmanchi deb atashadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Unga muvofiq, 2021-yildan boshlab O'zbekistonda tashkillashtirilgan holda xorijga ketishdan oldin fuqarolar majburiy tartibda kasb-hunar va tillarga o'qitilishi joriy etiladi. Qonuniy mehnat migratsiyasi tashkil etilishi uchun xorijiy davlatlar ish beruvchilari bilan hamkorlikda O'zbekistonda maxsus markazlar ochiladi.

“O‘zbekistonda tashqi migratsiya uchun asosiy sabab mamlakatda ish joylarining yetishmasligi emas, balki qoniqarli turmush darajasini ta’minlash uchun yetarli bo‘lmagan past darajadagi daromadlardir.

O‘zbekistonlik mehnat muhojirlarining aksariyati (87 foiz) Rossiyaga yo‘l olib, ularning asosiy qismi u yerda 9 oydan ko‘proq vaqt davomida qolishadi. **Janubiy Koreya, Turkiya va Qozog‘iston ham O‘zbekistonlik muhojirlar** ish izlab yo‘l oladigan asosiy mamlakatlar sirasiga kiradi.



Aksariyat O‘zbekistonlik migrantlar o‘zlari borgan xorij mamlakatida kam haq to‘lanadigan ishlarni bajarishga majbur. Ularning aksariyati oliy ma’lumotga ega emas. Muhojirlarning asosiy qismi (40 foiz) qurilishda, 20 foizi sanoatda, qolganlari (40 foiz) umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qiladi.

Ko‘plab muhojir oilalarning (45 foiz) kamida ikki nafar farzandi vasiylar qaramog‘ida qolishadi. Ushbu bolalarning deyarli 63 foizi onalari bilan yashaydi, chunki muhojir otalar ko‘proq ishlab, oilalariga ko‘proq pul yuborishadi.

Aksariyat oilalar (84 foiz) dori-darmon, ta’lim olish, yaxshi ovqatlanish va turar-joy xarajatlarini qoplash uchun zarur bo‘lgan pul o‘tkazmalariga suyanib qolishgan. Tadqiqotda qatnashgan migrantlar oilalarning yarmida

xarajatlarni ko'rsatkichi daromadlar hajmidan ancha yuqoridir. Ko'pgina oilalar barqaror daromad olishning boshqa manbalariga ega bo'lmay, ularning yarmi ish bilan mutlaqo ta'minlanmagan.



Mehnat muhojirlarining oilalari qoniqarsiz sharoitlarda yashashga majbur. So'rovda qatnashgan oilalarning faqat 19 foizi markaziy isitish tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning yarmi ichimlik suvi bilan ta'minlangan", deyilgan hujjatda.

O'zbekistonda migrant ota-onaning farzandlari ko'pincha vasiylar vazifasini bajaruvchi qarindosh-urug'lar, oila a'zolarining qaramog'ida qoladilar. Bunday bolalar rivojlanish nuqsonlari, psixososyal va hissiy muammolarga duch kelishi mumkin bo'lib, bunda ota-onalarning safardaligi bolaga g'amxo'rlik qilishda muammolar tug'diradi. Ota-onalarning migratsiyasi, xususan, bolaning ta'limiga, sog'lig'iga va ijtimoiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi kuzatilmoqda. Ota-onalarning safarda bo'lishi bolaning ovqatlanishi, ta'lim olish darajasiga salbiy ta'sir qilishi hamda depressiya holatini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan uy yumushlari va uning zimmasiga yuklatilgan mas'uliyat bolaning erta ulg'ayishiga sabab bo'ladi.

O'zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimini baholashning natijalariga ko'ra, mamlakatda bolalarni himoya qilish tizimining tarkibiy qismlari mavjud bo'lishiga qaramay, ular xodimlar va mablag' yetishmasligi hamda idoralararo muvofiqlashtirish choralari ustligi tufayli samarali ishlamayotganligi aniqlandi. Bolalarni himoya qilish xizmatlari asosan bolalarning bitta toifasiga - ya'ni asosan internat shaklidagi muassasalarga joylashtirilgan ota-ona

g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarga qaratilgan. Tazyiq, zo'ravonlik, ekspluatatsiya va beparvolikning oldini olish bo'yicha xizmatlar va choralarni bajarish past darajada qolmoqda. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish kasb sifatida yetarlicha rivojlanmagan va bunday xizmatlar asosan faqat internat shaklidagi muassasalarda ko'rsatiladi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy sug'urta badallari va umumiy soliq tushumlari hisobidan moliyalashtirilayotgan O'zbekiston Respublikasining milliy sug'urta tizimiga YalMning 9,7 foizi yo'naltirilmoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham butun hayot sikli uchun mo'ljallangan ijtimoiy himoya qilish milliy tizimi yaratilgan bo'lib, u fuqarolarning umrlari davomida duch kelishlari mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan.



Umuman olganda, ko'p sonli oilalarning fikriga ko'ra, migratsiyaning ijobiy ta'siri salbiy ta'siridan ko'ra salmoqlidir. Chet elda ishlaydigan oila a'zolari tomonidan yuborilgan pul jo'natmalari oilalarning iqtisodiy zaifligini kamaytirishi mumkin. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'tkazilayotgan moliyaviy mablag'lar evaziga oilalar o'z turmush sharoitlarini yaxshilashlari, o'quv materiallarini sotib olish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan va boshqa shu kabi imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin. Ammo, pul o'tkazmalari oilalarning ehtiyojlarini, xususan bolalarning psixologik farovonligini to'liq qondirish uchun yetarlimi yoki yo'qmi hanuz tasdiqlanmagan. Ota-onalarning migratsiyasi sababli, nazoratsiz qolgan bolalar oilaning buzilishi oqibatlaridan jabr chekishlari, yetarlicha g'amxo'rlik ko'rmasliklari kabi salbiy holatlarga duch kelishlari mumkin.

Bu, ayniqsa, bolalarning psixologik va hissiy salomatligiga ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi hollarda, bolalar odatda aka-uka va opa-singillarga g'amxo'rlik qilish, uy yumushlarini bajarish va qishloq xo'jaligi ishlari kabi kattalar tomonidan bajariladigan ishlarga jalb qilinib, bu ularning ta'lim olishi va bo'sh vaqtlarini o'tkazishlariga xalaqit berishi mumkin. Xususan, tadqiqot davomida bolalarda uchrashi mumkin bo'lgan uchta asosiy potensial salbiy ta'sir aniqlandi:

Bolaga g'amxo'rlik qilish. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining aksariyatining farzandlari bo'lishiga qaramay, ular yolg'iz o'zlari migratsiya qilishni afzal ko'radilar va ko'p holarda bolalarni ota-onaning biri yoki bironta qarindoshning nazorati ostida qoldiradilar yoki ba'zi hollarda ularni internat shaklidagi muassasalarga joylashtiradilar.

Otalar migratsiya qilganida, onalar odatda bolalarning asosiy homiysi hisoblanadi. Ota-ona migratsiya qilgan hollarda qarindoshlarning vasiy sifatida jalb qilinishi eng keng tarqalganligini kuzatish mumkin. Ko'p hollarda, qarindoshlar tomonidan ko'rsatiladigan g'amxo'rlik bolalar uchun eng xavfsiz va barqaror muhit sanaladi. Biroq, bunday vasiylik rasmiy ravishda rasmiylashtirilmaydi yoki tegishli organlarda ro'yxatdan o'tkazilmaydi va vasiylar iqtisodiy muammolarga duch kelgan holatlarda, bolalar beparvolik, ekspluatatsiya va tahqirlash xavfi ostida qoladilar. Bolalarning psixologik holatiga ta'siri. Oiladagi vaziyatdan qat'i nazar, bolalarning aksariyati migratsiya paytida ota-onalarini sog'inadilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, vasiylar odatda bolalarni tarbiyalash va nazorat qilishning turli usullaridan foydalanadilar. Bolalarning 7 foizga yaqini jismoniy jazolardan, 3 foizi oiladagi zo'ravonliklardan va 6 foizi maktabdagi tahqirlashlardan aziyat chekadi. Bolalarning uchdan bir qismi ota-onalarining migratsiyasidan so'ng o'z zimmlariga uy yumushlar, bolalarni parvarish qilish va aka-uka va opa-singillarga g'amxo'rlik qilish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha majburiyatlarni oladilar. Bolalarning o'zlari qo'shimcha yumushlarni o'qish yoki hayotning boshqa sohalariga xalaqit beradigan omillar qatoriga qo'shmaydilar. Shunga qaramay, tahlil shuni ko'rsatadiki, uy

yumushlari ko'lamining kengayishi bolalarning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Migratsiyaning oshishi noto'liq oilalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda va ular katta muammoli masalalarni keltirib chiqarmoqda.

Dunyodagi barcha davlatlar, shu jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-istisodiy rivojlanishi, qishloq va shahar orasidagi tafovutning kamayib borishi, urbanizatsiya tufayli shahar hayot tarzining qishloqqa kirib kelishi, ayollarning iqtisodiy jihatdan mustaqilligining kuchayishi, shu bilan birga jamiyatda ma'lum imtiyozlarning ko'payib borishi, migratsiyaning keskin oshishi oila instituti, nikohlar mustahkamligiga muqarrar ravishda o'z ta'sirini ko'rsatmoda.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda xalq hayotida misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Shu bilan birga so'nggi o'n yillikda bir qator muammolar yanada dolzarblashdi. Shulardan biri - oila institutining zaiflashishi, ajralishlar va ularning asorati sifatida noto'liq oilalar sonining keskin o'sishidir.

Noto'liq oilalar masalasi quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, jamiyatda noto'liq oilalar sonining ortib borishi oila institutiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning mustahkamligini zaiflashtirib boradi.

Ikkinchidan, noto'liq oilalar sonining ortishi yoshlarda oila xaqidagi tasavvurlarining to'g'ri shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi. Qizlarning ma'lum qismi noto'liq oilani o'zlari uchun andoza sifatida oladilar. Bu esa notulik oilalar sonining yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, yoshlardan komil shaxs shakllantirishda qator muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

To'rtinchidan, yosh oilalar, aksariyat xolda ayollar va bolalarni iqtisodiy jihatdan murakkab vaziyatga tushiradi.

Beshinchidan, voyaga yetmagan yoshlarda jinoyatchilik, shu jumladan, ularning turlarining o'sishiga shart-sharoit yaratadi.

Oltinchidan, ota-onalarga eng muhim vazifalari - tarbiya funksiyalarini tulaqonli ado etishlariga yetarli imkon bermaydi.

Yettinchidan, ayollarning ma'lum qismida jinsiy-tanosil kasalliklarining ko'payishi, reproduktiv organlarida onkologik xastaliklar sonining oshishiga olib kelishi mumkin.

Sakkizinchidan, jamiyatda poliandriya va poligeniya, ya'ni ko'p erlik hamda ko'p xotinlik xolatlarining o'sishiga olib keladi.

To'qqizinchidan, mahalliy millatlar, jumladan, o'zbeklardagi o'ta muhim, qimmatli etnopsixologik xislatlardan biri bulgan ota-ona xurmati, oiladagi mavqei, ota-onalik va farzandlik burchlarining shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi.

O'ninchidan, avlodlar orasidagi xissiy emotsional yaqinlik, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi.

O'n birinchidan, ota modeli, namunasining yo'qligi o'g'il bolalar shaxsining erkak, oila boshlig'i, ota sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi, ularda ayolsifat xarakterning paydo bulishiga imkon yaratadi. Qizlarda ota yo'qligi ota mavqei, xurmati, er-xotin munosabatlarini qurmasligi, voyaga yetib shaxsiy oilaviy xayot ko'rganda er-xotin munosabatlarini talab darajasida olib borishiga salbiy ta'sir qiladi.

Yuqoridagilarning barchasi yoshlarni zamon ruhida, umummilliy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalab voyaga yetkazishimizda qator murakkab muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, noto'lik oilalar sonining kun sayin ortib borishi sabablarini quyidagilar tashkil qiladi.

Buning eng asosiy sabablaridan biri - yoshlarimiz oilaviy hayot haqida to'laqonli va psixologik pedagogik jixatdan to'g'ri savodli tasavvurga ega emasligi. Aksariyat yoshlar oilaviy xayotni «asal oyi» kabi tasavvur qiladilar, vaxolanki oilaviy xayot xar bir yosh uchun katta taqdir sinovidir. Xar bir oila «Oilaviy xayot chidaganga chiqarilgan» tamoyili bilan yoshlarni turli iqtisodiy, axloqiy, individual-psixologik, shu jumladan, sabr-chidamlilik sinovidan

o'tkazadi. Afsuski, yosh oilalarning ma'lum bir qismi bu sinovlarga bardosh berolmay, noto'lik oilalar sonining keskin o'sishiga olib keladi.

Notulik oilalar ko'payishiga olib keluvchi muxim sabablardan navbatdagisi oila masalalarida shaxs xulki ustidan ijtimoiy nazoratning susayishi, "Odamlar nima deydi?" mazmunidagi an'anaviy savol ta'sir kuchining keskin zaiflashib ketganligi.


Albatta, demokratik jamiyat qurayotganda shaxs erkinligini ta'minlashimiz, fuqaroning shaxsiy xayotiga qo'pol ravishda aralashmasligimiz darkor. Shu bilan birga, biz yoshlarning oilaviy xayotida uchrashi muqarrar bo'lgan sinov va muammolarga oldindan tayyorlab, uni oila to'liqligi, oila a'zolar salomatligiga salbiy ta'sir etmagan holda hal qilish, sinovlardan yosh oilani talofatsiz olib chiqishga yordam berishimiz lozim.

Shunga qaramasdan, noto'lik oilalarning ko'payishi, poliginiya (ko'p xotinlilik) hamda poliandriya (ko'p erlilik) tendensiyasining kuchayish omillariga, bizning fikrimizcha, oilada erkak mavqeining pasayishi, erkaklarda impotensiyaning yosharishi, son jihatdan o'sishi, ayollarda jinsiy xulkning erkinlashishi, yoshlarning hayotiy qiymatliklarida kuzatilayotgan uzgarishlar, urg'u ma'naviy boylikdan iqtisodiy boylik tomon kuchishi, ya'ni ma'naviy boylikdan iqtisodiy, moliyaviy boylik keskin ustunlik qilishi, axolida kuzatilayotgan gipodinamiya, urbanizatsiya natijasida mamlakat axolisida shaxar xayot tarzining tarqalishi, turli ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra yerli xalq orasida migratsiyaning kuchayishi va boshqalar kiradi.

Migratsiya natijasida noto'liq oilalar paydo bo'lgan. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan noto'lik oilaga qarshi kurashish, noto'lik oilani faqat salbiy, muammoli oila turi sifatida ko'rsatish, ularni yomon jixatdan idrok etish ma'nosi kelib chiqmaydi. Shunday noto'lik oilalar borki, ular to'lik oiladan o'n chandon yaxshi yashaydi va o'z oilaviy vazifalarini to'laqonli, yuqori saviyada bajarib kelmoqda.



Topshiriq. Baliq skeleti metodi bo'yicha migratsiyaning xususiyatlarini keltiring.



Nazorat savollari:

1. Migratsiya jarayoni oilalarga qanday ta'sir ko'rsatadi?

A) Bolalar rivojlanish nuqsonlari, psixososyal va hissiy muammolarga duch kelishi mumkin bo'lib, bunda ota-onalarning safardaligi bolaga g'amxo'rlik qilishda muammolar tug'diradi.

B) Migratsiyaning oilaga hech qanday aloqasi yo'q. Ota-onalar farzandga masofadan turib ham tarbiya berishi mumkin.

D) Ota-onasi boshqa davlatga ketganida farzandlari tarbiyasiga hech kim qaramaydi va tarbiyasi o'z o'zidan buziladi.

E) Migratsiya bolalarning emotsional farovonligini eng past ko'rsatkichga olib tushadi: otasiz yashagan bolalarning aksariyati kayfiyati tushadi.

Xozirgi kunda migratsiya oqibatida oilalarda ko'paygan poliandriya tushunchasi nima?

A) Ko'p xotinlik

B) Ko'p erlik

D) Ajralish xavfi kuchli oilalar

E) Ajrashgan oilalar

6-MAVZU. MULOQOTNING PSIXOLOGIK TUZILISHI. MULOQOT JARAYONIDA ZARUR SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH.

Reja:

1. Muloqot nima? Muloqotning tarbiyadagi roli. Muloqotning funksiyalari.
2. Muloqot jihatlari. Muloqot texnikasi. Muloqotdoshni idrok etish.
3. Muloqotning perseptiv jihatlari.

Tayanch iboralar: Muloqot, muloqot funksiyasi, muloqot jihatlari, nutq va muloqot, kommunikatsiya, muloqot texnikasi.

“Muloqot bu shunday ne’matki, u orqali inson lazzatlanadi”.

***Frantsuz yozuvchisi
Antuan Sent Ekzyuperi***

Oila yuzaga kelar ekan, hech bir oila quruvchi yoki shu yuzaga kelayotgan oila atrofidaqilar, qarindosh urug‘, do‘st birodarlar, albatta shu oilaga ezgu tilaklar bildiradilar. Ular shu oilaning mustahkam, muvaffaqiyatli, farovon, ko‘p farzandli bo‘lishlarini, birgalikda uzoq umr ko‘rishlarini aytib tilak bildiradilar. Hech kim bu oilada nizo janjallar bo‘lishini, ma’lum bir muddat o‘tganidan so‘ng ular ajrashib ketishlari ham mumkinligini hatto hayoliga ham keltirmaydi. Biroq, hayotda hammasi ham shunday bo‘lavermaydi. Bunga hayotda istalgancha misollar keltirish mumkin. Nega shunday? Nima uchun, hayotda biz istagan narsalar qolib, aynan aksi ro‘y beraveradi? Bu kabi savollarning yuzaga kelishi ham, ularni yechimlarining ham o‘ziga xos qonuniyatlari, umumiy mexanizmlari mavjud.



Bugungi kunda odamlar o'rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarning asosiy sabablaridan biri, ularda muloqot madaniyatining yetishmasligi, ularning muloqotga kirisha bilmasliklari, muloqotning qonun-qoidalari, umumiy mexinizmlari haqidagi ma'lumotlardan yetarlicha xabardor emasliklaridir.


Muloqot jarayoni odamlar o'rtasida kechadigan jarayonlarning eng muhimi hisoblanadi. Buni to'la to'kis ado etish ehtimoli kam, lekin bunda oltin o'rtalikni topa bilish juda muhim. *Chunki, bunda beshta savol: "nima?", "qayerda?", "qachon?", "kimga?" va "qanday?"ga bir vaqtda o'rinli javob bera olish talab qilinadi. Ya'ni, muloqotda: "Nimani gapirish kerak?", "Qayerda gapirish kerak?", "Qachon gapirish kerak?", "Kimga gapirish kerak?" va "Qanday gapirish kerak?" ligini bilish lozim bo'ladi.* Agar shu savollarga javob topa olgan odam, o'zaro muloqotda "oltin o'rta"likni topgan hisoblanadi va uning suhbatdoshi bilan bo'ladigan keyingi munosabatlari, hamkorligi ijobiy rivoj topadi. Oilaviy hayotda bu eng muhimidir.

Muloqot - bu sub'ektlar (shaxslar, ijtimoiy guruhlar)ning o'zaro aloqa va o'zaro munosabatlari jarayoniki, unda bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, kasbiy va ijtimoiy tajribalar, qadriyatli yo'nalishlar, ustanovkalar va qarashlarning o'zaro almashinuvi, shuningdek irodaviy aloqa amalga oshadi.

Muloqotning mazmunli, boy, ziynatli bo'lishi odam hayotiy faoliyatini ruhlantiradi, uni sotsiumga kirishini ta'minlaydi. Ijtimoiy muloqotda individning psixik rivojlanishi va o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishi amalga oshadi. Odamning

barcha psixik sifatlari uning boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotida shakllanadi va namoyon bo'ladi. Samarali muloqot tegishli malaka va ko'nikmalar, avvalo shu muloqot madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muammoning mana shu jihatlariga alohida urg'u berish kerak. Chunki, odam hayotda yo'l qo'yishi ehtimol bo'lgan ko'plab xato-kamchiliklar, aynan shu muloqotga kirisha bilmaslikdan boshlanadi.

Muloqotning asosiy funksiyasi.



Bular:

-ma'lumotli-kommunikativ – ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish;

-boshqaruv-kommunikativ–interaktiv (bir-biriga o'zaro faol ta'sir ko'rsatuvchi) juftlarning hamkorlikdagi faoliyatida ularning o'zaro munosabatlarini tashkil qilish;

-perseptiv-effektiv – suhbatdoshni ijtimoiy ob'ektlar sifatida idrok qilish, uning hissiy jihatlariga ta'sir qilish;

-affektiv-ekspressiv – odamning o'zini-o'zi hissiy (emotsional) namoyon qilish.

Foydalanayotgan vositalariga bog'liq ravishda muloqot bevosita va bilvosita, to'g'ri va chalg'itilgan, verbal (so'zlar vositasida) va noverbal (paraverbal) bo'lishi mumkin.

Muloqot jihatlari

Juftlar o'rtasida kechadigan og'zaki, verbal muloqotning: **lingvistik** (tilni bilish); **paralingvistik** (tovush xususiyatlari); **ekstralingvistik** (ruxsat etilgan nutqiy tovushlar) jihatlarini farqlanadi.

Lingvistik jihatlariga – leksik – tilning lug‘at tarkibi; **idio-matik** – nutq aylanishlari, ularning mazmuni (ahamiyati) unga kiradigan so‘zlar mazmuni (ahamiyatini) bildirmasligi mumkin (Masalan: “Bekor yurmoq”, “Yulduz sanamoq”, “Og‘zingga qarab gapir!”, “Ko‘zingga qarab yur!”); **grammatik** – gapda so‘zlarning va ularning nisbatini o‘zgarish qoidalari bilan muvofiq ravishda tilning tuzilishi kabilar taalluqli.

Paralingvistik jihatlariga – nuqtning diapazoni, diksiyasi, intonatsiyasi, teberi, tempi kabilar taalluqli.

Ekstralingvistik jihatlariga – kulgi, yo‘tal, pishillash, xo‘rsinish, yig‘i, shivirlash, pauzalar, tovushlar taalluqli.

Odamlar o‘rtasida o‘zaro muloqot jarayoni kechar ekan, suhbatdoshlarning har ikkalasi ham biri tomonidan foydalanilayotgan muloqotning yuqorida keltirib o‘tilgan kabi jihatlarini aynan idrok etmasligi mumkin.

Oila a‘zolari o‘rtasida bo‘ladigan kundalik muloqot jarayonida, nutqning bunday jihatlarini turlicha idrok etish, ya‘ni bir tomon aytmoqchi bo‘lgan “firk” ikkinchi tomonda ham shunday “firk”ning yuzaga kelmasligi oqibatida ularning o‘zaro munosabatida o‘zaro tushunish amalga oshmay qoladi. Bir tomon ikkinchi tomondan kutgan javob munosabat boshqacha tarzda namoyon bo‘lishi mumkin. Oqibatda, har ikkala tomon ham istamagan holda, ularning o‘zaro munosabatlarida “qarama-qarshiliklar”, nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi ehtimoldan holi emas.

Muloqot jarayonida fikr almashinish.

Muloqot jarayonida, suhbatdashlarning biri ikkinchisiga biron-bir ma‘lumotni uzatish uchun, avvalo unda “firk” paydo bo‘ladi, so‘ng u o‘z fikrini ma‘lum bir “belgilar tizimi”da ichki nutqqa aylantirib, tashqi nuqt orqali ro‘parasida turgan odamga uzatadi. U ham shu tashqi nutqda ifodalanganlarni ichki nutqi orqali “firk”ga aylantiradi. Shu jarayonda ular o‘rtasida “firk”ni nutqqa kodlashtirish” va “nutqni fikrga dekodlashtirish” jarayonlari kechadi. Bu jarayonda ular nutqning yuqorida keltirib o‘tilgan tuzilishi, funksiyalari, vositalari, shakllari, jihatlaridan foydalanadilar. Agar,

kodlashtirish va dekodlashtirish jarayonlari bir xil kechgudek bo'lsa, bir tomonda paydo bo'lgan "fikir", ikkinchi tomonda ham yuzaga keladi va ular o'rtasida o'zaro tushunish amalga oshadi. Afsuski, kodlashtirish va dekodlashtirish jarayonlari hamma vaqt ham va hamma odamlarda ham bir xilda kechavermaydi. Chunki bunga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Oqibatda bir tomonda paydo bo'lgan fikir ikkinchi tomonda shundayligicha yuzaga kelmasligi mumkin.

Masalan, atoqli adib, *Abdulla Qahhor iborasi bilan aytilgan: "Sen ahmoq odam emassan!" – degan gapni olsak*⁵. Bunda urg'ining qanday berilishi yoki tinish belgisining qayerga qo'yilishiga qarab fikir butunlay teskari tomonga o'zgarib ketishi mumkin. Demak, oiladagi o'zaro muloqotni tashkil etishda ham o'ta ehtiyotkor bo'lish lozim. Birgina urg'uni boshqacharoq idrok etish, pauzani ortiqroq yoki kamroq qilish, sheva, nutq ohanggi, tembri, tempi ham hal qiluvchi bo'lib qolishi mumkin.

Muloqot texnikasi

Juftlarni o'zaro munosabatlarining sifati, ular foydalanadigan **muloqot texnikasiga** ham bog'liq. Muloqot texnikasi deyilganda, sub'ekt, turmush o'rtog'i bilan o'zaro munosabatlarini tashkil qilishida, psixologik aloqa o'rnatishda, muloqotdoshiga ta'sir o'tkazishning turli usullaridan foydalanishi, muloqotning qanday shakllari, vositalarini tanlashi kabilar nazarda tutiladi.

Muloqotning kundalik (ishchan), kasbiy, maishiy, xususiy va ommaviy oshkora shakllari farqlanadi. Muloqot kommunikativ faoliyat sifatida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Kommunikatsiya - muloqotning mazmuniy jihatidir. Ularni boshqa odamlar tomonidan mazmuniy idrok qilishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar - **kommunikativ xatti-harakatlar** deyiladi.

⁵ Шодмон Отабек. Дўрмон хангомалари. Тўлдирилган ва қайта ишланган 5-нашри. –Т.: "Sharq", 2016. – Б.39.

Kommunikativ aktlarda muloqotning informativ, fatik (kontakt) va boshqaruv vazifalari ro'yobga chiqariladi. Ma'lumotlar almashinadi, odamlar bir-birlariga ta'sir qiladi.

Muloqot jarayonida ular psixologik aloqa o'rnatishga, bir-birining pozitsiyasini aniqlashga, tahlil qilinayotgan vaziyatga munosabatini shakllantirishga intiladilar. **Kommunikator** (ma'lumotni uzatayotgan shaxs): **ochiq** chetlashtirilgan yoki **yopiq** pozitsiyalardan biriga amal qilishi, ya'ni o'z nuqtai nazarini yashirishi mumkin. Ma'lumotni idrok qilish uni suhbatdoshiga, ayni o'rinda turmush o'rtog'iga (resipientga) yo'naltirishi, yoki "yuklanishi", uning motivatsion holati va ma'lumotli tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumotni tushunish (uni mavjud aloqalar, tushuncha va tassavvurlar tizimiga kirishi) uchun, muloqotga kirishayotgan tomonlar yagona belgilar, mohiyatlar tizimidan foydalanishi zarur. Psixologik, ijtimoiy va madaniy to'siqlar, muloqot vaziyatini noadekvat aks etish, muloqot samaradorligi uchun to'siq bo'lishi mumkin.

Shaxslararo munosabat - odamlarning sub'ektiv kechinayotgan o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siridir. Shaxslararo o'zaro munosabatlar psixologiyasi muloqotga kirishuvchilarning ijtimoiy pozitsiyalari, ularda mazmunning shakllanish tizimi, ijtimoiy psixologik refleksiyaga qobiliyati bilan belgiladi. Shaxslararo o'zaro munosabatlar ijtimoiy persepsiya va kauzal atributsiyalar bilan shartlanadi.

Ijtimoiy persepsiya⁶ - ijtimoiy ob'ektlar - odamlar, etnik guruhlar va shu kabilarni idrok etishning ijtimoiy shartlanganligidir. Bunda, kauzal atributsiya (lot. causa - sabab, attributio - beraman) deb ataluvchi - boshqa odamlar xulqi sabablari va motivlarini sub'ektiv tushunish, ularning shaxsiy sifatlarini sub'ektiv izohlash (interpretatsiya qilish) amalga oshadi.

Shu o'rinda, refleksiya va ijtimoiy persepsiya tushunchalariga izoh berib o'tsak. Aksariyat holatlarda, "refleksiya" tushunchasini "refleks" bilan almashtirib yuborish ham kuzatiladi. Psixologik atamalar izohli lug'atida,

⁶ Psixologik atamalar ruscha - o'zbekcha izohli lug'ati /Psixologiya fanlari doktori, professor G'.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent., 2019. -B. 319.

refleksiyaga - (lot. **reflexio** - aks etish, orqaga qarash); odamni bilishning o'z-o'ziga, o'zining ichki olami, psixik holatlari va sifatlariga qaratilganligi. Sub'ektning atrofida qanday baholayotganligini "idrok" qilishi. Refleksiya kishi bilimlarining o'z-o'ziga, o'zining ichki olamiga, psixik sifatleri va psixik holatlariga qaratilishidir. Ya'ni, "boshqalar uni qanday odam deb hisoblaydi"⁷ - deb o'ylaydi, degan izoh beriladi. Refleksiya ijobiy bo'lsa, ya'ni sub'ekt sherigini ijobiy idrok etsa, ya'ni sherigi uni yaxshi odam deb o'ylashini bilsa, unga nisbatan ijtimoiy ustanovkalari ijobiy bo'lsa, uning u bilan bo'ladigan kelgusi muloqoti ham ijobiy tus oladi. Aksincha bo'lsa, bu munosabatlar, muloqot kutilgan natijalarga olib kelmasligi mumkin.

O'zbek oilalaridagi qaynona-kelin, kelin-qaynsingil o'zaro munosabatlarini olsak, bu munosabatlarda ijobiy refleksiyaning bo'lishi mumkinligi haqida gapirish qiyin. Chunki, xalq og'zaki ijodiyoti na'munalarida ham, odamlarning kundalik turmush tarzi stereotiplarida ham, ayollar bo'lajak kelin yoki qaynona obrazini ijobiy tasvirlangan holatlari kam (Farmon bibi, Jannat xola, Sotti, Ofat kelin va sh.k.). Bunday "tasavvurlar", "idroklar" esa ularning o'zaro munosabatlarida o'z aksini namoyon qiladi.

Xalqimizda, **"Yaxshi qiz mahalladan oshmaydi"** - degan naql bor. Buning boyisi, qiz shu mahallada o'sar ekan, esini taniganidan buyon bo'lajak qaynonasi, qaynsinglisini biladi, taniydi, ular haqidagi tasavvurlari adekvat (ob'ektiv), ya'ni real hayotda ular bilan muloqotda bo'lgan. O'z navbatida uning refleksiyasida noadekvat "obrazlar" bo'lmaydi, u oila qurganidan keyingi yangi sharoitga, "muhit"ga moslashishi oson kechadi. Bu yerda nomutanosibliklar deyarli kuzatilmaydi.

Odamlarning bir-biriga munosabatining turg'un ustanovkasi - attityudlar mavjud. Idrok qilinayotgan ijtimoiy ob'ekt mazkur odamdagi mavjud aloqalar mazmuniy tizimiga kiradi. Muloqotga kirishayotgan odamlarning ayrim sifatleri o'xshash bo'lsa yoki bir-birini to'ldirsa ijobiy ustanovkalar yuzaga keladi; sifatlar mos kelmasa, psixologik nomoslik holatlarida - salbiy ustanovkalar

⁷ Psixologik atamalar ruscha - o'zbekcha izohli lug'ati /Psixologiya fanlari doktori, professor G'.B.Shoumarov tahriri ostida. - Toshkent., 2019. - B. 293.

yuzaga keladi. Ustanovka⁸ – bu odamning bo'lajak faoliyatga psixologik tayyorlik holatidir.

Muloqotdoshni idrok etish (baholash)

Birlamchi idrok yoki odamning tashqi ko'rinishi - uning milliy va ijtimoiy mansubligi, psixik sifatlari, madaniyat darajasi va sh.k.lar haqidagi ko'plab ma'lumotlar beruvchi signallar majmui sifatida izohlanadi. Odamlar bir - birini idrok qilar ekanlar sheriklarining xarakteri va psixik holati, uning kommunikativ va ishchan sifatlari haqida xulosa qiladilar.

Agar odam haqidagi birinchi taassurot muvaffaqiyatli, ijobiy bo'lsa, uning keyingi xatti-harakatlarini ham ijobiy baholash an'anasi ("ijobiy oreol effekti") yuzaga keladi.

Agar birinchi taassurot salbiy, shaxs xulqidagi noxush ko'rinishlar bilan bog'liq bo'lsa, unda uning kelgusi xatti-harakatlarini salbiy baholashning ustivorlik qilish an'anasi ("salbiy oreol effekti") kuzatiladi.

Oilaviy hayotda, turmush o'rtog'i yoki oilaning boshqa a'zolari xulqini baholash ko'pincha nafaqat shoshilinch, balki nomantiquiy ham bo'lishi mumkin. Xulqning u yoki bu sababi xaddan tashqari orttirib yoki kamsitib yuboriladi. Ayollar va erkaklarning o'zini-o'zi yoki boshqalarni baholashlari ham bir hil emas.

Erkaklar, odatda o'zlarini va boshqalarni sifat mezonlarida xarakterlaydi, **ayollar** esa – holatlar, hissiy mezonlarda xarakterlaydilar. Ayollar o'z xususiyatlarini vaziyatli omillar bilan tushuntirishga moyil bo'ladilar. Ayollar va erkaklar hatto mimik hissiy ifodalanishni ham turlicha izohlaydilar. Ayollar xayratlanish, ajablanishni ko'rayotgan joyda, erkaklar qat'iylikni ko'rishlari mumkin.

Individning shaxsiy tuzilishi qanchalik ko'p o'lchamli bo'lsa, uning voqelik bilan munosabati shunchalik egiluvchan, u qutubli baholashga shunchalik ko'p moyil, ular tomonidan olamni ko'rish, aks etish shunchalik differensiyalashgan bo'ladi. Cheklangan individlar ijtimoiy ob'ektlarni soddalashtirib yuboradi.

⁸ Ўша жойда, -В.348-349.

Muloqot sub'ektlarining turli mavqei (holati) ham ularning o'zaro baholash xarakterini belgilaydi. Er xotinining bir sifati uchun qadrlaydi, shu bilan birga urning tashqi alomatlari, belgilari batafsil baholanadi. Erning xotin uchun ahamiyatli sifatlarini bildiruvchi belgilar alohida ajratib baholanadi.

Masalan, psixologik tadqiqotlarning birida, bitta fotosuratning o'zi, suratda aks ettirilgan odamning axloqiy-psixologik sifatleri haqida berilgan ijtimoiy statusiga nisbatan dastlabki ko'rsatmaga bog'liq ravishda, sinaluvchilarda mutlaqo qarama-qarshi tasavvurlarni yuzaga keltirgan. Bunda, sinaluvchilarning bir guruhiga fotosuratdagi odam ashaddiy jinoyatchi sifatida tanishtirilgan, boshqa guruh sinaluvchilariga esa xuddi shu surat egasi, atoqli olim deb tanishtirilgan⁹.

Natijada, birgina suratning o'zi turli guruh sinaluvchilari tomonidan turlicha, qariyb qarama-qarshi sifatlar bilan baholangan. Ijtimoiy persepsiya stereotipizatsiyaga moyil bo'ladi. Shtamp (tamg'alar) ning tafovutligi ko'pincha odamni odam tomonidan idrok etilishini buzadi, noadekvat izohlanishga olib keladi.

Bu o'rinda, er-xotin, qaynona-kelin va oilaning boshqa a'zolari haqida berilgan ustanovka (odatda bunday ustanovkalarni kelinning yaqinlari beradi), ularning xarakteri, shu omillar asosida sub'ektda shakllangan "obraz", uning bahosiga va shu asnoda ular bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zaro baholash asosida odamlarda tegishli ijtimoiy hissiyot - his shakllanadi. Attraksiya (ingl. attrakt - jalb qilish, o'ziga tortish) hodisasi, shaxslararo munosabatlarning hissiy to'yinganligi yuzaga keladi.

Ko'pchilik odamlar, o'zini, o'zlarining xulqiy ustanovkalariga mos holda tutadilar. Muloqotning ma'lum bir natijasini oldindan rejalashtirib ular ekan, ular o'z xulqi bilan uni yuzaga keltiradilar ham. Arazchi odam, odatda o'zini xafa qilishgandek tutadi, tajovuzkor odam esa "javob qaytarishi" mumkin bo'lgan bironta ham bahonani o'tkazib yubormaydi.

⁹ Бодалёв.А.А. Восприятие и понимание человека человеком. - М., 1982.

Muloqotning perseptiv jihatlar

Muloqotning perseptiv jihatlar deyilganda, avvalo er-xotin yoki oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi o'zaro idrok mexanizmlari nazarda tutiladi.

Psixologik adabiyotlarda o'zaro idrok mexanizmlari sifatida quyidagilar farqlanadi:

- **Izohlash** - Muloqotdagi sherik hulqi;*
- **Nisbat berish** - Bu muloqot bo'yicha sherik xulqi sabablarini, ma'lumot taqchilligi sharoitida tushuntirish va asoslash;*
- **Stereotiplashtirish** - Suhbatdoshni idrok etish va baholash oldingi tajribalariga mos ravishda amalga oshadi;*
- **Oreol effekti** - Kim tomonidandir oldindan yaratilgan obraz, odamning haqiqiy hislatlarini ko'ra olishga halaqit qiladi;*
- **Yangilik effekti** - Oxirgi, yangiroq bo'lgan ma'lumot, ahamiyatliroq bo'ladi;*
- **Birlamchilik effekti** - Yangi odam haqida birinchi olingan ma'lumot, asosiy ma'lumot sifatida mustahkamlanib qoladi va ikkilamchi ma'lumotlardan ustunlik qiladi.*

Agar sub'ektning ma'lumot doirasi torroq, unda sub'ektivizm darajasi kuchliroq bo'lsa, yuqorida keltirib o'tilgan idrok mexanizmlari unga oila a'zolari, jumladan turmush o'rtog'i bilan bo'ladigan o'zaro muloqoti va munosabatlarining ijobiy rivojlanishiga jiddiy halaqit qilishi mumkin. Aynan muloqotda juftini baholash, idrok qilishning yuqorida keltirib o'tilgan kabi jihatlaridagi sub'ektivizm, shaxsning xatoga yo'l qo'yishiga sabab bo'ladi.

Ko'pincha yaqin odamlar bilan muloqotda bo'lish, yaxshi tanish bo'lmagan odamlar bilan bo'ladigan muloqotga qaraganda qiyinroq bo'lishligi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, biz odamni qanchalik yaxshi bilsak, uning uchun nima qanchalik noqulay ekanligini, u nimani hazm qila olamasligi kabilarni yaxshi bilamiz. Bu esa bizda sub'ektivizm darajasini ortishiga va shu asosda nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

“Barcha baxtli oilalar bir-birlariga o‘xshaydi, baxtsiz oilalar esa har biri o‘zicha baxtsizdir!”

Demak, oilada ham shunday bo‘lishi kerak. Er yoki xotin, yoki oilaning boshqa a‘zosi bir-birlarini xulqini bilib, tushunib, idrok qilib, aniqlab borish bilan birga, unga adekvat ravishda o‘zining oqilona strategiyasini ham belgilab borishga, buning uchun zarur bo‘lsa, oila manfaati yo‘lida, o‘z manfaatlaridan ham qisman bo‘lsada kechishiga to‘g‘ri keladi.

Shu pozitsiyadan turib ma‘lum bir (o‘zi ma‘qul hisoblagan) ijtimoiy rolni (“ijtimoiy niqobni”) ijro etadi. Niyatlarning ezgu bo‘lishi ham biz uchun bir qadriyat hisoblanadi. Holbuki, qariyb bundan 3000 yil avval bizning zaminimizda yaratilgan “Avesto”da “Ezgu andisha, ezgu kalom va ezgu amalda sobit qadam erni xush qabul aylagan xonumonni olqishlaymiz”¹⁰ deyilganligini bugungi yoshlarimiz bilishlari shart. O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov yozganlaridek:

***Illat izlaganga illatdir dunyo,
G‘urbat izlaganga g‘urbatdir dunyo.
Kim neni izlasa topgay begumon,
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.***

Shunisi ham ma‘lumki, boshqa odamlarni tushunishda har bir odam o‘z aqli va hayotiy tasavvurlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda cheklangan bo‘ladi. O‘zining sifat va xususiyatlarini boshqalarga yo‘yish, ularga ham shu hislatlar xos, deb o‘ylashga moyil bo‘ladi. Bunday hollarda, odamlar o‘zlarining ustanovkalari va qiziqishlariga zid keladigan narsalarni yaxshi qabul qilmaydi. Odamning haqiqiy qiyofasi, uning kimligi, ko‘pincha arzimagan narsalarda (ikr-chikirlarda) va juda mas‘uliyatli vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Chunki, odam o‘zining “zaif joyini” zo‘r berib himoya qiladi.

“Egri qovurg‘ani tuzatib bo‘lmasligi” haqidagi gap bugun paydo bo‘lgan emas. Xalqimizda: “Kamini yashirib, ko‘pini oshirish”-deyilganidek, oilaviy

¹⁰ Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик /Н.Жўраев; тарж. А.Маҳкам. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2015. – Б. 508.

hayotda er-xotinlarning individual-psixologik xususiyatlaridagi salbiy sifatlarning negativ ta'sirini kamaytirib (iloji boricha "izolyatsiya" qilib), ijobiy sifatlarning ijobiy ta'sirini oshirishga intilish kerak. Bu borada, kattalarning hayotiy tajribalari, yoshlarimizning psixologik savodxonligi darajalarining yuqori bo'lishi yaxshi yordam berishi mumkin, lekin odamni bilishda, idrok etishda keng ilmiy amaliyot sinovidan o'tgan, o'zining diagnostik va amaliy imkoniyatlari bilan oqlangan psixodiagnostik vositalardan, malakali psixolog mutaxassislar xizmatidan foydalanilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

 **Topshiriq. Muloqot texnikasi deb nimaga aytiladi? javob yozing.**

Savol	Javob
Muloqot jihatlariga nimalar kiradi?	
Muloqot texnikasi deb nimaga aytiladi?	

Nazorat savollari:

1. Muloqotning funksiyasi ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) ma'lumotli, ijtimoiy, sotsiologik, ekspresiv
- B) ma'lumotli-kommunikativ, boshqaruv-kommunikativ, perseptiv-effektiv, affektiv-ekspressiv**
- D) ma'lumotli, boshqaruvli, ijtimoiy, perseptiv, effektiv
- E) ma'lumotli, kommunikativli, ijtimoiy-sotsiologik

2. Muloqotning perseptiv jihatlarini mexanizmlarini aniqlang?

- A) Izohlash, nisbat berish, stereotiplashtirish, Oreol effekti, yangilik effekti, birlamchilik effekti.**
- B) Izohlash, nisbat berish, stereotiplashtirish, yangilik effekti.
- D) Izohlash, stereotiplashtirish, yangilik effekti, virlamchilik effekti.
- E) Izohlash, nisbat berish, stereotiplashtirish, yangilik effekti, birlamchilik effekti.

7-MAVZU. YOSHLARNI OILAGA IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MOSLASHTIRISH USULLARI. QAYNONA-KELIN MUNOSABATLARI. ER VA XOTIN MUNOSABATLARI.

Reja:

1. Yoshlarni oilaga ijtimoiy va psixologik moslashtirish usullari.
2. Qaynona-kelin munosabatlari.
3. Er va xotin munosabatlari.

Tayanch iboralar: Ota-ona va farzand, oila, qaynona - kelin, er va xotin, nikoh, baxtli oila.

Hozirgi kuzatishlar natijasiga qaraganda, ko'pchilik ota-onalar farzandlarini oilali qilish maqsadida mol-dunyo va sep yig'adilar, sovchilik, qudachilik bordi-keldilarini qiladilar va kattaroq to'y qilish bilan o'z burchlarini ado etgan bo'lib, erkin nafas oladilar. Ammo eng muhim masalalardan biri bo'lgan narsa – qizlarini kelinlikka, o'g'illarini kuyovlikka tayyorlash eslaridan chiqib qoladi. Ming afsuski, ko'pchilik yoshlar go'shangaga oila, er-xotinlik hayoti, ularning o'zaro munosabatlari, haq-huquqlari hamda burch va mas'uliyatlari haqidagi dinimiz ta'limotlaridan bexabar holda kiradilar.



Odatda, to'y vaqtida va oilaviy hayotning boshlanishida kelin-kuyovning yaqinlari, kuyov jo'ralar, kelin yangalar ularga qanday qilib bo'lsa ham umr

yoʻldoshini “gah desa, qoʻlga qoʻnadigan qilib olish” haqida va boshqa bachkana narsalardan iborat boʻlgan maslahatlarni beradilar.

**“NIKOH TOMONLARNING IZTIYORIY ROZILIGI VA TENG
HUQUQLILIGIGA ASOSALANADI”**

**Oʻzbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi 63-modda 2-qism**

Aslida, “Er oilada qanday boʻlishi kerak?” degan savollarga mazkur maslahatlar hech qachon javob bera olmaydi. Aksincha, ular oilada aloqalarning keskinlashuviga sabab boʻladi, xolos.

Yoshlar pul, vaqt, harakat, aql, zakovatni oʻzining oilaviy baxti uchun kerak boʻladigan taʼlimotlarni oʻrganishlari kerak boʻladi. Bu masalaga alohida eʼtibor berish har bir ota-onaning burchidir. Yoshlar doimiy kitoblar oʻqishi, maʼruzalar tinglashi, ovoz yozuv vositalarini yeshitishlari oilaviy hayotga oid bilimlarini oshirishiga xizmat qiladi. Xalqaro axborot tarmogʻi sahifalarida ham koʻplab maʼlumotlar bor. Bilmaganlar soʻrab, oʻrganishlari mumkin.

Balki, imkonini topib, kelin-kuyovlar uchun oʻquv kurslari ochish zarur. Boshqa kerakli choralarni koʻrib, bu ahamiyatli ish boʻyicha har bir sohaning mutaxassislari oʻz imkonlarida bor hissani qoʻshishlari yaxshi natijalarga olib boradi. Vaqtning borida mazkur mutaxassisliklarning faoliyatlarini muvofiqlashtirish va samarali boʻlishini taʼminlash kerak.



O'g'il bolalarning tarbiyasiga otalari katta ahamiyat berib, ularda erkaklarga xos bo'lgan oliy sifatlarning shakllanishi uchun o'zlaridan talab qilinadigan barcha mas'uliyatlarni sharaf bilan ado qilishlari, farzandlarini yetuk kishilar etib tarbiyalab borishlari lozim.

Shuningdek, qizlarning alohida tarbiyalari onalarga topshiriladi. Ularda yetuk qiz, kelin, uy bekasi, xotin, ona bo'lish qobiliyatlarini onalar tarbiyalashlari va kamolga yetkazishlari talab etiladi.

Madaniy merosimizga murojaat qiladigan bo'lsak, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida ko'plab go'zal namunalarni ko'ramiz.

Bizda kattalar, xususan, ota-onalarning yosh kelin-kuyovlarga oilaviy turmush haqida pand-nasihat qilishlari, hayotiy tajribalarni so'zlashlari odat tusiga kirib qolgan. Ayniqsa, kelinlarga qilingan nasihatlar ko'p kitoblarda ko'plab saqlanib qolgan.

Islom dini manbalarida "Zinhor rashkchi bo'lmagin, u taloqning kalitidir. Zinhor ko'p itob qilguvchi bo'lmagin, u ko'ngilsizlikni keltirib chiqaradi. Surma qo'yib yurgin, ziynatlarning eng afzali shudir".

Amoma binti Horis ismli ayol o'z qizining kelin bo'lib, kuyovning uyiga uzatilishidan oldin saodatli oila asoslarini bayon qiluvchi quyidagi nasihatlarini qilib, kuzatgan ekan:

1. Qanoat sohibasi bo'l, undan hayiqib tur. Ering uyga nima ko'tarib kelsa, xushfe'llik va odob-nazokat bilan qabul qilib ol, tashakkur ayt.
2. Eringga hamisha itoatda bo'l, amrlarini yaxshilab tingla va bajar.
3. Eringning nazari tushadigan joylarga e'tibor qil. U senda xunuklik ko'rmasin. Uy ichi va hovlini nihoyatda ozoda va tartibli tut.
4. Eringning burniga hushyor bo'l. Dimog'iga sendan yomon hid kirmasin, faqat xushbo'ylik sezs.
5. Ovqatni vaqtida tayyorla, aslo kechiktirma. Ering uyga kelishi bilan, dasturxon sol.
6. Uning uyqu vaqtini, uyg'onish paytini bilib ol. Chunki ochlik va uyquning buzilishi erkaklarning g'azabini qo'zg'aydi.

7. Xojangning moli va ashyosiga e'tiborli bo'l, isrof qilma, avaylab asra! Chunki uning mol-dunyosi senikidir.

8. Eringning qarindoshi va yaqinlarini izzat-hurmat qil. Bu bilan xojangni hurmat qilgan bo'lasan.

9. Eringning sirlarini boshqalarga aytuvchi bo'lma, uning ishonchini yo'qotasan.

10. Xojangning amriga osiy bo'lma, uning dinga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil. Shuni yaxshi bilib olki, xojang xafa bo'lganda xursand ko'rinishdan, u quvongan paytda g'amgin bo'lishdan o'zingni ehtiyot qil!.



Bo'lajak kuyov uchun nasihatlar:

1. U ham sen kabi tasarruf qilishi kerak deb o'ylama. Chunki u sendan boshqacha yaratilgan.

2. Uni e'tiborsiz qoldirma. Unga muhabbat, mehr va omonlik hadya et. Chunki u ayollik tabiati ila mazkur narsalarga muhtojdir.

3. Uning shikoyatlarini e'tiborsiz qoldirma. Ayol kishi har doim ma'naviy va mehrli qo'llovni istaydi.

4. Unga sovg'alar taqdim qilishda baxil bo'lma, chunki ayol zoti baxil erni yoqtirmaydi.

5. Ahlini ziyorat qilishiga qarshi bo'lma, agar bunga qarshi bo'lsang, uning muhabbatini yo'qotasani. Ayollar o'z ahliga ko'proq bog'liq bo'ladi.

6. Goh-gohi rashk qilishingni bildirib tur. Bu uning ayollik izzat-nafsini rozi qilib turadi.

7. Unga lutf ko'rsat, ayolligini qondirib tur.

8. Uning ayblarini yuziga solma. U tanqidni yoqtirmaydi.

9. Undan yuz o'girma. Ayol kishi o'ziga quloq tutganni yaxshi ko'radi.

10. Unga xiyonat qilma. Ayol uchun eng og'ir narsa erining xiyonat qilishidir.

11. Uning o'zini ham, his-tuyg'ularini ham masxara qilma, chunki u nozik xilqatdir, jarohatni ko'tara olmaydi.

12. U sendan talab qilgan narsani unutma. Aks holda unda "qadr-qiymatim yo'q ekan" degan tushuncha paydo bo'ladi.

13. Undan yordamingni ayama. Chunki ayol zoti doimo o'zi ishonadigan va suyanadigan shaxsga muhtojdir.

14. Oilaviy mas'uliyatlaring va va'dalaringni zinhor e'tiborsiz qoldirma. Ularga amal qilishing ayolingga bo'lgan muhabbatingni his qildiradi.

15. Uning ikkingizning muammolaringizni hal qilish bo'yicha takliflarini e'tiborsiz qoldirma. Agar unday qilsang, bu unga ahamiyat bermaganligingni bildiradi.

16. Undan muammolarni oqilona va mantiqiy hal qilishini talab qilma. Chunki ayol kishi odatda ko'proq otifaga – his-hayojonga berilgan bo'ladi.

17. Uyning mayda-chuyda ishlariga ko'p aralashma. Bu borada unga ishon. Bu unga uyning haqiqiy bekasi ekanini sezdirib turadi.

18. Uni maqtab turishdan g'ofil bo'lma. Uning kiyimi, ziynati, pishirgan narsalarini, uy tutishini maqtab tur. Bu uning ayollik tuyg'usini rozi qiladi.

19. Ayol kishining homiladorlik, tugʻish va hayz kabi ogʻir holatlarni boshidan oʻtkazishini aslo unutma. Oʻsha paytlarda uning his-tuygʻularini yanada koʻproq rioya qilish lozim.

20. Uning shaxsiy hurriyatini koʻp cheklama. Xususan, ijtimoiy aloqalarda.

Qaynona - kelin munosabatlari.

Qaynona - kelin oʻrtasidagi aloqalar goʻzal va chiroyli boʻlgani qanday yaxshi. Lekin, ikkisi oʻrtasidagi munosabatlari inqiroz koʻchasiga kirib qolgan vaqtda hech boʻlmaganda insoniylik nuqtai nazaridan mahalla – koʻy oldida, farzandalar qarshisida aql va ziyraklik bilan harakat qilish lozim.

Ayrim qaynonalar kelinlariga zulm qilishlari ham hech kimga sir emas. Baʼzi oʻziga haddan ziyoda bino qoʻygan qaynonalar oʻzlarini bamisoli bir qirolichadek, kelinlarini esa choʻridek hisob qiladilar. Arzimas sabablar bilan kelinlarini turtkilayveradilar. Kelin sal uxlab qolsa, yoki qaynonaning oyoq kiyimini toʻgʻrilab qoʻymagan boʻlsa, yoki hadeganda boʻyida boʻlavermasa, boshidan tegirmon toshi yurgizadilar. Oilalarning buzilishiga, yoki qaynona-kelin munosabatlarining yomonlashishiga koʻpincha arzimagan “dedi-dedi” gaplar ham sabab boʻladi. Hech qaysi kelin yangi uyiga kelganda, ularga nisbatdan gʻaraz niyatlar olib kelmasa kerak yoki ularni behurmat qilishni oʻylamasa kerak. Ular goʻyoki yosh niholga oʻxshaydi, uni egri oʻsishiga yoʻl qoʻymay, mehr bilan sugʻorib, koʻp yillik tajribaga ega ayol sifatida muallimlik qilsa, tushunmovchiliklar yuzaga kelmasmidi.



Ba'zan bu dunyoning hech narsaga arzimaydigan moddiy boyliklaridan ko'rayonimizdagi yaqinlarimizni asrashni o'rganishimiz kerak. Hamma inson ham hato qiladi, kechira olish esa hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

Mehr esa har qanday muammolarning oddiy yechimi hisoblanadi.

Shunday ekan, qaynonalar yosh kelinlaridan o'tgan kamchilik va xatolarni kechira bilishlari ham olijanoblik sanalib, yoshlarning to'g'ri yo'lga tushishiga yordam beradi. Oilada qaynonalar yoshi ulug', tajribali bo'lganlari uchun yoshlarga imkon berishi, bilmaganlarini o'rgatishi, bag'rikenglik qilishlari darkor. Ayni paytda kelinlar ham xatolarini tan olib, qaynonalardan uzr so'rashlari ularning hurmatlari ortishiga olib keladi. Oila hayoti hechqachon bir tekis faqat shoduxurramlik, baxt-saodatdan iborat bo'lmaydi.

Ba'zida qaynonalar farzandlarining baxtli bo'lishi yo'lida o'zlarining ba'zi hoyi-havaslaridan voz kechishlariga ham to'g'ri keladi. Qachonki, er-xotin birgalashib oila totuvligi yo'lida kurashsagina qiyinchiliklarni yengish oson kechadi, oila xotirjamligiga erishadi.



Oilada er va xotin munosabatlariga:

- ✓ **Erkak va ayolning vazifalari;**
- ✓ **Erning oiladagi burchlari;**
- ✓ **Xotinning oiladagi burchlari;**
- ✓ **Xotin har bir narsani eridan so'rab qilishi;**

- ✓ Erga yordam berish va unga rioya qilishi;
- ✓ Erining oila a'zolariga yaxshilik qilishi;
- ✓ Oilada er va xotinning teng huquqliligi;
- ✓ Er va xotinning familiyasi;
- ✓ Er va xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi;
- ✓ Er va xotinning xususiy mulki;
- ✓ Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishi;
- ✓ Er va xotinning shaxsiy va umumiy qarzlariga javobgarligi;
- ✓ Er va xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida nikohning tugatilishi.



“Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o’rtada boylik va saranjomlik bo’lur. Uy bezagi undan va uylanganning tinchligi undan. Husni bo’lsa, ko’ngilga yoqimli bo’lur, yaxshiligi bo’lsa jon ozig’idir. Aqlli bo’lsa, turmush intizomli va ro’zg’or kerak-yarog’i tartibli va saranjomli bo’ladi.

Alisher Navoiy

Er-xotin o’rtasida muhabbatni kuchaytirish uchun quyidagi 10 ta vosita:

1. O’zaro hadyalar ulashish. Masalan, uyquga yotish oldidan chiroyli atirgulni yoki chiroyli rangli qog’oz (otkritka)ga go’zal so’zlar yozib, ayolingizning yostig’i ustiga qo’yib qo’ysangiz, bu narsa juftingizga qanchalik

ijobiy ta'sir etishini ko'rasiz. Er ayoliga hadyani kulgu va tabassum hamda yoqimli so'zlar bilan beradigan bo'lsa, uning qalbida eriga nisbatan kuchli mehr uyg'onadi. O'z navbatida ayol ham eriga qo'ldan kelganicha uning mehrini jo'shtiradigan biror hadya berishga intilmog'i kerak. Zero, xalqimizda "Qarsak ham ikki qo'ldan chiqadi" degan maqol bor.

2. O'zaro gaplashib o'tirish uchun alohida vaqt ajratish. Suhbat chog'ida ham bir-birlarining so'zini betoqatlik, besabrlik va katta ehtirom bilan eshitishga urinishlari kerak. Albatta, bunda samimiyluk yo'qolmasligiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

3. Erning ayoliga va ayolning eriga o'tli qarashi. Er-xotin o'rtasidagi rasmiy munosabatlar, ya'ni erning o'z vazifalarini bajarishi va ayolning o'z vazifalarini bajarishi yoki bir-birlariga sevismlarini izhor qilishlarining o'zi muhabbatni kuchaytirishga kifoya qilmaydi. Ba'zida gap-so'zsiz, imo-ishoralar, qarashlar, ovozda o'ziga xos ohanglar, ko'zning muhabbatga limmo-lim o'tli nigohi ham ishini bitirishi mumkin. Bularning hammasi ko'ngil, ruhiyat orqali amalga oshiriladigan ishlardir.

4. Ishga ketayotganda ilik xayrlashuv va ishdan qaytganda ilik ko'rishuv.

5. Ayolni maqtab turish. Uni hamma narsadan qizg'onishini odob bilan izhor qilish.

6. Ba'zi ishlarda ayolga ko'maklashish. Masalan, uydagi shaxsiy kutubxona kitoblarini tartibga keltirish, ba'zi taomlarni pishirishda yordamlashish, bolalarga tegishli narsalarni birgalikda amalga oshirish va hokazo.

7. Shirin so'z. Er ham, xotin ham bir-birlariga shunday so'zlarni topib gapirsintlarki, natijada o'rtalaridagi muhabbat yana ham kuchaysin. Masalan, bir-biriga sevishini aytsin, "Siz menga Allohning ne'matisiz" kabi so'zlarni aytish ayni muddaodir.

8. Suhbat uchun hech kim xalaqit bermaydigan tinch joy tanlash. Bunda xatto bolalarning ovozlari, shovqin-suroni ham eshitilmasin. Albatta,

to'la xotirjamlikni his qilib suhbatlashish er-xotin o'rtasidagi o'zaro ishonch va mehrni yanada jonlanishga hissa qo'shadi.

9. O'rtadagi muhabbat me'yorida bo'lishiga e'tibor berish. Bu juda muhim masala. Bir-birini juda qattiq ham sevmasin, juda begonalashib ham ketmasin. Hamma ishda mo'tadillik yaxshidir. Zero, muhabbatga mukkasidan ketishdan qaytarilgan. O'rtadagi masofani saqlashda qanchalik chuqur ketilsa, muhabbatga shuncha putur yetadi. Ko'pgina oilaviy muammolar ham aslida mana shu begonalashuvdan kelib chiqadi. Payg'ambar alayhissalom "Do'stingizni yengilroq sevingki, kuni kelib u dushman bo'lib qolishi ham mumkin. Dushmaningizga ham yengilroq adovat qilingki, kuni kelib u do'st bo'lib qolishi mumkin" deganlar.

10. Er-xotin bir-biriga og'ir damlarda dalda bo'lishi. Masalan, ayol kasal bo'lib qolishi yoki homiladorlik davrida unga moddiy va ma'naviy suyanch kerakligini er doim yodida tutishi kerak. Shuningdek, erining biror sabab bilan kayfiyati tushkunligini, ayolining mehriga, daldasiga muhtojligini farosatli ayol darhol sezib, qo'lidan kelgan yordamini berishi, erining yonida turishi matlubdir. Sherigining dardiga hamdard bo'lish, o'rtadagi muhabbatni misli ko'rilmagan darajada oshirib yuboradi.

 **Topshiriq. Qaynona-kelin munosabatlarini o'qing va xulosa chiqaring.**

Yangi kelin turmush o'rtog'i, qayinota va qayinonasi bilan birga yashaydi. Kelinning turmush o'rtog'i kuni bilan ishda. Kelin esa uyda. hali u bahona, hali bu bahona qayinona kelinini yoqtirmay tez-tez janjal ko'taradi. Kelinning turmush o'rtog'i bu janjallarga aralashishni yoqtirmaydi. Kelin va kuyov sevib turmush qurishgan, bir-birini sevishadi, munosabatlari juda yaxshi.

Oiladagi bu holatda kelin qayinonasi bilan qanday muomalada bo'lishi kerak? Oiladagi ruhiy holatni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun bu oilada qanday munosabatlarni qaror toptirishi kerak?

A) Kelin janjal chiqqanda qayinonasiga: "Men o'g'lingizga yalinib tekkanim yo'q. Meni o'zingiz topib, holi-jonimga qo'ymay kelin qilgansiz. Endi yomon bo'lib qoldimmi. Men qanday bo'lsam shundayman. Bilganingizni qiling", - deb har gal orani ochiq qilishi kerak;

B) Janjal chiqqanda kelin qayinonasidan baland kelib, uning boshqa janjal chiqarmasligiga harakat qilishi kerak;

D) Kelin har gal janjal chiqish sababini o'rganib, tahlil qilib, ulardan qayinonasi bilan bo'ladigan kelgusi munosabatlari uchun xulosa chiqarishi kerak. Qayinonasining xarakterini o'rganishi, shunga qarab muomala qilishi, qayinotasi, turmush o'rtog'i bilan maslahat qilishi, qayinonasidan o'tgan bo'lsa kechirishi, o'zining kamchiliklarini tuzatib, o'zidan ayb o'tganda albatta qayinonasidan kechirim so'rashi, uning hurmatini joyiga qo'yishga harakat qilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. "Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlari soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida nechanchi o'ringa ko'tarilgan?"

A) 37 - o'rinda

B) 73 - o'rinda

D) 29 - o'rinda

E) 47 - o'rinda

2. Oilada er - xotinning teng huquqliligiga nima deb ataladi?

A) kelishuvli oila

B) boshqaruvli oila

D) gender tenglik

E) zamonaviy oila

8-MAVZU: OILAVIY NIZOLAR. AGRESSIYA. GAZLAYTING. AB'YUS. ZO'ROVONLIK VA UNING OILA TINCHLIGIGA SALBIY TA'SIRI. "HIMOYA DAFTARI".

Reja:

1. Oilaviy nizolar.
2. Agressiya. Gazlayting. Ab'yus. Zo'rovonlik va uning oila tinchligiga salbiy ta'siri.
3. "Himoya daftari nima?"

Tayanch iboralar: Oila, agressiya, gazlayting, ab'yus, zo'rovonlik, himoya daftari, huquqiy himoya.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularning kimlar o'rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir.



Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etishiga ko'ra, ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

- **er-xotin o'rtasidagi nizolar;**
- **qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar;**
- **qaynona-kuyov o'rtasidagi nizolar;**
- **ovsinlar o'rtasidagi nizolar;**
- **ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar.**

Albatta, bu ro'yxatni yanada davom ettiraverish mumkin, lekin hozircha shu yuqorida keltirilganlar bilangina kifoyalanib, oilaviy hayotda ro'y berish ehtimoli nisbatan yuqori bo'lgan nizolarning eng muhimi bo'lmish er-xotin o'rtasidagi nizolarning ayrim xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Xo'sh, eng ezgu niyatlar bilan bir-birlarini sevib oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan keyin ularning o'zaro munosabatlarida nizo-janjallar ro'y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman, er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush-janjallarsiz ham yashasa bo'ladimi? Bu kabi savollarni yana ko'p davom ettirish mumkin.

Xalqimizda bir gap bor: oshsiz uy bo'lishi mumkin, lekin nizosiz uy bo'lmaydi. Faqat nizoning nizodan farqi bor. Bu haqda quyida batafsil to'xtalib o'tamiz. Haqiqatdan ham, ilk bolalikdanoq ko'plab ertaklar eshitib, keyinchalik o'zlari ham ularni turli kitoblardan o'qib o'sgan yoshlar o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlarini adekvat tasavvur eta olishlari mushkul.

Bundan tashqari aksariyat muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yigit-qizlar o'z ota-onasi oilasini, ularning turmush tarzini, bir-birlariga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarini va qator shu kabilarni o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari uchun ideal deb olishadi hamda ular ham oila qurishganlaridan so'ng o'g'il bolalar xuddi o'z otasidek va qizlarimiz o'z onalaridek "ota", "ona", "er", "xotin" bo'lishni orzu qilishadi. Chunki ular o'z ota-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo'luvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi er-xotinlarni ko'rmaganlar. Mabodo bunday vaziyatlar va nizolar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa ham, ularning ota-onalari bu holatni farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali namunaviy ahil, baxtli oilalar haqida berib boriladigan ko'rsatuvlarda ham aksariyat hollarda er-xotinlik munosabatlarini bir yoqlama, faqat yaxshi tomondan ko'rsatish an'analari mavjud. Bularning hammasi yoshlarda oilaviy hayot haqida bir yoqlama ijobiy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'ladi.

Markazlarda va “ishonch telefoni” orqali yordam ko‘rsatiladi

Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi tashkil etildi. Quyidagilar markazning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilandi:

- *og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo‘rluk ishlatilishiga duch kelgan shaxslarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, ruhiy, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatish;*
- *o‘z joniga qasd qilishga moyil bo‘lgan yoki o‘z joniga qasd qilgan shaxslar bilan birlamchi va izchil profilaktika tadbirlarini o‘tkazish;*
- *nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo‘rluk ishlatish hollarini va o‘z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni erta bartaraf etish maqsadida davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar bilan o‘zaro samarali hamkorlik o‘rnatish;*
- *ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha hududiy davlat va nodavlat muassasalarining faoliyatini tashkil etishda, ularning moddiy - texnik va uslubiy bazasini mustahkamlashda, mazkur muassasalarning kadrlar salohiyatini shakllangirish va qo‘llab-quvvatlashda, muhtoj shaxslarga, shu jumladan “ishonch telefoni” orqali maslahat berish tizimini yaratish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yishda ko‘maklashish;*
- *dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash maqsadida vaqti-vaqti bilan jamoatchilik fikrini o‘rganish, ularning asosida nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo‘rluk ishlatish va o‘z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni bartaraf etishga doir dasturlar va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish;*

- *nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishni va o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni, ularning kelib chiqishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni tahlil qilish hamda umumlashtirish, axborot-tahliliy materiallarni, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida va Internet tarmog'ida tarqatish orqali ushbu sohadagi muammolar haqida jamoatchilikning xabardor etilishini ta'minlash;*

- *davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlari uchun nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishni va o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan amaliyotlar, seminar va treninglar o'tkazish.*



Huquqiy himoyani kuchaytirish

“Maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish to'g'risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi, unda quyidagi masalalar nazarda tutildi:

- *maishiy zo'rlik ishlatish tushunchasini ta'riflash, zo'rlik ishlatiladigan holat turlarini ajratib ko'rsatish;*

- *vakolatli organlarning vazifalari va funksional majburiyatlarini belgilash;*

- *maishiy zo'rlik ishlatishning erta oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, bunday qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlikni farqlash;*

• *muayyan taqiqlar o'rnatishni, shu jumladan jabrlanganlar bilan muloqot qilishga, ularning ish joyiga, o'qish joyiga, yashash joyiga borishga taqiqlar qo'yishni va ularni himoya qilish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni nazarda tutadigan himoyaviy ko'rsatmalar institutini joriy etish;*

• *sudgacha va sud tekshiruvi jarayonida maishiy zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni himoya qilishga qaratilgan maxsus protsessual kafolatlarni joriy etish.*



Agressiya – tajovuzkor degan ma'noni bildirib, u insonni qaysidir salbiy jihatlarini namoyon etuvchi holatdir. Inson qachon tajovuzkor bo'ladi? Bunga sabablar nima? – degan savollarga doimo yechim qidiradi va uning oldini olish yo'llari bo'yicha izlanishlar olib boradi.



“Tajovuzkorlik sindromi” kim uchun xavfli?

Albatta, bu sindrom birinchi galda o'zining sohibini nishonga oladi. Buzg'unchi tanqidga odatlangan odamdan salbiy quvvat ajralib chiqib boshlaydi.

Salbiy quvvat:

Kimdandir ajralib chiqqan salbiy quvvat o'zi yo'nalgan ob'ektga qanchalik ta'sir qilishini aytish qiyin. Biroq, salbiy quvvat o'z egasining olamini payhon qilishi – bor gap.

Agar siz kimningdir xatosiga guvoh bo'lsangiz, muloyimlik bilan shaxsiy qarashingizni ifodalang. Xatolar – donolik va yuksalish vositasi. Kimdir xato qilyaptimi, demak u o'smoqda! Bu vaziyatda uni tajovuzkorlik bilan qarshi olish – chirmoviqning rolini o'ynash bilan barobar!

Shunday ekan, xatoni ko'rsangiz, ularga zararli quvvatni yo'naltirmang. Ilmiy izlanishlarning natijalariga ko'ra, kuchli odamlar o'zlariga qaratilgan buzg'unchi tanqidni ham o'sishlari uchun zarur quvvatga aylantirish qobiliyatiga ega ekanlar.

“Psixologiya 101”:

Taniqli ruhshunos Pol Kleynmanning mana shu nomdagi kitobini o'qiganlar yaxshi bilishadi: ommaning oldida boshqalarga nisbatan haqoratli so'z ishlatgan odam aslida kim to'g'risida so'zlayotgani uning atrofida qilarga ma'lum – o'zi haqida!

Ya'ni, boshqalarni ochiqcha va asossiz haqorat qilish aslida himoyalash mexanizmi. Tajovuzkor odamlarning fe'l-atvori – ularning hislari va qo'rquvlarining mevasi.

Ruhshunoslarning tasdiqlashlaricha, birovni ochiqchasiga yomonotliq qilishga urinish va mehnatini yo'qqa chiqarish odati ko'proq e'tiborga muhtoj, omadsiz va hayotda muvozanatni yo'qotgan odamlarga xos. Bunday odamlar ichidagi “xudbin qiyofa” (“ego”) ga qul bo'lishadi. Bu qiyofa esa faqat o'zini tan oladi, hatto o'zi joylashib olgan tana bilan ham hisoblashib o'tirmaydi. Shu sababli, “ego” haddan ziyod kuchayib ketsa, odam o'z-o'zidan nafratlana boshlaydi va unda bora-bora o'z joniga ham qasd qilish kayfiyati kuchayadi.

Muammoning yechimi:

Bir o'ylab ko'ring, siz yaxshi quvvat yordamida insonlar hayotini o'zgartirishga urinyapsizmi yoki salbiy quvvat bilan insonlarda kimgadir yoki nimagadir nisbatan nafrat uyg'otib, tartibsizlik yoki urush xavfini oshiryapsizmi? Ya'ni, sizning birgina noo'rin so'zlaringiz, munosabatingiz jamiyatdagi muvozanatni izdan chiqaradi, "xudbinlik qiyofasidagilar"ning ko'payishiga xizmat qiladi.

Nafrat nafratni chaqiradi. Tajovuzkorlik yovuz kuchni uyg'otadi va zo'ravonlikni keltirib chiqaradi. Va, bir o'ylab ko'ring, bugun dunyoni domiga tortib borayotgan jabr-zulmning ham bosh sababi shu emasmi? Urushlarning, kelishmovchilik va yovuzliklarning yechimi tajovuzkorlik emas. Faqat yaxshi so'z va samimiylik bizni yorug'likka olib boradi.

Tanqid qilishning qoidasi qanday?

Kimningdir mehnati, hislari va harakatini hurmat qilgan holda unga haqiqatni yetkazish u qadar ham qiyin ish emas.

1-qoida: Tanqidning o'z o'rni bor!

Kimnidir ommaning oldida izza qilish va tanqid toshlarini otish – beadablikning eng yuksak ko'rinishi. Bugungi ayrim internet foydalanuvchilari esa bu qoidani unutib qo'ydilar.

2-qoida: Hadeb tanqid qilmang!

Agar siz odamlarni hadeb tanqid qilaversangiz, ular oxir-oqibat sizga e'tiborsiz bo'ladilar yoki voz kechib qo'ya qoladilar.

Tanqid qilishdan avval yaxshi jihatlarini e'tirof eting. So'ng zarur tavsiyalarni bildiring.

3-qoida: Tilingizdagini avval miyada mushohada qiling.

His-hayajonga berilmang va tanqidga olinayotgan mavzudagi bilimlaringizni ishga solib, mushohada qiling. Tanqid qilishdan avval xotirjam va yetarli ma'lumotga ega ekaningizga ishonch hosil qiling.

4-qoida: Odamlarni emas, vaziyatni nishonga oling!

Tanqidning tajovuzkorlikka aylanishi ko'pincha qaysidir odamga nisbatan nafratimizning mevasi bo'lishi mumkin. Tanqid qilishdan avval

vaziyatni tushunishga urining. So‘zlashdan oldin tinglashni bilish odamga keraksiz so‘zlarni aytishdan tiyilishiga xizmat qiladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda «ebola», “qora o‘lim”, “OITS” kabi xastaliklar jahonning eng xavfli kasalliklari hisoblanadi va har yili millionlab insonlarning yostig‘ini quritmoqda. Biroq, bugun sayyoramiz bo‘ylab bulardan ham xavfli virus tarqalmoqda – nafrat! Uning maqsadi urushlarni avj oldirish va yerdagi tirik jonlarni qirib tashlash.

Har bir yaxshi va ijobiy fazilatli inson, u qayerda va qandayligidan qat’inazar, sayyoramizning farovonligi uchun xizmat qiladi. Insoniyat aslida bir butun, har birimiz bu yaxlitlikning bir bo‘lagimiz. Birimizga ta’sir qilayotgan xavf kun kelib boshqamizga ham dard keltiradi. Bizning hayotdagi burchimiz mehr-muhabbat va insoniylik rishtalari yordamida o‘zaro uyg‘unlashuv bilan hamohangdir.

Biz barchamiz turlichamiz: barmoq izimizdan tokim, fikrimiz va harakatimizgacha farqlanamiz. Va, bir-birimizga doim ham yoqavermaymiz. Biroq, imkon bor ekan, vaqtni tilni o‘qlab emas, idrokni boyitib yashashga chog‘lanaylik. Xato qilganlarga ko‘maklashib, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsating va ularni qo‘llab yuboring. Yaxshi quvvatning ham, yomon quvvatning manbasi bir: siz urib turgan yurakdan muhabbatga joy bering, ishlab turgan miyada ezgulik yo‘lida mushohada qiling.

***“Sen ummondagi tomchi emassan. Sen – tomchi
ko‘rinishidagi ummonsan”,***

Mavlono Rumiy.

Siz o‘zingizni 7 milliardlik sayyoraning ahamiyatsiz, hech kim eshitmaydigan bir bo‘lagi deb emas, so‘zi, amali va harakati bilan insoniyat hayotini o‘zgartirishga qodir quvvat deb biling.

Gazlayting - psixologik zo‘rovonlik va ijtimoiy parazitning bir turi bo‘lib, uning asosiy vazifasi insonnni doimiy ravishda qadrsizlantiruvchi hazillar, ayblovlar va qo‘rqitishlar orqali azoblanishga va atrofdagi voqeilikni idrok yetishga shubha qilishdir.



Ab'yuz - shavqatsiz munosabatlar (ingliz tilida qo'pol va kamsituvchi munosabatlar) – sherik boshqa odamning shaxsiy chegaralarini buzadigan, kamsitilgan, jabrlanuvchining irodasini bostirish maqsadida shavqatsizlikka yo'l qo'yiladigan munosabatlar.

Ushbu turdagi munosabatlarda javrlanuvchi va tajovuzkor joylarni o'zgartirmaydi. Jabrlanuvchi ba'zi sabablarga ko'ra, bu munosabatlarni tark eta olmaydi.

BMTning 1999-yil 17-dekabrdagi rezolyusiyasi bilan yillar davomida bir necha davlatlarda **“16 kun zo'rvonliksiz!”** deb nomlangan aksiya o'tkazilmoqda. Bizning yurtimizda ikki yil oldin ushbu aksiya o'ziga katta e'tibor qaratmas edi. Chunki oilaviy kelishmovchiliklar, ayollarga nisbatan zo'rvonlik – nozik mavzular hisoblanib, hamma ham uyda nima sodir bo'layotganini bayon qila olmasdi. Chunki hech kim uydagi gapni ko'chaga chiqishini xohlamaydi.

Hozirda esa ushbu dolzarb muammoga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda **“Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun** kuchga kirdi, qiyin ahvolda qolgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari ochildi. Xotin-qizlarni himoya qilishda ichki ishlar organlari ayollar masalalari bo'yicha inspektorlari ham katta o'rin tutishadi.


“Himoya orderi nima?”

Himoya orderi tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchiga beriladi. Tazyiq o'tkazgan yoki zo'rvonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga himoya orderining nusxasi beriladi.



Himoya orderini bergan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsni himoya orderining shartlari hamda uni bajarmaslik oqibatlarini va zo'rvonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi.

Shaxs himoya orderini olish to'g'risidagi tegishli hujjatni imzolashni rad etgan taqdirda, himoya orderini topshirayotgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan xolislar ishtirokida dalolatnoma tuziladi.



Tegishli hududda tazyiq va zo'rvonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq va zo'rvonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida himoya orderini o'ttiz kun muddatgacha beradi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Himoya orderida quyidagilar ko'rsatiladi:

- ✓ *u rasmiylashtirilgan sana va joy;*
- ✓ *uni rasmiylashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlar;*
- ✓ *tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan sanasi va joyi, kasbi hamda yashash joyi.*

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-son qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga «**Tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik**» nomli 2061-modda kiritilib, unga ko'ra, tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olish belgilandi.

Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

- *tazyiq o'tkazishni va zo'ravonlik sodir etishni taqiqlash;*
- *tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxs bilan bilvosita aloqasi yo'lga qo'yiladi);*
- *tazyiq o'tkazilgan va zo'ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada birga bo'lishini taqiqlash;*
- *tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning,*

yetkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplash, shuningdek ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklatish;

➤ tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning qurolni (bundan xizmat qurol mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderining amal qilishi yoki unda ko'rsatilgan muddat davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlash.

Shuningdek, o'n sakkiz yoshga to'lmagan, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar himoya orderini olish to'g'risidagi ariza bilan shaxsan murojaat qilishga haqli.

Himoya orderi berilganligi va uzaytirilganligi to'g'risidagi axborot vasiylik va homiylik organiga, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga 24 soat ichida yuboriladi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar tazyiq o'tkazganlikda va zo'ravonlik sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsdan undirilishi mumkin.



Topshiriq. “Oiladagi psixologik muhit” savollarga: “Ha”, “Yo‘q”, “Ba‘zan” deb javob bering va tahlil qiling.

1. Bizning oila juda inoq.
2. Dam olish kunlari nonushta, tushlik va kechki ovqatni birga iste'mol qilish odat tusiga kirgan.
3. Oilaning ba'zi a'zolarining ishtiroki menda norozilik uyg'otadi.
4. O'z uyimda men o'zimni juda yaxshi his qilaman.
5. Oilaviy hayotimizda shunday bir xolat borki, u oila ahilligini buzib turadi.
6. Uy sharoitida men hammadan ko'ra yaxshiroq dam olaman.
7. Oilada norozilik paydo bo'lsa, hamma uni tez unutadi.
8. Oilamizda quvnoq, ko'tarinki kayfiyat hukmronlik qiladi.

9. Oilada og'ir, tushkun va tajang muhit yuzaga kelgan.
10. Oilamizda ba'zi bir a'zolarinnig yoki hammaning baland ovozda gapirishlari menga yoqmaydi.
11. Yo'l qo'yilgan xatolar, yaratilgan noqulayliklar uchun kechirim so'rash oilamizda odat tusiga kirgan.
12. Odatda bayramlarni keng nishonlaymiz.
13. Oiladagi noqulay muhit tufayli uyga borgim kelmaydigan xol tez-tez bo'lib turadi.
14. Uyda meni tez-tez xafa qilib turishadi.
15. Uyimizdagi sarishtalik meni doim xursand qiladi.
16. Uyga kelganimda hech kimni ko'rishni ham, eshitishni ham istamagan qolat menda tez-tez bo'lib turadi.
17. Oiladagi munosabatlar o'ta taranglashgan.
18. Men oilamizda ba'zi birovlar o'zini noqulay his qilishini bilaman.
19. Biznikiga tez-tez mehmonlar kelib turishadi.

Olingan ma'lumotlar tahlili:

"Ha"ga 2 ball, "ba'zan"ga 1 ball, "yo'q"ga 0 ball.

Natijalar tahlili:

0–8 ball: Mustahkam qat'iy salbiy psixologik muhit. Bu oraliq eru-xotinning ajralish darajasiga yetib qolganini yoki birgalikda yashash hayotini "juda og'ir", "chidab bo'lmaydigan" darajada ekanligini ko'rsatadi.

9–15 ball: Noqatiy, o'zgaruvchan psixologik muhit. Bunday ko'rsatkichni birga yashashdan ixlosi qaytgan, o'zaro munosabatlarida keskinlik bo'lgan oilalar beradi.

16–22 ball: Noaniq psixologik muhit. Unda ba'zi keskinliklar mavjud, lekin ijobiy kayfiyat ustunlik qiladi.

23–25 ball: Qat'iy, ijobiy psixologik muhitga ega bo'lgan oilalar.

Nazorat savollari:

1. Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi tashkil etilganmi?

A) Ha, tashkil etilgan.

B) Yo'q, tashkil etilmagan.

V) Eshitmaganman, ma'lumotga ega emasman.

G) Tashkil etilgan, lekin faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

2. "Himoya orderi nima?"

A) Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga beriladi. Tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga himoya orderining nusxasi beriladi.

B) Tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lmagan shaxsga himoya orderining nusxasi beriladi.

V) Tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etganlarga beriladi.

G) Tazyiq va zo'ravonlikdan himoyalangan shaxslarga, jabrlanuvchilarga beriladi.

1. O'zbekistonda mahalla va oilaga oid Farmonni belgilang?

A) PF-5938-son Farmon

B) PF-3859-son Farmon

D) PF-5874-son Farmon

E) PF-2478-son Farmon

2. "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutni tashkil qilish bo'yicha qarorda nimalar belgilab qo'yilgan?

A) institut xodimlari sonini o'zgartirish, institutni moliyalashtirish, direktor va uning o'rinbosarlarini kim tasdiqlashi

B) respublikadagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida o'z ta'sirini ko'rsatish

D) institutni moliyalash va nazoratga olish, o'z ishlariga boshqa tashkilotlarni aralashtirmaslik

E) institutni zamon talablari asosida jihozlash, moliyalashtirish va o'zi alohida qarorlar qabul qilish

9-MAVZU. OILAVIY NIZOLARNI OLDINI Olish USUL, VOSITA VA YO'LLARI. OILA PSIXOLOGIYASIDA NIZO DAVRIDA O'ZINI TUTISH QONUN VA QOIDALARI. OILADA MUOMALA MADANIYATI.

Reja:

1. Oilaviy nizolarni oldini olish usul, vosita va yo'llari.
2. Oila psixologiyasida nizo davrida o'zini tutish qonun va qoidalari.
3. Oilada muomala madaniyati.

Tayanch iboralar: Oilada tazyiq va zo'ravonlik, oila psixologiyasi, muomala madaniyati, xotin-qizlar, oilaviy nizolar,

Oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyati dastlabki profilaktika hisoblanadi.

Darhaqiqat, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ***O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son Qonunining 15-moddasida*** xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari belgilab berilgan.



Jumladan:

✓ *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;*

✓ *tazyiq va zo'ravonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo'lgan omillarni tahlil qilish, o'rganish va baholash;*

✓ *aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borish;*

✓ *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik hollarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish;*

✓ *fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o'z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta'minlash maqsadida axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;*

✓ *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;*

✓ *tazyiq va zo'ravonlik sodir etish xavfi bo'lgan guruhlariga mansub shaxslarga yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan oldini olish choralarini amalga oshirish;*

✓ *tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishga va ularni himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;*

✓ *xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash;*

✓ *aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish.*

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlarni qo'llash uchun quyidagilar asos bo'ladi:

✓ *tazyiq va zo'ravonlik qurbonining murojaati;*

✓ *jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari;*

✓ *tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish faktlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi;*

✓ *davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan kelib tushgan materiallar.*

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

✓ *profilaktika suhbatini o‘tkazish;*

✓ *himoya orderini berish;*

✓ *tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazlarga joylashtirish;*

✓ *zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturlaridan o‘tish (Qonuning 22-moddasi).*

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zo‘ravonlik va tazyiqning oldini olish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

✓ *fuqarolarga zo‘ravonlik faktlari haqida yoki o‘ziga nisbatan tahdid va tajovuzlar sodir etish holatlari yuzaga kelganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;*

✓ *nizoli holatlar hamda fuqarolarning g‘ayriijtimoiy xulq-atvori va xatti-harakatlariga nisbatan loqayd bo‘lmaslik;*

✓ *sog‘liqni saqlash muassasalariga murojaat qilish va birinchi tibbiy yordam olishni ta‘minlash;*

✓ *zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni vaqtincha xavfsiz joyda (reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida yoki ota-ona yoxud boshqa qarindosh-urug‘lar oldida) bo‘lishlari uchun ularga qisqa raqamli “1146” - ishonch telefoniga murojaat etish mumkinligi va mavjud muammoga tegishli yechim olishi haqida tushuntirish;*

✓ *oiladagi nizoli vaziyatlarni ijobiy hal qilish, oila a‘zolari o‘rtasida buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklash va boshqa oilaviy masalalar yuzasidan psixologik yoki huquqiy maslahat olish;*

✓ **zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning xulq-atvorini jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilish, unga nisbatan ta’sir choralari qo‘llash maqsadida tegishli vakolatli organlarga murojaat qilishni doimiy ravishda o‘rgatib borish lozim.**



Quyidagilar ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

- ***o‘z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni hamda jamiyatdagi va oiladagi ma’naviy-axloqiy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa holatlarni ko‘zg‘ata oladigan oilaviy va shaxslararo nizolarning, depressiv vaziyatlarning erta oldini olish, shuningdek, ushbu jarayonda keng jamoatchilik ishtirok etishini ta’minlash;***

- ***ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish tizimini yo‘lga qo‘yishda, yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni, birinchi navbatda oilaviy-maishiy nizoli vaziyatlarni hal qilishda davlat organlarining o‘zaro hamkorligini, shu jumladan fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik tizimini shakllantirish;***

- ***nizoli vaziyatlarning erta oldini olishga, eng avvalo, “xavf ostidagi guruh”da bo‘lgan shaxslar va oilalarni aniq maqsadda qo‘llab-***

quvvatlash orqali ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish tizimini takomillashtirishga fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish;

- nizoli vaziyatlar, shu jumladan oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatish sabablarini, o'z joniga qasd qilish kayfiyatini qo'zg'atadigan omillarni aniqlash hamda o'rganish, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;**

- jamiyatda oilaviy-maishiy tUSDagi zo'rlik ishlatishning har qanday ko'rinishiga nisbatan, birinchi navbatda, yaqin qarindoshlar tomonidan murosasiz munosabat muhitini, shu jumladan jazo muqarrarligini ta'minlash, og'ir ijtimoiy ahvoldagi shaxslarni qo'llab-quvvatlash orqali qaror toptirish;**

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, oilaviy va shaxslararo munosabatlar sohasida qonuniylikni mustahkamlash, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish jarayonlariga daxldorlik hissini kuchaytirish.**

Muomalaning barchaga daxldor bo'lgani hilm haqida so'z ochish mohiyatlidir. Bu haqda Abdulla Avloniy shunday yozadi: "Hilm deb bo'lar-bo'lmas ishga achchig'lanmaydurgan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo'lmoqni aytilur. Hilm insonlarning tab'idan xusumat, adovat, g'azab, hiddat kabi yomon xulqlarni yo'q qiladurgan har kimcha maqbul bir sifatdur. Hilm ilmi axloq yuzasidan insonga eng kerakli narsadur".

Halimtabiatlilik muloyimlikdir. Jahl qilish, g'azablanish ularga yot bo'lishidan tashqari, fikrini bosiqlik, vazminlik bilan yetkazuvchi kishilardir. Jahlning jilovi shaytonning qo'lida. Halimtabiat inson o'zgani emas, o'zini yenga olgan kishi mard hisoblaydi. Bu ularning shiori. Demak, insonlararo muomalada chin inson bo'lmak uchun havasning qo'lga nafsning jilovini bermaydirgan, bo'lar-bo'lmas narsalardan achchig'lanmaydurgan, sovuqqonli, yumshoq tabiatli, muloyim so'zli, halim va sabrli bo'lmak lozimligi uqtiriladi. Shuning uchun ham hadisi shariflardan birida "Hilm xulqlarning sayyididir" deyiladi.

“Shiddat ila muomala qilgan kishilarga man viqor va halimlik ila muqobila qilurman, chunki hilm, shiddatni, xusumatni past qilur. Lekin kishini ojiz va xorlik darajasiga tushuradurgan halimlikdan man bezor”.

Suqrot hakim

Ma’rifatli, ma’naviyati yuksak bo’lgan insonlar muomala madaniyatida ko’pchilikka ibrat bo’la oladi. Xushmuomalalik, xushfe’llik, beozorlik, muloyimlik, hayo-ibolilik ularning husniga husn, obro’siga obro’ qo’shgan.

“Vafosizda hayo yo’q, hayosizda vafo yo’q”.

Alisher Navoiy

Beandishalilik, befahmlik, befarosatlik esa kishini aqldan, hayodan judo qiladi. Sharq odobnomasida qayerga borish, qanday so’rashish, qayerda o’tirish, qanday so’zlash, kimlarning suhbatida bo’lish muomala madaniyatining mezonlari sifatida ko’p bor tilga olingan.

“Shirin so’zli shilgay dushman po’stini, dag’al so’zli dushman qilgay do’stini”.

Sa’diy Sheroziy

Jon ozig’i ham, qozig’i ham, yaxshi so’z bilan ilon inidan, yomon so’z bilan pichoq qinidan chiqishi borasidagi dono xalqimizning untirishlari zamirida ham muomala madaniyati mavjudligini inkor etib bo’lmaydi. Sharqona lutf, sharqona tavoze’dan bexabarlik insonning ne kuylarga solmaydi.

Dunyo go’zallik qonuniyatlariga binoan qurilarkan, demak, insonning xulqi va nutqi ham, ko’rinishi va kiyinishi ham, munosabati va muloqoti ham go’zal bo’lishi maqsadga muvofiq. Xalqimizning **“O’zingga qarab kutarlar, so’zingga qarab kuzatarlar”** - degan o’giti bejiz emas. **“Til yarasi bitmas,**

tig' yarasi bitar" - deganida ham inson uchun zarur bo'lgan muomala jarayoniga e'tibor zaruriyatini sezish qiyin emas.

Shaxs ma'naviyatining uzviy bir bo'lagi muomala madaniyati bo'lsa, xulq-atvor, odob-axloq, nutqiy faoliyat tushunchalari uning zahiriga kiradi. Asrlar osha har bir xalqqa xos bo'lgan, milliy-ma'naviy qadriyatlar yuksak madaniyat ramziga aylangan urf-odatlar, yurish-turish, yashash tarzi barchasi kishi shaxsiyatida aks etishi tabiiy.

Ota-onaning vazifasi farzandini dunyoga keltirishdangina iborat emas. Ular o'z farzandlarini aqlli, es-hushli, jismonan sog'lom, diyonatli, e'tiqodli, jamiyat va Vatanga foydasi tegadigan insonlar qilib tarbiyalash haqida qayg'urishlari kerak. Farzand tarbiyasida dinimiz belgilab qo'ygan muhim qoidalaridan yana biri bolani yoshligidan jamiyat orasida o'zini chiroyli tutish, barchaga barobar samimiy, kamtarin kabi odoblarga o'rgatishdir. Farzand ulg'ayib, insonlar bilan o'zaro muomalaga kirishar ekan, jamiyat orasida insonni hurmatga sazovor qiladigan umumiy odoblar borki, bularsiz sog'lom jamiyatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ovqatlanish, salomlashish, ruxsat so'rash, majlis, so'zlashish, hazil-mutoyiba, kasal ko'rish, ta'ziya bildirish, aksa urish va esnash, mehmondorchilik va shu kabi ijtimoiy odoblarni har bir kishi bilishi va ularga rioya etishi lozim. Bu borada Payg'ambarimiz (s.a.v.) har bir narsaning odobini ko'rsatib berganlar. Sahobalar Rasululloh (s.a.v.)dan: **"Insonga ato qilingan eng yaxshi narsa nima?" deb so'rashganda, "Go'zal xulq", deb javob berdilar. Boshqa bir hadisda: "Payg'ambar qilib yuborilishimning boisi go'zal axloqni takomiliga yetkazishdan iboratdir"** dedilar. (Imom Molik rivoyati).

Quyida muomala odoblarini keltirib o'tamiz:

✓ *Odamlar orasida o'tirganda tipirchilamaydi, barmoqlarini bir-birining ichiga kiritmaydi, soqolini va uzugini o'ynamaydi, tishlarini kovlamaydi, barmoqlarini burniga tiqmaydi, tuflamaydi, hadeb tomoq qiravermaydi.*

✓ Majlisda sokinlik bilan o'tiradi, shoshilmasdan, tartibli va aniq gapiradi. So'zlovchining gapiga diqqat bilan quloq osadi, uning gapidan o'ta ajablanib ketganini izhor qilmaydi, gapini takrorlashini so'ramaydi.

✓ Bema'ni gaplarni gapirmaydi. O'zining bolasi, xodimi, she'rigi kabi shaxsiy narsalarini maqtamaydi.

✓ Kiyinish borasida yasanishga o'ch bo'lmaydi. Shuningdek, o'ta past darajada kiyinmaydi. Xushbo'ylik ishlatishda haddidan oshmaydi.

✓ Hojatini chiqarishda o'zini pastga uradigan darajada o'ta yalinchoq bo'lmaydi. Hech kimni zulmga chorlamaydi.

✓ Molining miqdorini birovga bildirmaydi. Chunki boshqalar molning ozligini bilsalar, past sanashlari, agar ko'pligini bilsalar, ta'ma qilishlari mumkin.

✓ Kishilar huzuridagi viqori qo'pollik, muloyimligi zaiflik darajasiga yetishiga yo'l qo'ymaydi. O'zidan past darajadagilar bilan hazillashmaydi. Chunki bu narsa uning viqorini tushiradi.

✓ Biror kishi bilan tortishib qolganda viqor bilan turadi. Jahlni chetga suradi, shoshilmaydi. Hujjatini yaxshilab o'ylab olib, keyin gapiradi. Qo'lini ko'p siltamaydi. Achchig'idan tushgandan keyin ohista gapiradi.

✓ Mansabdor shaxs uni o'ziga yaqin olsa, u bilan xuddi nayzaning uchida turgandek, ehtiyotkorlik ila muomalada bo'ladi. U moyil bo'lganda ish ziddiga aylanib qolishi ham mumkinligini unutmaydi. Unga xuddi yosh bolaga muloyimlik ko'rsatgandek muomalada bo'ladi. Ma'suliyat aralashtirmasdan, unga yoqadigan gaplarni gapiradi. Faqat xursandchiliklarda do'st bo'ladiganlardan ehtiyot bo'ladi. Chunki unday kishilar dushmanlarning dushmani bo'ladi. Musulmon kishi molini obro'sidan ustun qo'ymaydi.

✓ Majlisga kirganda avval salom beradi va o'tirganlarning orasini yorib o'tmaydi. Qayerda bo'sh joy bo'lsa, o'sha yerga o'tiradi. Tavoze' ko'rsatadi. O'tirayotib, o'ziga yaqin joydagilar bilan alohida so'rashadi.

✓ *Yo'l ustida o'tirmaydi. Agar o'tirishga muhtoj bo'lib qolsa, ko'zni tiyish, mazlumga, zaifga va falokatga uchraganga yordam berish, adashganga yo'l ko'rsatish, salomga alik olish, tilanchiga ato berish, lozim bo'lganda amri ma'ruf, nahyi munkar qilish kabi yo'l odobini joyiga qo'yadi.*

✓ *Ulug' va sharafli kishilarning suhbatida o'tirganda g'iybat va yolg'ondan mutlaqo chetda bo'ladi. Sirlarni saqlaydi. Hojatini ko'p gapirmaydi. So'zlarni tanlab, ehtiyot bo'lib gapiradi. Doimo hushyor bo'lib o'tiradi.*

✓ *Oddiy odamlar bilan o'tirganda ularning gapiga sho'ng'ib ketmaydi. Ularning mish-mish va uydirmalariga unchalik e'tibor bermaydi. Beodoblik bilan aytgan lafzlariga nisbatan o'zini bilmaganga soladi.*

✓ *Mazahdan ehtiyot bo'ladi. Aqlli odamni mazah qilsa, hudbinlikka sabab bo'ladi. Esipastni mazah qilsa, u bilan teng bo'ladi. Mazah haybatni ketkazadi va yuzni shuvut qiladi. Shuningdek, u do'stlik halovatining ketishiga sabab bo'ladi.*

 **Topshiriq. “Oilangizda nizolar mavjudmi” javob bering va tahlil qiling.**

1. Siz uchun muhimi nima?

- A) nikohning o'zi, oilali kishi, deb hisoblash imkoniyati – 1 ball,
- B) turmush o'rtog'isiz, nikohsiz hayot yomon bo'lmas edi – 0 ball.

2. Nikohga yengil qarab, uni kattalarning o'yiniga o'xshaydi, deb hisoblaysizmi?

- A) ha – 1 ball,
- B) yo'q – 0 ball.

3. Ota-onangizga moddiy bog'langanmisiz?

- A) ha – 1 ball,
- B) yo'q – 0 ball.

4. Sizlarning nikoh va hayotiy kutishlar borasidagi qarashlaringiz mos tushadimi?

- A) ha – 0 ball,
- B) yo‘q – 1 ball.

5. Oila turmush tarzi, maishiy-xo‘jalik sohasi haqidagi tasavvurlaringiz turmush o‘rtog‘ingiz, hamda boshqa oila a‘zolari bilan bir xilmi?

- A) ha – 0 ball,
- B) yo‘q – 1 ball.

6. Munosabatlarni oydinlashtirishda nizo va kelishmovchiliklar tez-tez bo‘lib turadimi?

- A) ha – 1 ball,
- B) yo‘q – 0 ball.

7. Sizlarning umumiy qiziqishlaringiz, qarashlaringiz, mashg‘ulot-laringiz mavjudmi?

- A) ha – 0 ball,
- B) yo‘q – 1 ball.

8. Bolalaringiz nechta?

- A) 2 ta va undan ortiq – 0 ball,
- B) 2 tadan kam – 1 ball.

9. Bolalaringiz tarbiyasi qanday?

- A) yuqori – 0 ball,
- B) o‘rtacha yoki past – 1 ball.

Olingan ma‘lumotlar tahlili:

0 dan – 2 gacha. Ajralish sizning oilangizga xavf solgani yo‘q. Mustahkam oila qurish, qiyinchiliklarni yengish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Oddiy tortishuvlar o‘zaro munosabatlaringizga ta’sir ko‘rsatmaydi.

3 dan – 5 gacha. Sizning munosabatlaringiz taranglik chegarasida. Siz turmush o‘rtog‘ingizdan doim mamnun emassiz. Siz har doim ham o‘zingizni tuta bilmaysiz, qo‘lga ololmaysiz. Bunday vaziyatlar ajralish xavfini tug‘diradi. Bunday holatlardan uzoqlashing. Oilaviy hayotingiz ayrim hollarda zerikarli

tuyulsa ham, siz undan qoniqasiz. Sizning o‘zaro munosabatlaringizda muloqot madaniyatiga e’tibor bering. Bir-biringizga g‘amxo‘rlik ko‘rsating, yon bosishga o‘rganing.

6 dan – 9 gacha. Oilangizda ajralish vaziyati yuzaga kelgan. Oilaviy burchlarni taqsimlanishini haqiqat nuqtai-nazardan ko‘rib chiqish, muammolarni bartaraf etish zarur. Oiladagi muloqot jarayonini o‘zgartirishga e’tibor bering, er va xotin har biringiz o‘zingiz uchun hayotiy qoniqmaslik sababini, turmush o‘rtog‘ingizni hayotdan qoniqmaslik sabablarini, imkoniyatlarini o‘rganib chiqish zarur. Bir-biringizga nazokatli, diqqat-e’tiborli, yumshoq, yaxshi niyat bilan murojaat qiling. O‘z navbatida bir-biringizga kamroq tanbeh bering. Er-xotinni bir-biri bilan bog‘laydigan, biriktiradigan xususiyatlarga ko‘proq intiling.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘RQ-561-son Qonunining nechanchi moddasida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo‘yishning umumiy chora-tadbirlari belgilab berilgan.

A) 15-moddasida

B) 25-moddasida

D) 32-moddasida

E) 45-moddasida

2. Zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni vaqtincha xavfsiz joyda (reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida yoki ota-ona yoxud boshqa qarindosh-urug‘lar oldida) bo‘lishlari uchun ularga qisqa raqamli “.....” - ishonch telefoniga murojaat etishlari mumkin., bu qaysi raqam?

A) 107

B) 103

D) 1146

E) 101

10-MAVZU: OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI: SOG‘LOM MUNOSABATLAR – SOG‘LOM OILA ASOSIDIR.

Reja:

1. Oiladagi shaxslararo munosabatlar.
2. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning psixologik aspektlari.
3. Sog‘lom munosabatlar – sog‘lom oila asosidir.

Tayanch iboralar: Oilaviy munosabatlar, sog‘lom oila, shaxs, psixologiya, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, er-xotin, farzand, tarbiya.

Shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-psixologik va psixologik muhitni optimal ta‘minlashga xizmat qiluvchi asosiy mehanizm hisoblanadi. Bugungi kunda oilalarda kutilayotgan psixologik inqirozlar shaxs kamoloti, shaxslararo munosabatlar ulardagi ijtimoiy muhit, qadriyatlar buzilishi bilan bog‘liqdir. Oiladagi shaxslararo munosabatlarda er-xotin, ota-ona bilan farzandlar, kelin bilan qaynona-qaynota, kelin bilan qaynaka, qaynuka, qaynopa, qaynsingil va boshqa yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi munosabat jarayonlarini kuzatish mumkin. Oila mustahkamligi nizoli vaziyatlardan xoli bo‘lishi, uning a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va e‘zozning shakllanishi qanday omillarga bog‘liq?



Shaxslararo munosabatlar “sub’ekt-sub’ekt” bilan bir qatorda “sub’ekt-guruh”, “Men-biz” tizimda namoyon bo’lishi ma’lum.

Bola tajribasining asoslaridan biri undagi ota-ona oilasi ta’sirida shakllanadigan ijtimoiy fe’l-atvordir. Ya’ni, o’zaro ishonch, o’zini-o’zi baholash, men-konsepsiyasi ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari ta’sirida bola ongida shakllanadigan hislatlardir. Bola ota-onasining o’zaro muloqotlariga qarab, umri mobaynida kuzatib, bilib-bilmay ularga taqlid qilib, tinchlik-xotirjamlikda, o’zaro hamjihatlikda yashashga o’rgansa, aka-uka, opa-singillariga qarab, jamiyatdagi murakkab o’zaro muomala holatlarida o’zini qanday tutishga o’rganadi, hayotning ma’nosini tushunib boradi, dunyoqarashi, dunyoviy hamda diniy e’tiqodlarining shakllanishi ham ayni shu munosabatlar ta’sirida ro’y beradi.

Er-xotin munosabatlari avvalo adaptatsiya, ya’ni bir-biriga asta-sekin ko’nikib, moslashib borish jarayonidan boshlanadi, zero, ularning har biri yangi muhitga, yangi ro’zg’orga o’z oilasida orttirgan shaxsiy tajribasi, oila to’g’risidagi ijtimoiy tasavvurlari bilan kirib keladi.

Natijada ota-onasi oilasida olgan tajribaning bir qismidan voz kechgani holda, yangi munosabatlar uchun yangi fazilatlarni o’zida tarbiyalay boshlaydi. Oila qurmoq bu o’zini boshqa birovga ishonib topshirmoqdir. Erkaklarga ishonmaslik, “Erkak zotining hammasi bir ...” degan gaplarni shior qilib olgan ayolning hech qachon bu borada omadi kelmaydi, chunki u magnitdek bo’lmag’ur erkaklarni tortadi, natijada ishonch e’tiqod darajasiga chiqadi va undan baxtsiz ayol taqdiri bitiladi.

Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o’ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashar tarixi shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota - onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand ehtiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g’amxo’rlik ko’rsatishgacha bo’lgan munosabatlarga aylangan. Ota - ona - bola munosabatlarini agar tarixiy

davrlarga bo'ladigan bo'lsak, ota-onaning bolaga yondoshuv usullari bo'yicha qator bosqichlarni boshdan kechirganligini ko'rish mumkin.

Olimlarning tavsiflashicha, antik davrlarda erkak va ayol aloqalari oqibatida farzand tug'lsa, unga deyarli befarq qarash, ya'ni, infantitsid munosabat kuzatilgan, bunday munosabat mohiyatan shafqatsizlikka asoslangan bo'lib, bolani dunyoga keltirganlar uchun uning nasl-nasabi, taqdiri unchalik ahamiyatli bo'lmagan. Yangi asrga kelib, bu munosabatlar tubdan o'zgargan, odam zotida egoizm, o'ziga tegishli narsaga nisbatan egalik hissining takomillashib borishi o'zidan bo'lgan zurriyodga nisbatan munosabatlarda ham o'z aksini topgan.



Mulkchilik shakllarining o'zgarishi, turmush tarzi qadriyatlariga monand kattalarning bolaga nisbatan his-kechinmalari ham o'zgarib borgan. Masalan, XIX asrning boshlari XX asrlarning o'rtalariga kelib, ota-onalar farzandlarining jamiyatda tutajak o'rinlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa kattalarning kichiklar taqdiriga befarq emasligi, ularni qo'llab-quvvatlash, rivojlanishiga ko'maklashishning ahamiyatini anglash davri bo'lgan. Bu an'ana deyarli bizning davrimizda ham davom etib kelmoqdaki, endilikda tug'ilgan bolaga e'tibor oilaning barcha qadriyatlaridan ustun ham keladi.

Lekin bunday g'amxo'rlik psixologiyasi ham madaniy-tarixiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, ayrim xalqlar (aksariyat Yevropa xalqlari) bolaga u kichikligida juda katta mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-ona tomonidan beriladigan

tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlashadi. Boshqa bir madaniy-etnik hududlarda, aksincha, farzand balog'atga yetgani sari ota-onaning unga e'tibori kuchayadi.

Psixolog olimlar M.Fayziyeva va A. Jabborovlarning tadqiqotlari natijasiga ko'ra, oiladagi shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashicha

- ✓ *er-xotin o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi (96%),*
- ✓ *a'zolarining bir-birini yaxshi tushunishlari (95%),*
- ✓ *farzandlar (95%),*
- ✓ *muomala odobi (93%),*
- ✓ *uning moddiy ta'minlanganligi (92%),*
- ✓ *a'zolarining onglilik va ma'naviy-axloqiy mavqei (92%),*
- ✓ *unda rollar taqsimotining o'rinliligi (80%),*
- ✓ *jinsiy moslik (74%), uy-joy bilan ta'minlanganlik (72%) muhim omillar hisoblanadi.*


Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda ham oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik yoshdagi rivojlanish xususiyatlariga tabiiy holatday qarab, juda katta qayg'urish bilan uning ma'naviy, ruhiy rivojlanishiga e'tibor qaratilmaydi. Lekin qiz bola balog'atga yetib, ko'rkamlashib borgani sari, o'g'il bolaning qo'lidan ish kelib, qatorga qo'shilgani sari, ota-onada ulardan g'ururlanish, taqdiriga kuyunish, g'amxo'rlik ko'rsatish ham ortib boradi. Bunday g'amxo'rlik shu qadarki, uylangan o'g'ilning qadam bosishlarini ham hamon ota-ona nazorat qilaveradi, bu ba'zan, qaynona-kelin munosabatlarida, yoki ota-o'g'il munosabatlarida tarangliklarni, nizolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan davrlarda tabiiy, ota-ona farzandlarini tug'ish, tarbiya qilish va jamiyatga tayyorlashda o'ziga xos metodlarni qo'llagan. Boshida o'zidan ajratishni, hayotga tayyorlashni ham bilmagan ota-ona bora-bora bolani jamiyatda ijtimoiylashuviga ahamiyat ortib borgan. O'z o'rnida, ota-onadagi egoizm shu darajaga etib borganki, hozirgi davrda ko'pgina ota-

onalar farzandlarining faqat o'zini o'ylashi, ota-onani tushunmasligidan noliydigan ham bo'lib qolgan. Lekin aslida tarixiy rivojlanish tendensiyalariga e'tibor berilsa, bunga faqat ota-onalarning o'zlari aybdordirlar.


Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.



Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi

asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sogʻlom maʼnaviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol boʻlib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.



1. **Ijtimoiy** - davlatning oila-nikoh sohasida siyosatini, oilaviy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini, ota-ona va er-xotin munosabatlarining ijtimoiy rollarini bajarishga oid bilim va koʻnikmalarni rivojlantirish.

2. **Maʼnaviy-ahloqiy** - shaxsning maʼnaviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirish, boshqa jins vakiliga hurmat-eʼtibor, doʻstlik, ota-onaga ehtirom, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, ijobiy ota-onalik koʻnikmalari, masʼuliyat, sadoqat, sabr-qanoat, mehr, hurmat tushunchalarini shakllantirish.

3. **Huquqiy** – oila va nikoh sohasidagi milliy qonunchilik, oila huquqi asoslari, milliy qadriyatlarimizdagi oila, nikoh, farzand tarbiyasi masalalariga oid bilimlarni rivojlantirish, er-xotinning burchi va masʼuliyati, ota-onaning farzand oldidagi burchi va masʼuliyatini anglatish.

4. **Psixologik** - oilada shaxslararo munosabatlar, nikoh va oilaviy hayotning psixologik asoslari, tolerantlik, muloqot koʻnikmalarini tarkib toptirish.

5. **Fiziologik** - ayol va erkak organizmining fiziologik xususiyatlari, jinsiy hayot asoslari, shaxsiy gigiena madaniyatiga doir bilimlarni shakllantirish.

6. **Tarbiyaviy** - oilaning tarbiyaviy salohiyati, farzand tarbiyasi asoslari, ota-onalarning farzandlarni tarbiya qilish ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish, pedagogik madaniyatni oshirish.

7. **Iqtisodiy** - xo'jalik, oila byudjeti haqida tushunchalar, turmush madaniyati, oila xo'jaligini yuritish, oilaning iqtisodiy asoslari, qanoat, sarf-harajat masalalariga doir bilim va kompetensiyalarni rivojlantirish.

 Topshiriq. Er-xotinning energofiziologik mutanosibligini o'rganish savollariga javob bering va tahlil qiling.

1. Sizning turmush o'rtog'ingiz bilan uyqu va bedorlik vaqtingiz bir xilmi? (biringiz uxlaganiigizda, biringiz uyg'oqsiz, biringiz vaqtli yotganingizda, biringiz uxlamaysiz).

2. Turmush o'rtog'im asabiylashganda yoki jaqli chiqqanda, men odatda uni yaxshi gap bilan yoki nimadir qilib tinchlantira olaman.

3. Biz turmush o'rtog'im bilan yaxshi kelishamiz.

4. Turmush o'rtog'im bilan biror ishni xar xil tezlikda bajarishimiz meni jaxlimni chiqaradi (men tez, u esa sekin bajarishi yoki aksi).

5. Turmush o'rtog'imning tez va ko'p ovqat iste'mol qilishi meni asabimga tegadi.

6. Ba'zan ovqat tanlashimizdagi farq oilaviy nizoga sabab bo'ladi.

7. Tez-tez men xursand bo'lganimda turmush o'rtog'im qafa bo'ladigai yoki aksincha bo'ladigan xollar tez-tez bo'lib turadi.

8. Uyquga ketishim va to'yib uxlab olishimga turmush o'rtog'im ko'pincha qalaqit beradi.

9. Turmush o'rtog'im bilan temperamentimiz juda mos.

10. Jinsiy aloqa bizning munosabatlarimizga ijobiy ta'sir etadi.

11. Jinsiy xayotda -turmush o'rtog'im meni to'la qanoatlantiradi.

12. Turmush o'rtog'imni jinsiy aloqada qoniqtirishni bilaman.

13. Jinsiy munosabat eqtiyoj aloqaga moyillik ikkalamizda qam bir vaqtda paydo bo'ladi.

14. Bizdan birimiz vannada dush qabul qilishini yoqtirsak, boshqamiz aksincha.

15. Biz odatda nizolarni tez va oson bartaraf etamiz.

16. Jaqlim chiqqanda yoki asabiylashganimda turmush o'rtog'im meni tezda tinchlantira oladi.

17. Men o'zimni yo'qotib qo'yganimda turmush o'rtog'im o'zini boshqara oladi, turmush o'rtog'imda shunday xol yuz berganida, men o'zimni tuta bilaman.

18. Umuman bizning oilaviy qayotimiz tinchlik va o'zaro tushunishda utayapti.

19. Men uy ishlarini qilayotgan vaqtimda turmush o'rtog'imning dam olib o'tirishi meni juda jaqlimni chikaradi.

20. Agar turmush o'rtog'im menga "zaxrini sochsa" uni kechiraman.

21. Bizning kayfiyatimiz bir-biriga bog'liq qolda o'zgaradi: birimizning kayfiyatimiz yomon bo'lsa ikkinchimizning qam kayfiyatimiz tushadi.

22. Fasllar bizning kayfiyatimizga deyarli bir qil ta'sir qiladi.

23. Biizning turmush o'rtog'imiz bilan organizmimiz bir biriga juda o'xshash – bir xil reaksiya, hissiyot, jismoniy ehtiyojlar.

24. Turmush o'rtog'im menga tez-tez dakki berib turadi. Qattiq chaynama, sekinroq nafas ol, oyog'ingni chalkashtirma, oyog'ingni sudrab yurma.

Olingan ma'lumotlar taqlili

Turmush o'rtoqlarning energojismoniy moslikning ko'rsatkichi javoblarning summasi bo'yicha aniqlanadi, kalitga mos tushuvchi, "ha" – 2, 3, 9, 10, 11, 12, 13, 15, 16, 17, 18, 20, 21, 22, 23; "yo'k" -: 1, 4, 5, 6, 7, 8, 14, 19, 24, qar bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi.

Natijalar taqlili: 0 dan 24 gacha bo'lgan oraliqda energofiziologik moslikni aniqlash mumkin. Ball qanchalik yuqori bo'lsa o'xshashlik yuqori bo'ladi. 0–8 ballgacha past darajada moslik, 9-12 noma'lum, 13-18 gacha nisbatan baland 19-24 gacha juda baland.

Nazorat savollari:

1. Oilada shaxslararo munosabatlarda kelishmovchiliklar va ziddiyatlarning shakllanishi necha turga bo'linadi?

A) 13 ta

B) 11 ta

D) 8 ta

E) 12 ta

2. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash nechta aspektlarni qamrab oladi?

A) 7 ta

B) 5 ta

D) 6 ta

E) 4 ta

11-MAVZU: DEVIATSIYA XULQ DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI. SUITSID PREVENSIYASI. AGAR AYOL SUITSID HOLATIGA TUSHGAN BO'LSA?

Reja:

1. Deviatziya xulq diagnostikasi va korreksiyasi.
2. Suitsid prevensiyasi.
3. O'z joniga qasd qilishga nima sabab bo'lmoqda?

Tayanch iboralar: Deviatziya, Suitsid, diagnostika, korreksiya, xulq, psixologiya, tarbiya.

Sog'lom muhit doimo insonlar ongida o'z chegara doirasiga ega bo'lib, chegaradan tashqi bo'lganlar "nome'yoriy", "potologik" deb belgilanadi. Amaliyotda inson anglagan yoki anglamagan holda o'zgalarni belgilariga muvofiq layoqatli yoki layoqatsiz deb baholaydi.

O'quvchi xulq (deviatziya, lot. deviatio - og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umumiy e'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan

me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.

Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda axloqiy jihatdan qarindosh – urug'lari va do'stlarining ko'nglini og'ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi.

Me'yor tushunchasi tibbiyotda, psixologiya, pedagogik, sotsiologiya va boshqa fanlarda keng qo'llanilib kelinadi. Bu tushunchaga aniq va yaxlit, yagona ta'rif berishga bo'lgan intilish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan. Masalan, faqatgina tibbiyotda olimlar 200 ga yaqin ta'rif berganlar. "Me'yor" tushunchasini ifodalab berishning murakkabligi shundaki, u nafaqat terminologik, balki mazmun, mohiyat jihatidan ham yagona ifodaga ega emas. Masalan, axloqiy me'yorlar doimo bir xil, hamma uchun deb belgilana olmaydi. Shu sababli ham ular birinchidan, milliy o'ziga xoslik, bundan tashqari vaqt o'tishi bilan qayta-qayta o'zgarib turadilar. AQShda II jahon urushidan so'ng ikki-uch o'n yilliklar mobaynida chekish odatiy "me'yoriy" hodisa hisoblangan bo'lib, unga jamiyatda bee'tibor bo'lganlar. Hozirda, jamiyat bu yomon, sog'liq uchun zararli odatga qarshi turgan bir vaqtda, chekishga axmoqona xulq belgisi sifatida munosabatda bo'ladilar.

Tibbiyot, psixologiya, sotsiologiyada me'yorning o'z ko'rsatkichlari, parametrlari (o'lchami), tavsifnomalari mavjud. Me'yorga muvofiq bo'lmagan holatlar barchasi boshqa so'z "me'yordan og'ishlik" deb yuritiladi.

Ijtimoiy pedagogikada "me'yor" va "me'yordan og'ishlik" tushunchalari juda muhimdir. Ular bolaning ijtimoiy xulq-atvori rivojlanish jarayonini xarakterlash uchun qo'llaniladi.

Xulqiy og'ishlik negativ va pozitiv xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, me'yordan xulqiy og'ishlik holati bola rivojlanishida ham aqliy norasolik va qobiliyatlilik bo'lib ifodalanishi mumkin.

Bola xulq-atvoridagi bunday negativ xulqiy og'ishlik jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar sifatida insonning (nafaqat insonning, balki jamiyatning) ijtimoiy shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulq-atvoriga

pozitiv og'ishlikka ijtimoiy ijodning barcha shakllari taalluqli bo'lib, ular: iqtisodiy tadbirkorlik, ilmiy va badiiy ijodkorlik va boshqalar, aksincha eski me'yorlar o'rniga almashuvchi ijtimoiy tizim rivojiga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

Me'yordan og'ishganlik tiplari

Me'yordan og'ishganlikni shartli ravishda to'rt guruhga bo'lish mumkin: jismoniy, psixik, pedagogik va ijtimoiy me'yordan jismoniy og'ishlik insonning sog'lig'i bilan bog'liq bo'lib, tibbiy ko'rsatkichlar orqali belgilanadi. U bolalarning yosh va jinsiy ko'rsatkichlari bilan (vazni, bo'y uzunligi, ko'krak kengligi va boshqalar) ifodalanadi. Ular bolaning sog'lig'ini xarakterlaydi. Aslida bular ideal ko'rsatkichlar bo'lib, bunday ko'rsatkichlarga to'la muvofiq keladigan bolani topish qiyin bo'lsa kerak.

Jismoniy	Psixik	Pedagogik	Ijtimoiy
• Kasallik; • ko'rishida nuqsonli; • eshitishda nuqsonli • harakat apparatidagi nuqsonlar	• psixik rivojlanishida ortda qolish; • aqliy zaiflik • nutqiy nuqson • emotsional-irodaviy nuqsonlar • iqtidorlilik	• umumiy ta'lim olishdan og'ishlik • kasbiy ta'lim egallashtirishdan og'ishlik	• etimlik • xulqiy og'ishlik: alkogolizm, toksikomaniya, giyohvandlik, buzuvchilik, qarovsizlik, daydilik, huquqbuzarlik, jinoyatchilik.

Jismoniy jihatdan me'yordan og'ishgan bolalarni ijtimoiylashtirish alohida qiyinchilik bilan amalga oshirilib maxsus ishlarni talab etadi. Sog'lig'i jihatidan me'yordan og'ishganlik biror kasallik asorati yoki avloddan-avlodga o'tuvchi omillar, ba'zan tashqi vaziyat orqali yuzaga kelishi mumkin. Masalan,

og'ir ekologik vaziyat, oziq-ovqat, ichimlik suvining sifatsizligi, oilaning umumiy yashash sharoitining og'irlashishi va boshqalar.

Xastalik – inson sog'lig'idagi har qanday yo'qotish, psixik yoki jismoniy funktsiya anatomik tuzilmasi elementlari, faoliyatdagi biror-bir qiyinchilikning aniqlanishidir.

1. Cheklangan imkoniyat – inson uchun me'yordagidek hisoblanadigan har qanday cheklanish yoki o'z faoliyatining yo'qolishi (nuqsonning ko'pligi yoki asorati) yoki inson faoliyati doirasidagi har qanday cheklanishlar.

2. Layoqatsizlik (nogironlik) – inson sog'lig'idagi nuqsonlar asorati yoki cheklangan imkoniyat, me'yoriy qaysidir rolning bajarilishiga to'siq bo'lgan, yosh ko'rsatkichlari, jinsiy yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqadigan holat.

Me'yordan psixik og'ishlik eng avval bolaning aqliy rivojlanishi, uning psixik nuqsonlari bilan bog'liq.

Bu guruhga eng avvalo psixik rivojlanishida to'xtalish (ZPR) bo'lgan bolalar va aqliy norasolar yoki oligofreniya (yunon tilidan, oligos – kichik va phren - aql) lar kiradi. Bolalarda turli darajali ruhiy xastaliklar uchraydi: yengil – debillik, chuqur – idiotiya. Shuningdek, psixik og'ishga nutqdagi nuqsonlilar, xissiy (emotsional) – irodaviy muhitdagi nuqsonlilar ham kiradi. Bu psixik og'ishlikning eng so'nggi shakli bo'lib, autizm (Yunon tilidan, autos- sam) – psixikaning holati, muloqotga ehtiyoji yo'qligi, odamoviligi bilan xarakterlanadi va o'z-o'zini o'ldirish, suitsitga moyil bo'ladi.

Pedagogik me'yordan og'ishlik. Bu shunday tushunchaki, hozircha pedagogika va ijtimoiy pedagogikada juda kam qo'llaniladi. Pedagogik me'yorlarda eng avvalo standartlar ko'zda tutiladi. Ular ta'lim darajalarini belgilab beradi. Ta'limni egallaganlik yoki egallay olmaganlik me'yordan og'ish me'yorlari haqida fikr yuritish mumkin. Pedagogik me'yorlar mamlakatda qabul qilingan umumiy ta'lim standartlar hisoblanadi. Bu standartlarga muvofiq ma'lum yoshdagi bola, shu davrga muvofiq darajadagi ta'limni o'zlashtirishi, o'rta ma'lumot (9-sinf)ni olishi va o'rta maxsus yoki kasb

ta'limini olgan bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997) ga muvofiq umumiy o'rta ta'lim (9-sinf) hamma uchun majburiydir. Shu baza asosida mustaqil ta'lim sifatida majburiy bo'lgan o'rta maxsus yoki kasb ta'limi o'qish muddati uch yil davomida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy me'yordan og'ishganlik tushunchasi "ijtimoiy me'yorlar" tushunchasi bilan bog'liq. Ijtimoiy me'yorlar – bu jamiyatning u yoki bu davrida, bosqichida maxsus o'rnatilgan hatti-harakat namunalari yoki yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan (ruxsat etiladigan yoki majburiy) qoidalaridir.

Umumiy qabul qilingan xulq-atvorga oid qoidalar o'z tarixiy rivojlanish yo'liga ega. Ular Qadimgi davrlardan ma'lumdir. Jamiyat doimo o'zini saqlab qolishga harakat qilgan. Shu maqsadda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda turli ijtimoiy cheklashlar: miflar, tabu (mann qilish), an'analar, diniy dogmalar (aqidalar) kiritilgan.

Insoniyat jamiyati doimo murakkablashib va takomillashib borgan. Vaqt o'tishi bilan yanada mustahkamroq huquqiy, ahloqiy me'yorlar vujudga kelib, insonlar xulq-atvoriga bo'lgan munosabatda u yoki bu jamiyatda qabul qilingan ahloq va hulqli me'yordan og'ish holatlari shakllanishiga qarshi me'yorlash yuzaga keldi.

Ijtimoiy me'yorlar ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Universal me'yorlar, jamiyatdan har bir insonga taalluqli me'yorlar.

2. Xususiy me'yorlar, insonlarni alohida belgilangan kasbiy faoliyatlari sohalari yoki insonlar hayotiy faoliyatlari (masalan, shifokor, pedagog, aka, do'st va boshqa) ga taalluqli me'yorlar.

O'smirlik yoshida deviatsiya (me'yordan og'ishlik) holatlari.
Deviatsiya tiplari.

O'smirlik davrini o'tish bosqichi deb ataydilar. Bolalar yosh ko'rsatkichlari davrida o'tish bosqichi eng qiyin va murakkab davrdir. Bu davrni yana shu sababli ham o'tish davri deb hisoblaydilarki, bu o'sish bosqichida inson bolalikdan kattalik davriga, bola xarakteridan, yetuk inson bo'lib shakllanadigan bir, o'ziga xos jarayonlar davriga o'tiladi.

O'smirlik yoshida o'smirning yaxlit hayoti va faoliyati jiddiy o'zgaradi va uning psixikasi qayta shakllanishiga olib keladi, o'z tengdoshlari bilan o'zaro faoliyatda, munosabatlarining yangi shakllari vujudga keladi. O'smirning jamiyatdagi mavqei, jamoadagi vaziyati, holati almashinadi, unga kattalar yuqoriroq talablar qo'ya boshlaydilar. Bu yosh davrida jinsiy yetilish faollashadi, biroq ijtimoiy shakllanishi orqada qoladi. Bu esa jinsiy tarbiyada ijtimoiy-psixologik muammolarni vujudga keltiradi.

O'smirlik yoshida bolada o'z-o'zini anglashga ehtiyoj paydo bo'ladi. "Men kimman?"- savoliga javob berish uni tez-tez bezovta qiladi. Unda o'z-o'ziga qiziqish paydo bo'ladi. U yoki bu faktlarga unda shaxsiy qarash, mulohaza yuritish, o'z bahosini berish kabi xususiyatlar shakllanadi. Bu yoshda vaqtinchalik oila va maktabdan psixologik uzoqlashish holatlari bo'lib turadi. O'smir shaxsining shakllanishida tengdoshlarining ta'siri kuchayib e'tibor maktab, oilaning ahamiyatiga kamaygandek bo'ladi. Ko'pincha, o'smir haqiqiy rasmiy jamoa va norasmiy guruh bilan muloqot qilishning qay biri afzal ekanligi to'g'risidagi tanlov oldida turadi. O'smir o'zini erkin seza-digan, uni hurmat qiladigan insonlar bo'lgan guruh va muhitni ko'proq xush ko'radi.

Bu yoshda ayrim o'smirlarning kattalar, ayniqsa ota-onalari bilan muammoli vaziyatda bo'ladigan. Ota-onalar ularga yosh bolaga, go'dak g'amxo'rlik qilgandek, munosabatda bo'lishni davom ettiradilar. O'smir esa bu sharoitdan chiqib ketishga intiladi. Shu sababli kattalar bilan o'zaro munosabatda janjalli vaziyatlar ko'payadi. O'smirda kattalik hissi shakllanadi. Bu yoshda o'smir mustaqil, erkin harakat qiladi, kattalarning "o'rgatish"lariga qarshi e'tiroz paydo bo'ladi.

O'smir bu yoshda (havas qiladigan insonni), ya'ni film qahramonlari, kuchli katta yoshdagi inson, ko'rsatuv qahramoni, mashhur sportchi va boshqalarga taqlid qilib: uning tashqi qiyofasi, xulq-atvoriga o'xshashlik uchun harakat qilishi holatlari ko'p uchraydi. Tashqi qiyofa o'smir uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ajoyib soch turmagi, ba'zan ikki yoki uch ziraklar, yirtiq jinsi, juda yorqin rangdagi kosmetika va boshqa vositalar o'smirda o'zini

boshqalardan ajralib turishiga imkon beradi hamda bolalar guruhlarida o'zini tan olishlariga harakat qiladi.

Shu tariqa, o'smirlik yoshida ajralib turadigan xarakter xususiyatlari haqida quyidagilarni aytish mumkin; hissiy noetuklik o'z shaxsiy xulq atvorini yetarli darajada nazorat qila olmaslik, o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va istaklarini taqqoslay olmasligi, yuqori ta'sirchanligi, o'zini tan olishlariga bo'lgan istaklari va kattalar kabi o'zini tutish. O'smir – bu yetarli darajada yetilmagan va yetuk aqlga ega bo'lmagan ijtimoiy inson. Bu bosqich bolalik va o'spirinlikning chegarasidir.

Deviatsiya tiplari

Me'yordan og'ish. Jamiyatda qabul qilingan qoida va xulq-atvor me'yorlaridan og'ishgan o'smirlar og'ir tarbiyalilar deb ataladi.

Og'ir tarbiyali o'smir jamiyatda o'rnatilgan qoida va me'yorlarga rioya qilmaydi. Bunday holat ilmda deviatesiya deyiladi (lotin tilida deviation - og'ishlik). Masalan, fizikada kompas magnit strelkasining og'ishi, biologiyada organizm rivojlanishida og'ishlik uchraydi.

Deviatsiya (og'ishlik) – bir tomondan uni o'rab turgan inson va atrof-muhitga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasidir. O'zgaruvchanlik ijtimoiy muhitda inson xulq-atvori bilan bog'liq. Ilgari aytib o'tilgandek, xulq me'yordagidek yoki og'ishgan bo'lishi mumkin.

Me'yoriy xulq. O'smirning rivojlanishidagi ehtiyojlari va imkoniyatlari, uning ijtimoiylashuviga to'la javob beruvchi, unga adekvat¹¹ monand keluvchi mikrosotsium bilan uning o'zaro faoliyatidir.

Deviant xulq-atvor-xulqiy og'ishganlikning bir turi bo'lib, o'smirning yoshiga muvofiq bo'lmagan ijtimoiy xulq-atvor me'yor va qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan mikrosotsium munosabatlar (oilaviy, maktabdagi) va kichik jinsiy yosh ijtimoiy guruhlar uchun xarakterli bo'ladi. Ya'ni xulq-atvorning bu tipini intizomsizlik deb atash mumkin. Deviant xulq-atvor ko'rinishlariga o'smirning namoyishkorlik, agressviliq, o'ziga erk berish, o'qish va mehnat faoliyatidan tizimli og'ishlik, uydan ketib qolish, daydilik,

¹¹ Adekvat – (lotincha adaequatus – tenglashgan)- tehg, monand, muvofiq keluvchi.

ichkilikbozlikka berilish, alkogolizmga berilish, giyohvandlik va u bilan bog'liq assotsial faoliyatlar, jinsiy xarakterdagi jamiyatga qarshi faoliyatlar, suitsid¹².

Delinkvent xulq-atvori – deviantlikdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning assotsial xulq-atvori bilan xarakterlanadi. Bu xulqiy harakatlarda huquqiy me'yorlarni bola buzib o'tsada, biroq huquqiy, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Sababi cheklangan ijtimoiy xavfli yoki bola jinoiy javobgarlikka tortilish yoshiga yetmagan hisoblanadi.

Delinkvent xulq-atvorda: asosan inson shaxsiga qarshi agressiv-zo'ravonlik xulqi, haqorat, janjalkashlik, o't qo'yish harakatlari ajralib turadi.

Delinkvent (lotin tilidan delinqveng-huquqbuzar)-xulqiy og'ishgan sub'ekt, o'z harakatlarida jinoiy jazolanadigan quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

- o'zaro xulq-atvor, o'zida mayda o'g'rilik, bosqinchilik, tilanchilik, avtotransportni o'g'irlash va boshqalarni amalga oshirib, moddiy manfaat ko'rinishning ilinjida mulkiy tajovuz qilishdan iborat.

- Giyohvand moddalarni tarqatish va sotish.

Kriminal (jinoiy) xulq-atvor (lotin tilidan, criminalis-jinoyatchilik) huquqbuzarlik harakati bo'lib, jinoiy javobgarlik yoshiga yetguncha, jinoiy ish ochishda asos bo'lib xizmat qiluvchi va jinoyat kodeksining belgilangan moddalari bilan asoslanadigan xulq-atvor.

O'smirlarda deviant xulq-atvor sabablari

Inson taraqqiyoti ko'pgina omillar o'zaro ta'siri bilan asoslanadi: irsiy avloddan-avlodga ot'uvchi, muhit, tarbiya, insonning shaxsiy amaliy faoliyati kabilarga bog'liq. Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini asoslovchi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Biologik omil. Bola organizmini noqulay fiziologik yoki anatomik xususiyatlari mavjud bo'lib, uni ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi.

Bularga:

¹² Cuitsid (inglizchada suicide – o'zini - o'zi o'ldirishi, kuchli ruhiy holatda yoki psixik kasallik ta'sirida insonning o'zini-o'zi o'ldirishi)

- genetik, avloddan avlodga o'tuvchi xususiyatlar. Ularga aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishda nuqsonli bo'lganlar, asab sistemasining buzilishi kabilar kiradi. Bunday bolalar hali ona qornidayoq noto'g'ri ovqatlanish, onaning ichkilikbozlik, chekishga ruju quyishi, onaning kasallanishi (jismoniy va psixik jarohatlar, surunkali yuqumli kasalliklari); irsiy kasalliklarning ta'siri, ayniqsa, irsiylik, alkogolizm ta'sirida bo'ladilar;

- inson organizmiga ta'sir etuvchi psixo-fiziologik og'ir tashvishlar, janjalli vaziyatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, energiyaning yangi turlari, somatik¹³, allergik kasalliklari turlari olib kelishiga sabab bo'ladi.

- fiziologik, o'z tarkibiga nutqdagi nuqsonli, tashqi qiyofadagi nuqsonlar, konstitutsion-somatik nuqsonlar sababli atrofdagilar bilan munosabatda negativ holatlarni yuzaga keltiradi va shaxslararo munosabatda bolaning o'z tengdoshlari, jamoa o'rtasidagi chekkaga chiqish, turtulishga olib keladi.

2. Psixik omil. Bola psixopatologiyasida yoki aksentuatsiya¹⁴sida (haddan tashqari zo'riqish) xarakterining alohida xususiyati bilan ifodalanadi. Bu hulqiy og'ishganlik bola asab-ruhiy kasalliklar psixopatiya, nevrosteniya bilan xastalanganligi orqali vujudga keladi. Aksentuirlashgan xarakter xususiyatiga ega bo'lgan bolalar turli psixologik ta'sirlarga o'ta sezgir, psixik me'yorning eng chetki turi bo'lib, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj va tarbiya xarakteridagi chora-tadbirlarning ko'rilishini talab etadigan bolalardir.

3. Ijtimoiy-pedagogik omillar. Oila, maktab va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'ladi. Bu omil bolani erta ijtimoiylashuvdan og'ishganlikka, bolalik davridayoq maktabda o'zlashtirmovchilik tufayli maktab bilan aloqaning uzilishi (pedagogik bo'sh qo'yishlikka) olib keladi. O'smirda maktabga bo'lgan ongli ravishda qiziqishning shakllanmasligi motiviga sabab bo'ladi. Bunday bolalar maktabga yomon tayyorlangan, uy vazifalariga negativ munosabatda bo'luvchi, maktab baholariga befarq bo'ladigan, o'quv dezadaptatsiyasiga uchrovchi bo'ladilar.

¹³ Somatik (Yunoncha Soma- tana) tana bilan boq'liq organizmdagi psixikaga qarama-qarshi bo'lgan holat.

¹⁴ Xarakter arsentyatsiyasi –xarakterning alohida xususiyatlarining o'ta kushli ifodalanishi quyidagi tiplari ajratiladi:
AX:1

Bular;

-o'quv dezadaptatsiya – bolaning maktabga bo'lgan umumiy qiziqishini saqlanishida bir yoki ikki fanni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelgan holatidir.

- maktab dezaptatsiya – bolaning yosh xususiyatida ta'lim olishidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda xulqiy buzilish holatlari o'qituvchilar, sinfdoshlari bilan janjalli vaziyatlar ko'rinishida o'ringa chiqadi. Dars qoldirish odatlari paydo bo'ladi.

- ijtimoiy dezadaptatsiya – bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi, maktab jamoasining talablariga javob berishdan qochish holatlari, turli asotsial jamoalarga kirib ketish, spirtli ichimliklarga, giyohvandlik moddalariga qiziqishining ortishi bilan namoyon bo'ladi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishidagi og'ishganlik omillarga yomon oilalar sabab bo'ladi. Shunday oilaviy o'zaro munosabatlar usullari mavjudki, ular voyaga yetmaganlarning quyidagi assotsial xulq-atvorining shakllanishiga olib boradi:

1. **Barqaror bo'lmagan, janjalli usul** noto'liq oilalarga tarbiyaviy ta'sir etuvchi, er-xotin ajralishi, ota-ona va bolalar uzoq muddat alohida yashashlari sababli yuzaga keladi.

2. **Munosabatlarning assotsial usuli** yomon tashkil etilgan oilalarda, doimiy spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlikka berilish, axloqsizlik, ota-onaning jinoyatchilik xulq-atvori, "oilaviy qahri qattqlik" va zo'rvonlik kabi illatlarda yuzaga keladi.

3. **Ijtimoiy-iqtisodiy omillar** ijtimoiy tengsizlikka sabab bo'ladi. Jamiyatni boy va kambag'allar, jamiyat uchun eng ahamiyatli aholining kambag'allashuvi, ishsizlik kabi qatlamlarga ajratadi. Ijtimoiy qabul qilingan halol ish haqqini (qonuniy) olish usullarining cheklanishi, inflyatsiya va ijtimoiy tartibbuzarlikka olib keladi.

4. **Axloqiy-ma'naviy omillar.** Hozirgi davrning jamiyatda bir tomondan ma'naviy axloqiy darajaning pasayishi bo'lsa, qadriyatli, birinch navbatda axloqiy xulqning buzilishi, boshqa tomondan, jamiyatning neytral

munosabatlarida deviant xulq-atvor munosabatlarida yuzaga kelishiga olib keladi.



Suitsid prevensiyasi.

O‘z joniga qasd qilish rasmiy tilda **suitsid** (lotincha. **sui caedere** — **o‘zini o‘ldirmoq**) deb ataladi. Mazkur muammo jahon sog‘liqni saqlash tarmog‘i uchun asosiy global fojia ekani ta’kidlanadi.

Tahlilchilarning so‘zlariga qaraganda, asosan 15 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan shaxslar o‘z joniga qasd qilar ekan. Shuningdek, 70 dan oshgan qariyalar ham bu dunyodan o‘z jonlariga qasd qilgan holda ketishga moyil bo‘lishar ekan. Erkaklar ayollarga nisbatan uch barobar ko‘p o‘z joniga qasd qilishadi. Har to‘rtidan bitta o‘z joniga qasd qilish holati qashshoq va rivojlanish yo‘liga o‘tgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. So‘nggi 45 yilda o‘z joniga qasd qiluvchilar soni jahonda 60%ga oshgani aytiladi.

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti bergan bayonotga qaraganda, har yili 800 mingdan ortiq kishi o‘z joniga qasd qiladi. Ya’ni har 40 daqiqada bir kishining o‘z joniga qasd qilishini anglatadi. Bu boradagi ilk hisobot yaqinda e’lon qilindi.

Har yili 10 sentyabrni jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish Xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for Suicide Prevention) bilan hamkorlikda Jahon o'z joniga qasd qilishlarning oldini olish kuni (World Suicide Prevention Day) sifatida nishonlaydi.

Tahlilchilar Sharqiy Yevropa mamlakatlari suitsid bo'yicha birinchi o'rinda ekanini aytishadi. Yaponiyada har yili 30 ming kishi o'z joniga qasd qiladi. O'z joniga qasd qiluvchilar Lotin Amerikasi va musulmon davlatlarida juda ham ozchilikni tashkil qiladi. So'nggi vaqtlarda Rossiyada o'z joniga qasd qiluvchilar soni yoshlar orasida ko'plab uchramoqda.



Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti nafaqat o'z joniga qasd qilish holatlarini to'xtatishga, balki hayotdan to'yib ketgan kishilarni davolashga e'tibor qaratish lozimligini aytib keladi.

O'smirlar asosan qashshoqlik, oila a'zolari yoki tengdoshlarining salbiy munosabati, rad etilgan sevgi, o'qishdagi o'zlashtirish pasayishi, bedavo kasallik, bolalikdagi zo'ravonliklar asorati, giyohvand va alkogol mahsulotlar iste'moli oqibatida o'z jonlariga qasd qiladi.

Bugungi kunda bir qator mamlakatlarda o'z joniga qasd qilishga uringan shaxslar jazoga tortiladi. Masalan, Hindistonda o'zini o'ldirishga uringan

shaxs bir yil ozodlikdan mahrum qilinadi yoki jarimaga tortiladi. Singapurda ham o'zini o'ldirishga uringan shaxslar bir yil qamoqda o'tirishga majbur.

OAV mutaxassislari uchun mo'ljallangan "O'z joniga qasd qilish prevensiyasi" (Jaxon sog'liqni saqlash tashkiloti, 2000-yil) nomli qo'llanmada "Zaif insonni o'z joniga qasd qilishiga turtki bo'luvchi juda ko'p omillar qatorida suitsid holatlarining ommaviy –axborot vositalarida keng yoritilishi bo'lishi mumkin", - deb ta'kidlanadi.



Yuqoridagilarni inobatga olib, o'z joniga qasd qilish, ayniqsa voyaga yetmaganlar orasida o'ziga va o'zgalarga zarar yetkazish hodisalari to'g'risidagi xabarlarni OAVda bayon qilish, shu kabi sahnalarni namoyish etish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqib, tasdiqlash va unga rioya qilinishini qat'iy nazorat qilish kerak.

O'z joniga qasd qilishga nima sabab bo'lmoqda?

Jahonda suitsid, ya'ni o'zini o'zi o'ldirish holati yuzaga kelishining bir qancha sabablari mavjud, ulardan eng asosiylari, javobgarlikdan, jazodan qutulish; oilaviy nizolar (ota-bola, qaynona-kelin o'rtasidagi kelishmovchiliklar); iqtisodiy inqirozlar (bankrotlik, qarzga botib ketish, ishsizlik); ishdagi (o'qishdagi) muammolar; baxtsiz (javobsiz) muhabbat, erning yoki xotinning xiyonati; hayotidan qoniqmaslik, zerikish, o'z o'rnini topolmaganlik, yolg'izlik; yaqin insonlaridan birining yoxud mashhur kushilarning o'limi; ruhiy holatning buzilishi, ruhiy xo'rlanish (nomusga tegish, kaltaklash kabi jismoniy zo'rliklar oqibatida); sog'liq bilan bog'liq muammolar, giyohvandlik, alkogolizm; diniy fanatizm kabi oqibatlar natijasida o'zini nochor, kasalmand, hech kimga keraksizdek his etish yoki o'z og'irligini yaqinlariga

solishni xohlamaslik yoxud o'z sha'ni, qadr-qimmati kamsitilishidan, sharmanda bo'lishdan, qoralanishdan qo'rqib o'zini o'zi o'ldirish holatlari vujudga kelishini kuzatish mumkin.



Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, tibbiy nuqtai nazardan o'z joniga qasd qilganlarning aksariyatiga ruhiy holatning kuchli buzilishi (depressiya) tashxisi qo'yilgan. Shunga muvofiq, Yaponiya davlatida birinchi navbatda bunday tashxis qo'yilgan bemorga tegishli davolash usullarini qo'llash uchun birinchi navbatda ruhiy holatni nima sababdan buzilganligini o'rganish muhim sanaladi.

O'zini o'zi o'ldirish bilan bir qatorda, o'zini o'zi qurbon qilish tushunchasi ham mavjud. Bu tushuncha ko'proq diniy mafkuralar bilan bog'liq bo'lib, bunda o'z jonini din uchun yoxud urush paytida Vatan uchun, xalq manfaatlarini ko'zlab o'zini o'zi fido qilish (shahid bo'lish) kabilar bilan bog'liq. Tarixga nazar tashlasak, suitsidning Xarakiri (Yaponiya) va Sati (Hindiston) kabi shakllarini ham kuzatishimiz mumkin.

Afsuski, hozirda o'zini boshqara olmaslik, o'ziga ishonchsizlik, sabrsizlik natijasida, ayniqsa, so'nggi o'n yil ichida yoshlar o'rtasida o'zini o'zi o'ldirish 3 barobarga o'sdi. Har yili 15-19 yoshlar atrofidagi o'smir, voyaga yetmaganlarning har o'n ikkinchisi o'z hayotiga qasd qilishga harakat qilib ko'rmoqda.



O'zini o'zi o'ldirgan ko'pchilik balog'at yoshida bo'lgan o'smirlar ko'p hollarda aynan o'zlarining ota-onasi, o'qituvchisi, o'rtoqlari umuman, u bilan tanish bo'lganlarning o'zlari bilmagan va xohlamagan holda jabrlanuvchiga nisbatan rahmsiz muomalada bo'lishi natijasida irodasi bo'shligi sababli shu darajaga kelib qoladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, erkaklarga nisbatan ayollarda o'zini o'zi o'ldirishga urinish holati ko'proq uchrab, bunda erkaklar ko'proq o'zini otish usulini, ayollar esa turli dori-darmon, toksik suyuq moddalar bilan o'zini zaharlash usulini qo'llaydi. Biroq erkaklar tanlagan usullar o'lim bilan yakunlanadi. Shuningdek, ko'pgina suitsidchilar o'lim oldi o'zlaridan so'nggi xat-yozishmalar, qaydnomalar yozib qoldirishlari kuzatilgan.

Ba'zida o'zini o'zi o'ldirish holatiga qurbon bo'lganning o'zi sabab bo'ladi, ya'ni jabrdiyda shaxsning o'zi harakat sub'ekti sifatida turadi. Shuni aytish joizki, o'zini o'zi o'ldirish to'g'risidagi umume'tirof etilgan fikrda aynan shu holat asosiy faktor hisoblanadi. Bunday harakatlarning ichki sabablari esa ushbu nuqtai nazardan ma'lum bir ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Qanday javobgarlik bor?

Jinoyat kodeksining 103-moddasida o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Bu moddaning qo'llanilishining zaruriy sharti o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish

darajasiga yetkazishga aybdor jabrlanuvchiga rahmsiz muomala qilgani yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitgani sabab bo'lganini aniqlash talab etiladi.

Ya'ni, shaxsni qo'rqitish, unga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yoki o'zini o'zi o'ldirishiga suiqasd qilish darajasiga yetkazish uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Afinada o'zini o'zi o'ldirishga Senat tomonidan ruxsat berilgan, qachonki, shaxsning hayoti chidab bo'lmaydigan darajada, deb baholansa va bu harakat qonuniy hisoblangan. Aksincha, bunday qilmishlar jamoa vakillari ishtirokisiz sodir etilsa, axloqsiz, deb topilgan.

Buyuk Britaniyada 2017-yil 22-fevralda zo'ravonlik va o'z joniga qasd qilishning oldini olish maqsadida "Oiladagi zo'ravonlik: Britaniya ko'zgu-sida" nomli qonuni qabul qilingan. Buyuk Britaniyada har hafta ikki ayol o'z turmush o'rtog'ining harakatlari sababli o'z joniga qasd qilgan. Buyuk Britaniyada qabul qilingan qonunchilikka ko'ra, eri tomonidan oiladagi zo'ravonlikdan jabrlangan ayol eri bilan ajrashishni talab qiladi. Agarda u eri bilan ajrashmasa, undan bolani homiylik va vasiylik organlari olib qo'yishi mumkin bo'ladi. Ushbu qonunlar esa, mavjud vaziyatni yanada og'irlashtirib, ko'pgina jinoyatlar ochilmay qolgan. Britaniyada ishonch telefonlari mavjud bo'lib, ular nafaqat ayollar va bolalarga, balki jabr ko'rgan erkaklar uchun ham faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari, AQShda 1991-yilda "Ayollarga qarshi zo'ravonlik ishlatishga qarshi kurash to'g'risida"gi, AQSh Kongressi tomonidan esa 1994-yilda "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish haqida"gi (the Violence Against Women Act) Qonuni qabul qilingan bo'lib, unning maqsadi ushbu toifadagi jinoyatlarning oldini olishdan iborat bo'lgan. Ushbu qonunga asosan, oiladagi zo'ravonlik qurbonlari uchun 1,5 mingta markazlar tashkil etilgan.

 **Topshiriq. Sizga oilaviy nizoni hal etish uchun maslahat kerak bo'lganda kimga murojaat etasiz? savollariga javob bering va tahlil qiling.**

1. Psixolog bilan maslahatlashaman.
2. Yaqinlarim bilan maslahatlashaman.
3. Qo'shnilarim bilan maslahatlashaman.
4. O'rtog'im bilan maslahatlashaman.
5. Hech kim bilan maslahatlashmayman. O'zim hal qilaman.
6. Boshqa javob yozing.

Nazorat savollari:

1. Me'yordan og'ishganlikni shartli ravishda to'rt guruhi ko'rsatilgan javobni toping?

A) Yuridik, psixik, pedagogik va maishiy

B) Fiziologik, psixik va ijtimoiy

D) Maishiy, psixik, yuridik va ijtimoiy

E) Jismoniy, psixik, pedagogik va ijtimoiy

2. Suitsid prevensiyasi deganda nimani tushunish mumkin?

A) O'z joniga qasd qilish rasmiy tilda **suitsid (lotincha. sui caedere — o'zini o'ldirmoq) deb ataladi.**

B) Birovning joniga qasd qilish rasmiy tilda **suitsid (inglizcha. sui caedere — o'zini o'ldirmoq)** deb ataladi.

D) O'z joniga qasd qilish orqali birovlariga jabr yetkazish rasmiy tilda **suitsid (nemissha. sui caedere - o'zini o'ldirmoq)** deb ataladi.

E) O'z joniga qasd qilish rasmiy tilda **suitsid (inglizcha. sui caedere - o'zini o'ldirmoq)** deb ataladi.

12-MAVZU: OILADA AJRIMLAR VA ULARNI OLDINI OLISH. AJRIM ETIKASI. AJRIMGA DOIR ISLOM QOIDALARI.

Reja:

1. Oilada ajrimlar va ularni oldini olish.
2. Ajrim etikasi.
3. Ajrimga doir islom qoidolari.

Tayanch iboralar: Oila, nikoh, farzand, ajrimlar, er-xotin, ta'lim-tarbiya, ota-ona.

2020-yil 9-dekabr kuni Senat raisi boshchiligida oilaviy ajrimlarning oldini olish, farzand ta'lim-tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, aliment tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oilada farzandlar qancha ko'p bo'lsa, ajralish xavfi shunchalik kamayadi. Shu bilan birga joriy yilda oila qurganlar soni o'tgan yilga nisbatan kamaygan.



Hozirda ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar soni **13 ming 188 tani**, noqonuniy nikoh asosida yashayotganlar **8996 tanini** tashkil qilmoqda.

“Ajrimlar natijasida joriy yilning o'zida respublika bo'yicha **11 ming** nafardan ortiq voyaga yetmagan bola ota yoki ona mehridan mahrum bo'lgan.

Oilaviy ajrimga oilaviy kelishmovchilik, farzandsizlik, uzoq muddat bir oila bo'lib yashamaslik, xiyonat, ichkilik va giyohvandlikka ruju qo'yish sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizdagi mavjud oilalarning **0,03 foizining** taqdiri ajralish bilan yakun topgan.

Yuzaga kelgan mazkur ajrimlar natijasida voyaga yetmagan bolalar ota yoki ona mehridan mahrum bo'lgan.

Oilalardagi ajrimlarga sabablar:



Xo'sh, oilalarni saqlab qolish, ajrimlarning oldini olish uchun qanday ta'sirli chora ko'rish lozim?

Birinchidan, nikoh qayd etilishidan avval yosh oila yashaydigan manzil aniq bo'lishi, ajrim yuz bergan holatda farzandlar va ayol turar joy bilan ta'minlanishi shart.

Ikkinchidan, nikoh qayd etilgach, ayol yuqorida ko'rsatilgan manzilga zudlik bilan ro'yxatga qo'yilishi kerak. (ortiqcha ovoragarchiliksiz, kelin familiyasi o'zgargani sababli yangi pasport olganda, doimiy ro'yxatga qo'yiladigan manzili ham o'zgartirilishi kerak).

Uchinchidan, bolalar uchun alimentlar majburiy undirilish mehanizmi joriy qilinishi lozim. Hozirgidek kam haq to'lanadigan ishga nomiga joylashib, eng kam miqdorda aliment hisoblash amaliyotidan voz kechish kerak. Aliment miqdori bolaning hayot kechirishi, ta'lim olishi uchun yetarli bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, ota-onasi tirik bo'la turib bolalar uyiga joylashtirilgan farzandlarga ota-onasi maxsus hisobga pul o'tkazishini joriy qilish shart.

Islom dinida ajrim qoidalari.

Nikoh va oilaga munosabat deganda dinimizning oilaga e'tibori va jamiyatda oilaning o'rni nazarda tutiladi. Islom dini oila sha'nini qanchalik himoya qilishini, oila Qur'oni karimda ham bosh mavzulardan ekanini anglash uchun Niso surasidan ikki oyat va ularning tafsiri bilan tanishish kifoyadir.

“Erkaklar xotinlar ustidan (oilal boshlig'i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar) ni ayrimlari (ayollar)dan (ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o'z oilasiga) o'z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir. (Ayollar ichida) solihlari – bu (Allohga va eriga) itoatli, g'oyibga Alloh saqlaganicha himoyatli (ya'ni, erlarining sirlari, mulklari va obro'larini saqlovchi) lardir. Xotinlarning itoatsizligidan qo'rqsangiz, avvalo, ularga nasihat qiling, so'ngra (bu ta'sir qilmasa,) ularni o'rinlarda (aloqasiz) tark eting, so'ngra (bu ham kor qilmasa) ularni (majruh bo'lmagudek darajada) uring. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqacha) yo'l axtarmang. Albatta, Alloh oliy va ulug' zotdir” (34-oyat).

“Agar ular (er-xotin)ning oralari buzilib ketishidan qo'rqsangiz, er oilasidan bir hakam, xotin oilasidan bir hakam yuboring. Agar (er-xotin) islohni xohlasalar, Alloh o'rtalarini muvofiqlashtirgay. Albatta, Alloh bilimdon va xabardor zotdir” (35-oyat).

Endi oyatlarni batafsil tahlil qilib ko'raylik. Ha, jamiyat xayr-baraka ila rivoj topib borishi uchun unda tartib-intizom, tinchlik-omonlik hukm surishi, rahbar bo'lishi lozim. Islom ta'limotiga ko'ra, oila jamiyatning asosidir.

Shunday ekan, oilaning ham rahbari bo'lishi kerak. Ana shu rahbarlik erkakka berildi. Nima uchun?

Demak, erkak kishi oilaga rahbar qilinganining ikkita sababi bor.

Birinchisi, Alloh taolo erkakni ayoldan afzal qilib yaratganidir. Darhaqiqat, erkak kishi jismonan ham, ichki va tashqi qiyofasi, irodasining mustahkamligi, ruhiy-nafsoniy va boshqa taraflardan ham oila rahbari bo'lishga mos qilib yaratilgan.

Ikkinchi sabab oila qurish va bu yo'ldagi barcha sarf-xarajatlar erkak kishi zimmasida ekanidir. Bunday rahbarlik ulkan mas'uliyatdir. Ushbu mas'uliyat erkak kishi zimmasiga oilaga, jumladan, ayolga homiylik qilish, uni boqish, muhofaza qilish vazifalarini yuklaydi.



“(Ayollar ichida) solihalari – bu (Allohga va eriga) itoatli, g’oyibga Alloh saqlaganicha himoyatli (ya’ni, erlarining sirlari, mulklari va obro‘larini saqlovchi)lardir”.

Biz “itoatkor” deb tarjima qilayotgan so‘z oyati karimada **“qonitatun”** lafzi ila kelgan, aslida kundalik arab tili muomalasida itoatkorlik so‘zi boshqa fe’llar vositasida ifoda qilinadi. Bu so‘z esa, o‘z irodasi, ixtiyori va muhabbatiga ko‘ra itoat qilish ma’nosini anglatadi. Demak, mo‘mina, soliha ayollarning birinchi sifati itoatkorlikdir. Bu itoatkorliklari qo‘rqishdan, majburlashdan emas, balki o‘z mas’uliyatlarini tushunganlaridan kelib chiqqan ixtiyoriy munosabatdir.

Imom ibn Jarir Tobariy va Ibn Abi Hotimlar Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan hadisda Nabi (alayhissalom): **“Ayollarning yaxshisi – nazar solsang, xursand qiladigani, amr qilsang, itoat etadigani va uyda bo‘lmasang, seni o‘z nafsida va molingda muhofaza qiladiganidir”**, deganlar.

Lekin hamma ayollar ham solihalik maqomiga loyiq bo‘la olmaydilar. Ba‘zilari o‘z hadlarini unutgan holda, erlariga qarshi bosh ko‘tarib, beodoblik, itoatsizlik ko‘rsatadilar. Bunday hollarda ularga oldin nasihat qilinadi. Bu foyda berib, munosabatlar izga tushib ketsa, ayni muddao. Lekin harakatlar samarasiz bo‘lsa, xotinning itoatsizligi davom etaversa, boshqa choralar ko‘riladi. Hijron – to‘shakda birga yotmaslik, gaplashmaslik ana shunday choralardandir. Albatta, hijron, ya‘ni xonaning o‘zida to‘shakni boshqa qilish hassos uslub bo‘lib, ayol kishiga va‘z-nasihatdan ham kuchliroq ta‘sir qiladi. Gaplashmaslik esa uch kundan ortiq davom etmasligi kerak. Erларining e‘tiborsizligi, gaplashmay qo‘ygani hali insofini yo‘qotib ulgurmagan ayollarni “ko‘zlarini kattaroq ochishga” majbur etadi.



“Xotinlarning itoatsizligidan qo‘rqsangiz, avvalo ularga nasihat qiling, so‘ngra (bu ta‘sir qilmasa,) ularni o‘rinlarda (aloqasiz) tark eting, so‘ngra (bu ham kor qilmasa) ularni (majruh bo‘lmagudek darajada) uring”.

Urish deganda, albatta, qattiq kaltaklash, a'zolarini mayib qilish yoki boshqa jarohatlar yetkazish tushunilmaydi. Ulamolarimiz bu yerdagi "urish"ni "misvok yoki biron barmoq ila turtish", deb tushuntirganlar.

Ko'rinib turibdiki, oyati karimadagi "urish"ga berilgan izn faqat po'pisa uchun, o'zini bilmagan ayollarga ta'sir o'tkazish uchundir. Avvalo, bu oyatdagi "urish" farz ham emas, vojib ham, sunnat ham, mustahab ham emas. Bu "urish" do'q-po'pisa, norozilikni bildirish, xolos. Amalda esa deyarli qo'llanilmaydi. Ko'pchilik ulamolar: "Berilgan ushbu izndan foydalangandan ko'ra foydalanmagan yaxshiroq", deganlar. Buning ustiga, ko'plab hadislarda erlarga ayollarni urmaslik ta'kid bilan tayinlangan.

Abdulloh ibn Zam'adan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi: «Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): *"Birortangiz o'z ayolini qulni kaltaklagandek kaltaklamasin. Keyin, kunning oxirida yaqinlik qilgisi kelib qolishi ham bor"*, dedilar» (Imom Buxoriy, Imom Termiziy).

Ayol kishi tabiatan ta'sirchan, shoshqaloq va tez achchiqlanuvchi bo'ladi. Sal narsaga eriga nisbatan itoatsizlik qilib qo'yishi mumkin. Ammo keyin o'ziga kelib, itoatga qaytsa, unga qarshi chora ko'rishga zarurat qolmaydi.

"Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqacha) yo'l axtarmang".

Bu oilani mustahkamlash uchun zarurdir. Chunki bir-biriga nisbatan kechirimli bo'lish doimo yaxshilik keltiradi.

Kim bu ko'rsatmalarga yurmasa, o'zidan ko'rsin. Chunki **"Albatta, Alloh oliy va ulug' zotdir"**.

Ba'zida bu choralarni qo'llash ham naf bermasligi mumkin. Agar kelishmovchilik ham er, ham xotin tomonidan yuz bersa, endi uni oila sirini tashqariga chiqarmasdan hal etishning iloji qolmagan bo'ladi. Bunday holatda boshqalar aralashib bo'lsa ham, oilani saqlab qolishga urinib ko'rish zarurdir.

"Agar (er-xotin) islohni xohlasalar, Alloh o'rtalarini muvofiqlashtirgay", deb, hakamlarga yarashtiruvchilik nisbati berilmoqda.

Ba'zi ulamolar xuddi shu tushunchadan kelib chiqib: "Ularga faqat yarashtirish, isloh qilish huquqi berilgan", deyдилar. Boshqalari esa: "Holatni o'rgangach, islohning iloji bo'lmasa, er-xotinni ajratib qo'yishga haqlari bor, shuningdek, tegishli jazo choralari, mol-mulkka doir masalalarni ham hal etishlari mumkin", deyishadi.

Hazrat Usmon Zinnurayn (roziyallohu anhu) xalifalik yillarida xuddi shu oyati karimaga amal qilib ish yuritgani tafsir kitoblarida naql qilingan.

 **Topshiriq. Oilalardagi ajrimlarning psixologik sabablarini jadvalga yozing va tahlil qiling.**

Savollar	Javoblar
Oilalardagi ajrimlarning psixologik sabablari	

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning necha foizini xotin-qizlar tashkil etadi?

A) 45 foizini

B) 42 foizini

D) 35 foizini

E) 48 foizini

2. Ajrimga doir islom qoidalari qaysi surada bayon qilingan?

A) Yosin (surasida)

B) Ruqiya (surasida)

D) Ixlos (surasida)

E) Niso(surasida)

13-MAVZU: OILAVIY AXLOQ. OILAVIY NIZO VA ZIDDIYATLARNI YENGIB O'TISHDA AXLOQNING ROLI. ISLOM AXLOQI.

Reja:

1. Oilaviy axloq.
2. Oilaviy nizo va ziddiyatlarni yengib o'tishda axloqning roli.
3. Islom axloqi.

Tayanch iboralar: Oilaviy axloq tarbiyasi, nizo va ziddiyatlar, Islom axloqi, ota-ona, farzand.

Oilada shakllangan o'ziga xos axloq unda muayyan milliy qadriyatlar tizimining shakllanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Oilaviy tarbiya hozir mavjud bo'lgan axloqiy qarashlarning amaliy jihatdan namoyon bo'lishi hamdir. Oiladagi axloq er va xotin o'rtasidagi munosabatnigina ifodalab qolmasdan, balki bolalar uchun ham ular yetuk inson sifatida shakllanishining muhim ma'naviy omillaridan hisoblanadi. Binobarin, ma'naviy boy, axloqan pok va jismonan sog'lom farzandlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish aynan oilada axloqiy madaniyatni qaror toptirish orqali amalga oshiriladi. Yuksak axloqqa egalik kishida ezgulik, yaxshilik, yaratuvchanlik, fidoyilik, sadoqat, mardlik kabi insoniy fazilatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Oila yoshlarning axloqli-odobli, rostgo'y, mehnatsevar, halol va samimiy bo'lib voyaga yetishlari uchun zamin tayyorlaydi. "Rostgo'ylik kishi o'z xatti-harakatida sodir bo'lgan ishlarni ko'rgan, bilgan va eshitganlarini boshqalarga gapirib berganda, yolg'on aralashtirmay, aynan o'zini so'zlab berish odatidir. Rostgo'y kishi yolg'on gapni gapirishni o'zi uchun uyat deb biladi.



Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning, millatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va milliy axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi, hamda shu asosda kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar manbaidir. Oiladagi axloq har bir oila a'zosining ma'naviy qiyofasi orqali bir-birini tushunishga bo'lgan intilishi orqali shakllanadi.

Oiladagi axloq uning shonu sharafi, g'ururi, burch va vazifalarini ko'rsatib beruvchi mezondir. Oilada pokiza nasl-nasab tuyg'usi va u bilan faxrlanish – pirovard natijada vatanparvarlik, xalqparvarlik iftixorini yuzaga keltiradi. Oilada o'zaro hurmat qat'iy intizom asosida barcha a'zolarning o'z burch va vazifalarini ado etishlari, bir-birlariga nisbatan ezgulik va mehr-oqibat ko'rsatishlari muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Axloqni qaror toptirishda oila intizomi – jamiyat va davlat intizomining negizidir. Chunki, oilada intizom tuyg'usi shakllangan kishi davlat va jamiyat ishida ham shu tuyg'u sohibi sifatida xizmat qiladi, davlat qonunlariga chap berishini hayoliga ham keltirmaydi, har bir ishni o'z joyida va o'z vaqtida belgilab, tartib asosida bajaradi.

Axloq tarkibiga quyidagi elementlar: axloq to'g'risidagi ilg'or qarashlar, nazariyalar; milliy axloqiy urf-odatlar; shaxsning eng yuksak axloqiy fazilatlar; muomala odobi; kiyinish odobi; mehmondo'stlik va ovqatlanish odobi; kasbiy odob; etiket kiradi.

Oilaviy nizo va ziddiyatlar.

Mustahkam oila sog'lom turmush tarzi asosida shakllanadi. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda yuz berayotgan jadal o'zgarishlar, yutuqlar bilan bir qatorda oilaviy munosabatlar tizimida ajralishlar, yoshlar orasida deviant xulq-atvor ko'rinishlarining ko'payganligi, ota-onalar va farzandlar o'rtasida ziddiyatlarning paydo bo'lishi, tirik yetimlar sonining oshishi kuzatilmoqda. Oilaning jamiyatdagi mavqeini saqlab qolish, uning mustahkamligini saqlash va kuchaytirish, uning muqaddasligini kelajak

avlodlar ongiga singdirish hozirda dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, oila ijtimoiy-psixologik butunlik sifatida me'yoriy va informatsion ta'sir vositasi sifatida shaxsga ijtimoiylashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Oilada jipslik, inoqlikning yo'qligi uni tashqi negativ omillarga ta'sirchan qilib qo'yadi. Shuning uchun, o'tish davrida oila-nikoh munosabatlarida barqarorlikni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.



Ziddiyatlar turli sabablarga ko'ra yuzaga chiqadi: ma'naviy, moddiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy kelishmovchiliklar va boshqalar. Ziddiyatni chuqurroq tushinish uchun albatta uning kelib chiqish sabablarini o'rganmoq lozim. Masalan, ikki er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlarni oladigan bo'lsak, avvalo ularning oilaviy hayotda turli ma'naviy va moddiy zahiraga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalanganliklari, bir-birini hurmat qilmasligi, tushunmasligi, er xotinni, xotin erni qo'llab-quvvatlamasligi, oiladagi iqtisodiy yetishmovchilik va hokazolarni sabab qilib olish mumkin.

Ziddiyat faqat bir tomondan iborat bo'la olmaydi. Ziddiyatda, uning qanchalik murakkab bo'lishiga qaramay, har vaqt ikki tomon – **buzg'unchilik va yaratuvchanlik** mavjud bo'ladi.

Ziddiyat kuyidagi hollarda ijobiy imkoniyatga ega:

- *yashirin imkoniyatlar va muammoning yangi qirralarining ochilishiga sabab bo'ladi;*
- *muammo yechimining yangi yo'l-yo'riqlari, imkoniyatlari va usullarini kashf etadi;*

- *ishonch, samimiylik, hamkorlik va haqiqatni tan olishga qaratilgan yangi munosabatlar qurilishiga sabab bo'ladi;*
- *odamlarni umumiy g'oyalar asosida birlashtiradi;*
- *samimiy va ochiq, iliq muloqot uchun imkon yaratadi va shunday munosabatlarga insonlarni o'rgatadi;*
- *o'z fikr va o'ylaringizga aniqlik kiritishga va o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi.*

Ziddiyatning vayron qilish imkoniyati:



Ziddiyat kuyidagi hollarda vayron etish imkoniyatiga ega bo'ladi:

- *konflikt yechimi topilmasa va uni boshqarish imkoniyati boy berilsa;*
- *g'azab, jahl, dilsiyohlik, hafagarchilik, nafrat va qasos xislarining kelib chiqishiga sabab bo'lganda;*
- *juda qattiq stressga olib kelganda;*
- *odamlar o'rtasida uzoq muddatli nizo va ixtilofni vujudga keltirganda;*
- *pashshadan fil yasab, kichkina muammoni katta mojaroga aylantirganda;*
- *zo'ravonlik va urushga sabab bo'lganda.*

Har qanday ziddiyat asosida biror tomon ma'lum bir maqsadga erishish yo'lidagi harakati yotadi. Demak, ziddiyat - bu ma'lum manfaat va maqsadlarga erishish yo'lidagi o'zaro muloqotning o'ziga xos sifatidir.

Har qanday ziddiyat insonlar va individning ruhiy holatidagi qarama-qarshiliklar hosilasidir. Borliqdagi har bir predmet va hodisa u yoki bu

ko'rinishdagi qarama – qarshiliklarga ega. Qarama – qarshi xossa va xislatlarning o'zaro istisno etishlari asosida ziddiyat vujudga keladi. Ziddiyat esa albatta boshqa holatga, bosqichga, sifatga o'tish zaruriyatini tug'diradi.

Ziddiyatning belgilari qanday namoyon bo'ladi? Bu ziddiyat qatnashchilari tomonidan qabul qilingan holatning mavjud bo'lishi, ziddiyat ob'ektining bahsliligi, qatnashchilarning o'z maqsadlariga erishishlari uchun ziddiyatga kirishishga tayyorliklari bilan belgilanadi. Bugunga kelib hayot har qanday ko'rinishda ziddiyatsiz bo'lmasligi isbotlandi. Ziddiyat konstruktiv, yaratuvchanlik xarakterga ega bo'ladi va to'g'ri qaror qabul qilishga omil bo'lib xizmat qiladi. Ammo bunda ziddiyatli holat tomonlari, ya'ni opponentlar o'z fikrlariga ega bo'lgan holda axloqiy me'yorlardan chetga chiqmagan holda bir qarorga kelishi lozim.

Disfunksional (vayronakor) ziddiyatlar shaxsiy qoniqishning pasayishi, guruhdagi hamkorlikning yo'qolishiga olib keladi. Ziddiyatning bunday turi bir tomon faqatgina o'z fikrini ma'qullashi, murosa qilishga va kelishishga xohishining yo'qligidan, ikkinchi tomonni haqoratlash, uning fikrini inobatga olmaslik, o'z ustunligini ko'rsatishga intilishdan kelib chiqadi.

Islom axloqi nima?

Muqaddas Qur'oni Karimning tabarruk oyatlari, sarvari olam Muhammad mustafoning hadislariga asoslanuvchi islom axloqi necha-necha avlodlarni eng olijanob insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalagan, ezgulik, ijtimoiy adolat, o'zaro totuvlik, birodarlik, mehribonlik kabi yuksak umumbashariy qadriyatlarni barqaror aylab, odamiylik, insonparvarlik tantanasiga xizmat qilib kelgan. Bu qadriyatlar hamon ma'naviyatimizning ustivor omillaridan bo'lib kelmoqda.

Axloqiy burchlarimiz qaysilar? Axloq - hayotdan yoki o'qish-o'rganish va oila tarbiyasi bilan erishilgan ruhiy holat demakdir. So'zlarida, ishlarida turli holat va harakatlarida durust bo'lgan kishiga axloqli inson deyishadi. Payg'ambarimiz bir hadislarida: ***“Xulqi yaxshi bo'lgan musulmon imon jihatidan eng mukammal musulmondur”***, - degan edilar. Din insonlar bilan Alloh orasidagi munosabatlarni ham, odamlarning odamlar

bilan munosabatlarini ham aniqlab bergan. Inson dunyoda boshqa insonlar bilan birga yashaydi. Qayerda birdan ortiq kishi bo'lsa, u yerda insonlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi qonunlar, qoidalar, urf-odatlar bordir. Islom axloqi xam dinga asoslangan va o'z kuch - qudratini islom dinidan olgan bir axloqdir.

Axloqiy burchlarimiz qaysilar? - Alloh va payg'ambar oldidagi burchlarimiz; - o'z oldimizdagi burchlarimiz; - oilamiz oldidagi burchlarimiz; - vatan va millatimiz oldidagi burchlarimiz; - insoniyat oldidagi burchlarimiz.

Axloqiy burchlarimiz

**Alloh va payg'ambar oldidagi
burchlarimiz**

**O'zimizning oldimizdagi
burchlarimiz**

**Oylamiz oldidagi
burchlarimiz**

**Vatan va
millatimiz
oldidagi
burchlarimiz**

**Insoniyat oldidagi
burchlarimiz**

Chiroyli xulqlar.

- 1. To'g'rilik.**
- 2. Mehnatsevarlik.**
- 3. Marhamat va yumshoq ko'ngillilik.**
- 4. Hamdardlik va saxiylik.**
- 5. Odob va hayo.**
- 6. Do'stlik va qardoshlik.**
- 7. Sabr.**
- 8. Shukr.**
- 9. Kattalarga hurmat, kichiklarga muhabbat.**
- 10. Haqiqat.**
- 11. Adolat.**
- 12. Omonatlilik.**
- 13. Va'daga vafo.**
- 14. Tavba.**

Bu dunyoga ortiqcha berilib, oxiratni unutgan kishilarda ham mana shunga o'xshagan holatlar yuz beradi. Din, imon zaiflashadi, masjidlarda namoz o'quvchilar kamayadi, kishilar o'rtasidagi yaqinlik va muhabbat tugaydi, odamlarning darajasi pul bilan o'lchanadi. Takabburlik ortib, do'stlik va qardoshlik kamayadi. Bularning ikkalasi ham zararlidir. Shuning uchun musulmon kishi bu dunyoni ham, oxiratni ham unutmasligi kerak.

Payg'ambarimiz bir hadislarida shunday deganlar: *"Chinakam musulmon oxiratdan ham, bu dunyodan ham voz kechmaydi. Dunyosini qoldirib, yolg'iz oxirati uchun qayguruvchi kishi xayrli, yaxshi musulmon emas. Oxiratni unutib, yolg'iz bu dunyosi uchun kirishuvchi ham xayrli musulmon emas. Odamlarning xayrlisi, yaxshisi bu dunyosi uchun oxiratdan kechmaydi, oxirati uchun bu dunyosidan kechmaydi, ikkalasini birga olib boradi va boshqalarga og'irlik tushirmaydi". Demak, haqiqiy musulmon dunyo va oxirat ishlarini birga olib borgan kishidir. Boshqa bir hadislarida ham payg'ambarimiz: "Bu dunyo uchun hech o'lmaydigandek bo'lib mehnat qil, oxirat uchun esa xuddi ertaga o'layotgandek bo'lib mehnat qil", - deb marhamat qilganlar.*



Topshiriq. *Ayollarga nisbatan qo'llaniladigan oilaviy zo'ravonlik turlariga javoblar yozing.*

Savollar	Javoblar
Jismoniy zo'ravonlik	
Psixologik zo'ravonlik	
Iqtisodiy zo'ravonlik	

Nazorat savollari:

1. Oilaviy hayotni ziddiyatlarsiz davom ettirish mumkinmi?

- A) Davom ettirish mumkin.
- B) Ziddiyatlarsiz hayot bo'lmaydi.**
- D) Bilmadim.
- E) Qarama-qarshilik rivojlanish omili.

2. Chiroyli xulqlar to'g'ri ko'rsatilagan javobni toping?

A) To'g'rilik, mehnatsevarlik, odob va hayo, kattalarga hurmat, kichiklarga muhabbat, hamdardlik va saxiylik, sabr, va'daga vafo....

B) To'g'rilik, mehnatsevarlik, marhamat va yumshoq ko'ngillilik, qattiqqo'llik va intizomlilik, va'daga vafo....

D) Kattalarga hurmat, kichiklarga behurmatlik, hamdardlik va saxiylik, sabr, va'daga vafo....

E) To'g'rilik, mehnatsevarlik, marhamat va yumshoq ko'ngillilik, agressivlik va intizomlilik, va'daga vafo....

14-MAVZU: SHAXS PSIXOLOGIYASIDA ERKAK VA AYOLNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. OILADA OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDAGI TARBIYAVIY TA'SIR USULLARI.

Reja:

1. Shaxs psixologiyasida erkak va ayolning psixologik xususiyatlari.
2. Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda tarbiyaviy ta'sir usullari.
3. Ota-ona bosh tarbiyachi.

Tayanch iboralar: Shaxs psixologiyasi, erkak va ayol, kelin - kuyov, ota-ona va farzand, tarbiya, oila.

Shaxs psixologiyasida oila, oilaviy munosabatlar, erkak-ayol munosabatlari, jinsiy tarbiya, jinsiy madaniyat va milliy odob katta ahamiyatga ega.

Ikki toifa shaxslarida nafaqat jins farqligi, balki ularning tabiati, xohish-istaklari, ehtiyojlari, ruhiy va jismoniy mutanosiblik darajasi bilan ham birmuncha farqlanadilar.

Shuning uchun bo'lsa kerak, oilada oila boshlig'i - erkakning o'rnini boshqa, oila bekasi - ayolning o'rnini boshqa, qaysidir ma'noda vazifa-majburiyatlari ham taqsimlangan.

Shunday bo'lishiga qaramay, erkak va ayol haqida gap ketganda, aniqrog'i ularning o'zaro munosabatlari to'g'risida mulohaza yuritilganda "Ayol nima istaydi?" yoki "Erkakka nima kerak?" kabi jo'n savollar paydo bo'ladi. Avvalo, bu tabiiy hol. Erkak va ayol shunday hilqatlarki, hanuzgacha to'liq o'rganilmagan, kashf qilinmagan qirralari bisyor.



Kuchli jins vakillari bo'lishiga qaramay erkaklar tezda ruhan sinuvchi, tushkunlikka moyil, birgina jahl otiga minib yillar davomida qurgan qo'rg'onini bitta gap bilan buzib yuboruvchi "qobiliyatga" ega bo'ladilar. Ularning ruhiy olami doimiy e'tibor, mehr-muhabbat, dono maslahatu qilgan ishlariga rag'bat sifatida maqtov eshitishga muhtoj! Biroq shunday erkaklar ham bo'larkanki, ular ayollarning e'tibori-yu mehribonligiga muhtojlik sezmasdan (jinsiy ehtiyojdan tashqari) umrbod yashay olarkan, hatto yolg'iz yashash ham ular uchun fojia hisoblanmas ekan. Bunday, xalq tili bilan aytganda, "tarki dunyo" qilgan ayrim kishilarni uchratish qiyin emas. Ammo ular juda kamchilik.

Ko'pchilik erkaklar ayollarning mehr-muhabbatidan quvvat olib yashaydilar. Aniqroq qilib aytganda, erkak va ayol bir-biriga ham jismoniy, ham ma'naviy bog'liq qilib yaratilgan.

Ikki jins vakilini bir-birini jismoniy qoniqtirmasligi - ularning sog'liliga, ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mabodo bir-birining ma'naviy dunyosini to'ldirish, takomillashtirishdek vazifa ado etilmasa, ikkisinin uyushmasiga putur yetishi turgan gap. Sevishib-sinashib (yoki bir-birini yaxshi bilmasdan) turmush qurgan yoshlarning oilaviy hayotda "qoqilishlariga" asosiy sabablardan biri shu - bir-birining ma'naviy dunyosini to'ldira olmaslik. Oddiyroq qilib aytsak, jinsiy hayot ehtiyoji (va undan to'laonli qoniqish hosil qilish) ularni ma'nan yaqinlashtirib, ma'nan yaqinlik - ularni jisman birlashtiradi, natija - o'zaro tuzilgan uyushmani (oilani) mustahkamlaydi!



Psixologlarning fikricha, birinchi navbatda erkaklar ayollarning yuziga qarab baho beradi. Deyarli barcha kuchli jins vakillari ayollarning siymosini - uning yuz tuzilishiga qarab "yaratadi". Xuddi o'sha "chehra" erkaklarning ayollardan "yuz o'girishi"ga ham sabab bo'lishi mumkin. Gap navbati qad-qomatga kelganda biroz ehtiyotroq bo'lgan ma'qul, negaki turli erkaklarga turli qad-qomatli ayollar yoqadi. Birovga orriq, ayrimlarga to'laroq, kimgadir uzun, kimga kaltaroq deganday.

Psixologlarning fikricha, erkaklar ayollar qomatining mutanosiblik darajasiga e'tibor berisharkan. Biroq shunga qaramay 50% erkaklar uchun qomatning qanaqaligi muhim emas. Muhimi, ko'z ochib ko'rgan ayolining ma'naviy dunyosi! Turmush o'rtog'i va oilasiga bo'lgan munosabati!

Ayollarning sochi, soch turmagi, ma'noli boqishlari, terisining rangi, qadam tashlashi va hokazo "xususiyatlari" ularga nisbatan "tobelik" taassurotlarini uyg'otar ekan.



Bilim olish. Maktab partasida o'g'il bolalarga qaraganda a'lochi qizlar doimo ko'proq bo'lishadi. Ammo yuqori sinflarga kelgach, o'g'il bolalar bilim borasida qizlarni "quvib yetishadi" va o'tib ham ketishadi. Bu, ma'lum vaqtga kelgach, qizlarning aqli susayadi, degani emas. Buning sababi – ayol ruhiyati bilan bog'liq. Balog'atga yaqinlashgan qiz bolaning dunyoqarash va qadriyatlari o'zgara boshlaydi. U endi bilim olishdan ko'ra, to'plagan tajribalaridan unumli foydalanishni afzal bila boshlaydi. To'g'ri-da, o'zi qiynalib bilim o'rgangandan ko'ra, bilimdon va "a'lochi" bolani o'ziga "bo'ysundirgani" tuzukroq emasmi? Shuning uchun qizlar gap-so'z bilan bitadigan kasb-kor (o'qituvchilik, kotibalik, hamshiralik va b.) tanlashi keng tarqalgan holdir, o'g'il bolalar esa, ulg'aygani sayin bilim bilan birga, qo'l mehnatini talab etadigan hunarni egallashga ham intilishadi. O'g'il bolalarning suhbat mavzulari yildan-yilga o'zgarib borsa, ayollarda bu narsa unchalik sezilmaydi.

Iqtisod. Erkak pul to'plashni, xotin esa sarflashni yoqtiradi. Ayol puldan foydalanishni xush ko'rsa, erkak pulning o'zini xush ko'radi. Jamg'arilgan mablag' erkak kishining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shunday

bir naql bor: ayol chindan ham erini millioner va undan ham... battar qilishi mumkin. Agar eri – milliarder bo'lsa.

Gap. Suhbat chog'ida ayollar imo-ishora va mimikani ko'proq ishlatishadi. Ular suhbatdoshni tinglashdan ko'ra, tushunishga intiladilar. O'z istaklarini sha'ma orqali izhor etishni yaxshi ko'rishadi. Erkaklar esa to'ppa-to'g'ri "maqsadga o'tishadi".

Ko'p gapirish ko'p narsalarni bilish alomati emas, kam gapirishga salohiyatning yo'qligi deb qaramaslik lozim. Ayol tabiatan kishilararo munosabatlarni, muloqotni yoqtiradi, undagi maydagaplik, fisqu fasodga berilish ham shundandir. Erkak qo'l mehnati, kuch bilan bajariladigan vazifalar, fikrini, aqlini charxlashini biladi. U ko'p gapirishdan ko'p ter to'kishni afzal ko'radi. Agar qiz bolaga qo'g'irchoq sovg'a qilsangiz, u qo'g'irchoqni kiyintiradi, sochini taraydi, allalaydi va u bilan tinmay gaplashadi, o'g'il bola esa uning ichida nima borligini bilish uchun qismlarga ajratadi, hatto uni suvga bosib o'zining zo'rligidan quvonadi.

Erkak kishining miyasi kunning oxirida barcha ma'lumotlarni qaytadan tahlil qilishga va zarurlarinigina saqlab qolib, qolganlarini unutishga qodir. Ayol bunday qilolmaydi. Ayol o'z muammolari haqida qayg'urishni bas qilish uchun ularni birovga gapirib berishi kerak. Shuning uchun, ayol bir kunda 30 mingta so'zni aytishga ehtiyojmand, erkakka esa 4 mingta so'z ham yetib-ortadi. Ayol "o'zini bosib olishi" uchun imkon qadar ko'proq gapirgisi kelsa, erkakka tinchlik zarur bo'ladi, xolos. Mazkur qonuniyat ko'pincha o'zaro tushunmovchilik va janjallarga sabab bo'lishi – chatoq. Eng yomoni, ayol kishining gapirishga bo'lgan ehtiyoji eng avj pallaga chiqqan payt – bu tun.

Sir saqlash. Erkaklar birovlarga o'z sirini aytishdan ko'ra, o'zgalarning sirini saqlashni afzal biladilar. Ayollar esa buning g'irt teskarisi. To'g'ri, ular sir saqlashadi. Biroq o'sha sir kamida 10-12 kishi o'rtasidagi "sir" bo'ladi.

Harakatlar. Agar ayolni chaqirishsa, u faqat boshini o'girib qaraydi, erkak esa butun gavdasi bilan o'giriladi. Biron nimani otmoqchi bo'lgan ayol qo'lini yon tomonga emas, orqa tomonga qarab siltaydi. Ayol biron gapni eshitishni xohlamasa, qulog'ini barmog'i bilan berkitadi, erkak esa kafti bilan.

Biron nimaning javobini tezroq topish uchun ayol hech qachon boshini qashlamaydi, chunki soch turmagini buzib qo'yishdan qo'rqadi.

Ko'zgu. Erkak o'z tashqi ko'rinishini baholash uchungina oynaga qaraydi. Ayolga esa buning uchun ko'zgu shart emas. U magazin vitrinasiga, derazaga yoki mashinaning yaltiroq kapotiga qarab ham o'z ko'rinishini tahlil qilib ketaveradi.

Uydan chiqish. Agar erkak "ko'chaga chiqish uchun tayyorman" desa, bu uning ko'chaga chiqishi uchun faqat oyoq kiyimini kiyishi zarurligini anglatadi. Xotin kishi tomonidan aytilgan xuddi shu gapdan esa, uning ko'chaga chiqishi uchun bosh yuvishi, kiyimlarni dazmollashi va tabiiyki, yaxshilab bo'yanishi zarurligi tushuniladi.

Ishda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, ayol kishining miyasi jamoat ishlarini yechishdan ko'ra, oilaviy masalalarni hal qilishga moslab yaratilgan. "Ayollarning 80 foiz aqli boshqalar bilan shaxsiy munosabatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar uyda erkak ish haqida o'ylayotgan bo'lsa, ayol kishi esa ish joyida ham shaxsiy hayotini ko'proq o'ylaydi. Uning barcha intellekti o'zining shaxsiy hayotini qurishga qaratilgan bo'ladi. Boshqa narsalarga uning energetikasi yetmaydi", - deb hisoblashadi mutaxassislar.

Kiyim-kechak. Ayol kishi magazinga chiqish, telefonda gaplashish, ovqat tayyorlash, kitob o'qish, axlatni to'kib kelish kabi yumushlarning har biri uchun alohida-alohida kiyinadi. Erkak esa, aksariyat hollarda, o'zining doimiy kiyimini to'y yoki aza munosabati bilangina almashtiradi.

Did. Erkakni o'zining tashqi ko'rinishi ko'pincha qoniqtiradi (endi, Xudo bergani-da, shunisiga ham shukr). Ayollar uchun esa, o'z tashqi ko'rinishi – muhokama uchun doimiy mavzu, desa bo'ladi! Didlarga kelganda, ayonki, erkaklar ayollarni yoqtirishadi. Ayollarga esa ko'proq sodda narsalar yoqadi, masalan, erkaklar.

Erkak va ayollarning ruhiyati va xatti-harakatlariga madaniyat darajasi va tarbiya ham ta'sir ko'rsatadi, albatta. Bundan tashqari, har bir jamiyatdagi mavjud muhit ham erkak va ayolning fe'l-atvorini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Ikki jinsga oid xususiyatlar turli mamlakatlarda turlicha ekanligi ham shu sabablidir.

Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda tarbiyaviy ta'sir usullari.

Oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli, jozibali va muhim bo'lagi - bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehriy munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini shakllantiradi.

Chaqaloqning jismoniy o'sishi va rivojlanishi tabiiyki, onaning g'amxo'rligiga bevosita bog'liq. Shunisi muhimki, bola uchun har qanday gamxo'r va mehribon inson unga ona o'rnini bosishi mumkin (buvisi, otasi, enagasi). Lekin kimningdir doimiy g'amxo'rligi, ya'ni, mehribon insonning - "ob'ekt"ning doimiyliigi bola rivojlanishi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to'lguncha bo'lgan davri noverbal muloqot davri hisoblanib, undagi barcha o'zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan buladigan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi bo'ladi va bora-bora muomalaga til va tovushlar bilan boglik belgilar kirib kela boshlaydi. Onaning barcha say'i-harakatlari bu davrda bola psixik rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi.



Agar ota va ona tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik doimiy va samimiylilik kasb etsa, bu E. Erikson ta'biri bilan aytganda, "mutloq ishonch" (bazalnoe doverie)ga asos bo'ladi. Ya'ni haqiqiy, g'amho'r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his etib, o'sha zaxoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa - ko'krak suti, peshob qistaganda, to'sish kabi ishlarni o'z vaqtida bajarib boradi. Onaning bola ehtiyojlarini shu kabi aniq bilib, o'z vaqtida mehr ko'rsatishi ba'zan intuitiv tarzda kechsa, ba'zan ona o'zini bola bilan identifikatsiya qiladi, ya'ni, o'zini uning o'rniga qo'yish orqali, uning talab-istaklarini sezganday bo'ladi, "vujudi bilan his etadi". Bunday his qilishlar odatda ona tomonidan aniq anglanmaydi, lekin, tabiiyki, onaning kechinmalari va sezishlari to'g'ri chiqadi. Lekin ba'zan pediatr yoki boshqa mutaxassis bilan bolaning holati haqida fikrlashganda ayrim hollarda o'zining intuitiv qarorlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini anglab qoladi.



Oila va nikohning paydo bo'lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug'ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o'ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashari tarixi shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand

extiyohlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatishgacha bo'lgan munosabatlarga aylangan. Ota-ona - bola munosabatlarini agar tarixiy davrlarga bo'ladigan bo'lsak, ota-onaning bolaga yondoshuv usullari bo'yicha qator bosqichlarni boshdan kechirganligini ko'rish mumkin.

Ota-onalar farzandlarining jamiyatda tutajak o'rinlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa kattalarning kichiklar taqdiriga befarq emasligi, ularni qo'llab-quvvatlash, rivojlanishiga ko'maklashishning ahamiyatini anglash davri bulgan. Bu an'ana deyarli bizning davrimizda xam davom etib kelmoqdaki, endilikda tug'ilgan bolaga e'tibor oilaning barcha qadriyatlaridan ustun ham keladi. Lekin bunday gamxo'rlik psixologiyasi xam madaniy-tarixiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, aksariyat xalqlar bolaga u kichikligida juda katta mexr va gamxo'rlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-ona tomonidan beriladigan tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlashadi.



Boshqa bir madaniy-etnik xududlarda, aksincha, farzand balogatga yetgani sari ota-onaning unga e'tibori kuchayadi. Masalan, Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda xam oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik yoshdagi rivojlanish xususiyatlariga tabiiy xolatday qarab, juda katta qaygurish bilan uning ma'naviy, ruxiy rivojlanishiga e'tibor qaratilmaydi. Lekin

qiz bola balogatga yetib, ko'rkamlashib borgani sari, o'g'il bolaning qo'lidan ish kelib, qatorga qo'shilgani sari, ota-onada ulardan g'ururlanish, taqdiriga kuyunish, gamxo'rlik ko'rsatish xam ortib boradi. Bunday gamxurlik shu qadarki, uylangan qizning qadam bosishlarini ham xamon ota-ona nazorat qilaveradi, bu ba'zan, qaynona-kelin munosabatlarida, yoki ota-o'g'il munosabatlarida tarangliklarni, nizolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan davrlarda tabiiy, ota-ona farzandlarini tutish, tarbiya qilish va jamiyatga tayyorlashda o'ziga xos metodlarni qo'llagan. Boshida o'zidan ajratishni, hayotga tayyorlashni xam bilmagan ota-ona bora-bora bolani jamiyatda ijtimoiylashuviga ahamiyat beradigan, shu jarayonga yordam beradigan bo'lib borgan, ota-onadagi egoizm bolalardagiga aylanib borganki, hozirgi davrda ko'pgina ota-onalar farzandlarining faqat o'zini o'ylashi, ota-onani tushunmasligidan noliydigan ham bo'lib qolgan. Lekin aslida tarixiy rivojlanish tendensiyalariga e'tibor berilsa, bunga faqat ota-onalarning o'zlari aybdordirlar.

Ota-ona bosh tarbiyachi.

O'tmishdan bugungacha xalqimiz tomonidan allomalar, avlod-ajdodlardan faxrlanish, ular merosini mukammal o'rganish, olg'a surilgan hayotiy g'oyalardan jamiyatimiz gullab-yashnashi yo'lida foydalanish, davlat ramzlarining mohiyatini anglash aynan oilada amalga oshirila boshlangan.



Sohibqiron Amir Temur ham o'z davrida o'g'il uylantirish, kelin tanlash hamda farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham bejiz emas. Oilaning mustahkam bo'lishidagi asosiy mas'uliyat oila boshlig'i zimmasida, deb bilgan Sohibqiron: ***“O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl – nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Odamlar orqali salomatligini, jismoniy kamolotini aniqladim, odob - axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta tomosha berib, kelin tushirdim”*** - deydi.

Shuningdek, sarkardaning quyidagi so'zlari yanada ibratli: ***“O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimga biron tomchi sharob ichib, xotinlariga yaqinlashishni man etdim. Zero, sharobning ta'siri bunyodidan kelgan farzand nasl-nasabning buzilishiga ta'sir etgay, debon shu pokiza yo'lni tutdim”***. Demak, Amir Temur nafosatshunoslikni manbai pokizalik, tartib-intizom oila kuch-qudratini yuksaltirib, jamiyatga poydevor bo'lishini yaxshi bilgan.



Davlatimizning ayniqsa, ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini oshirish, oilani har tomonlama mustahkamlash, oilada va ta'lim tizimida yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash, aholi salomatligini mustahkamlash borasida olib borayotgan siyosatining negizida ham aynan shu g'oya yotibdi.

Oilada farzand tarbiyasida eng muhim usul bu shaxsiy namunadir. Ota-onaning xatti-harakatlari, yurish-turishi, muomalasi, o'zaro munosabatlari farzandlarga namuna sifatida katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. E'tibor qilganmisiz, ota-onaning o'zaro janjallari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga salbiy munosabati, ro'zg'orni yuritishdagi pala-partishlilik sharoitida o'sgan bolalar hayotda ko'p adashishadi. Aksincha, oiladagi yuksak ahloqiy munosabatini ko'rgan bola kelgusida oila qurganda ham o'z turmush o'rtog'i bilan shunday yashashga tayyor bo'lib boradi.

Ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Chunonchi, Qur'oni Karim oyatlari mazmuni, Hadisi sharif, Sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini qamrab olgan. U go'daklarni emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko'cha-kuyda, kattalar qoshida hamda balog'at yoshiga yetganda o'zini qanday tutish lozimligigacha barcha jihatlarni ko'rsatib bergan. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalashni shart qilib qo'ygan.

“Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!”, “Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi”, deyiladi hadisda. Yana bir hadisda esa: “Mo'min kishiga berilgan narsalarning eng yaxshisi chiroyli xulqidir”, deyilgani bejiz emas. Bobokalonlarimiz hamisha barkamol inson shaxsini tarbiyalashga intilganlar va o'z farzandlari, mahalla yoshlari va butun jamiyatning tarbiyali bo'lishi uchun kurashganlar.



O'zaro kelishuv, otaning bolalarga va onaga mehr-muhabbati yuksak axloqli insoniy munosabatlari namunasi bo'lib, ular bola qalbini larzaga keltiradi, yaxshi his-tuyg'ular bilan to'ldiradi, atrofni o'rab turgan voqelikka samimiy munosabatni tarbiyalaydi. Bu bilan ota-onalar farzandlari oldida juda katta obro'- e'tiborga sazovor bo'ladilar.

Buning uchun ota-onalar o'z farzandlari o'rtasida obro'ga ega bo'lishlari uchun quyidagi chora - tadbirlarni amalga oshirishlari zarur:

- *ota-onalar farzandlari davrasida obro' orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir. Chin obro'ga ega bo'lmoqchi bo'lgan har bir ota-ona qimmatli vaqtlarini o'z norasidalaridan hech mahal ayamaskliklari;*

- *oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyrakligi, sezgirligi, fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyatga ega ekanligi;*

- *ota-onalarning o'z farzandlariga va oilaning boshqa a'zolariga (buva, buvi, kelin va boshqalar)ga mehribonligi obro' orttirishning eng muhim yo'lidan biri ekanligi;*

- *farzandlarining kuchiga, qobilyatiga, aql-zakovatiga, xotirasiga, diqqat-e'tiboriga, irodaviy xislatiga, qiziqishlariga, ko'nikma va malakalariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlarni berish va o'z vaqtida, uzluksiz ravishda ularning natijasini tekshirish va oqilona baho berish, rag'batlantirish bolalarda qat'iylilik va dadillik fazilatini vujudga keltiradi,*

mustaqil intimini, tashabbus ko'rsatish sari chorlaydi va kattalarga nisbatan ixlosining kuchayganligi;

• ixlos, hurmat, intilish, tirishqoqlik obro'ning uzviy zanjirlari ekanligini his etishlari;

• ota-onalarning ijtimoiy muhitda, jamoatchilik o'rtasida va oila davrasidagi samimiyligi va g'amxo'rliqi ularga katta obro' keltirishi mumkinligini qalban sezishlari katta ahamiyatga egadir.

Aziz ota-onalar. Farzandingizni faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang. Siz bolangizni turmushingizning har bir onida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalash yo'llarini o'ylang hamda qo'llang. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz - bular hammasi bolaga andoza va u katta ahamiyatga ega. Chunki, oilada farzand uchun birinchi taqlid ob'ekti Siz bo'lasiz. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham, bola buni darrov payqab oladi yoki sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni har xil yo'llar bilan bilib oladi, lekin o'zingiz bundan bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yoki maqtanchoqlik qilsangiz yoki ichkilik ichsangiz, undan ham yomoni onani haqorat qilsangiz - siz bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan bo'lasiz, ularga yomon tarbiya bergan bo'lasiz va sizning bu nojo'ya qiliqlaringizning oqibati juda yomon bo'ladi.

 **Topshiriq. “Tarbiyadagi kichik nuqson katta fojeaga olib kelishi mumkin!” masalani o'qing va tahlil qiling.**

Ota o'g'lining yetuklik attestatini olishi va 16 yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat berdi. U o'ziga va o'g'liga qadah to'ldirdi. O'g'lini bugungi baxtli kuni bilan tabriklab, unga qadaq uzatdi. Bu voqeaga oila a'zolari quyidagicha munosabatda bo'ldilar.

A) Dadasi: o'g'lim, muborak yoshing, mustaqil hayotga qadam qo'yishing bilan tabriklayman! Shu munosabat bilan bir qadah ko'taraylik;

B) Buvisi: Jon bolam, sen spirtli ichimliklarga o'g'lingni o'rgata ko'rma. Hech qachon ichmasin – martabasi ulug' bo'ladi.

D) Buvasi: Mayli, dadangning so'zi yerda qolmasin. Do'stlari oldida uni izza qilma. Qadahni urishtirib, bir ho'plab bera qol;

E) Oyisi: O'g'lim, dadang senga qadah uzatib, bu spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilish yoki bilmasligingni sinab ko'rmoqchi, - deb o'g'li va eriga qarab qo'ydi.

Nazorat savollari:

2. Erkak va ayol munosabatlarining muxim jixatlariga nimalar kiradi?

A) Bilim olish, Iqtisod, Gap, Sir saqlash, Harakatlar, Ko'zgu, Uydan chiqish, Ishda, Kiyim-kechak, Did.

B) Sir saqlash, Harakatlar, Ko'zgu, Uydan chiqish, Ishda, Kiyim-kechak, Did.

D) Iqtisod, Sir saqlash, Ko'zgu, Uydan chiqish, Ishda, Kiyim-kechak, Did.

E) Gap, Sir saqlash, Harakatlar, Ko'zgu, Uydan chiqish, Ishda, Kiyim-kechak, Did.

2. “O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl – nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Odamlar orqali salomatligini, jismoniy kamolotini aniqladim, odob - axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta tomosha berib, kelin tushirdim” - deydi.....?

A) Sohibqiron Amir Temur

B) Alisher Navoiy

D) Mirzo Ulug'bek

E) Ahmad Yassaviy

1-AMALIY MASHG'ULOT: MAHALLADAGI IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ (KAMBAG'ALLIKNI OLDINI OLISH) QATLAM BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj (kambag'allikni oldini olish) qatlam bilan ishlashning psixologik xususiyatlariiga doir blis-so'rov.
2. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.
3. Mavzuga oid testlarni yechish.

Mashg'ulotning borishi

I. Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj (kambag'allikni oldini olish) qatlam bilan ishlashning psixologik xususiyatlariiga doir blis-so'rov.

Topshiriq blis-so'rov.

1. Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasida –
2. Mahallada kam ta'minlangan oilalar turi –
3. "Temir daftar" kambag'allikni oldini olish mexanizmlari sifatida -
4. "Ayollar daftari" kambag'allikni oldini olish mexanizmlari sifatida -
5. "Yoshlar daftari" kambag'allikni oldini olish mexanizmlari sifatida -

II. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.

1. **Keys bayoni.** Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj (kambag'allikni oldini olish) qatlam bilan ishlashning psixologik xususiyatlariiga muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi.

Keys topshirig'i: Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj (kambag'allikni oldini olish) qatlam bilan ishlashning psixologik xususiyatlariga doir vazifalarni bosqichlar bo'yicha yozing.

Bosqichlar	Vazifalar
1-bosqich	-----
2-bosqich	-----

3-bosqich	-----
-----------	-------

III. Mavzuga oid testlarni yechish.

1. “Temir daftar”ni tashkil qilishdan maqsad nima?

A) Daromadsiz qolgan ehtiyojmand, yordamga muhtoj oilalarni kambag'allikdan chiqarish xizmat qiladi.

B) Yoshlar va ayollar kasb-hunar o'rgatish, bandlikni ta'minlashda manzilli yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

D) Qariyalarni, nogironlarni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

E) Har tomonlama keng imkoniyatga ega bo'lgan shaxslarga xizmat qiladi.

2. O'zbekistonda nechta oila “Temir daftar”ga kiritilgan?

A) O'zbekistonda 409 mingta oila “Temir daftar”ga kiritilgan. Ularning oila a'zolari soni 1 mln 726 ming kishini tashkil etadi. Ushbu oilalarda ishsizlar soni 396 ming nafar.

B) O'zbekistonda 419 mingta oila “Temir daftar”ga kiritilgan. Ularning oila a'zolari soni 1,5 mln 826 ming kishini tashkil etadi. Ushbu oilalarda ishsizlar soni 396 ming nafar.

D) O'zbekistonda 509 mingta oila “Temir daftar”ga kiritilgan. Ularning oila a'zolari soni 1 mln 626 ming kishini tashkil etadi. Ushbu oilalarda ishsizlar soni 496 ming nafar.

E) O'zbekistonda 609 mingta oila “Temir daftar”ga kiritilgan. Ularning oila a'zolari soni 1 mln 725 ming kishini tashkil etadi. Ushbu oilalarda ishsizlar soni 386 ming nafar.

3. Aholi nechta mezon asosida “Temir daftar”ga kiritib borilmoqda:

A) 5 ta

B) 4 ta

D) 7 ta

E) 8 ta

3. Ehtiyojmand oilalarning necha toifasi “Temir daftar”ga kiritiladi?

A) 7 toifasi

B) 8 toifasi

D) 10 toifasi

E) 9 toifasi

4. “Ayollar daftari”ga kimlar kiritiladi?

A) Har bir hududda istiqomat qilayotgan, 30 yoshdan oshgan, ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash, bilim va kasb o'rganishga, moddiy ta'minotga ehtiyoji bo'lgan, shuningdek, bandligi ta'minlanishi kerak bo'lgan barcha xotin-qizlar kiritiladi.

B) 35 yoshdan oshgan, ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash, bilim va kasb o'rganishga, moddiy ta'minotga ehtiyoji bo'lgan, shuningdek, bandligi ta'minlanishi kerak bo'lgan barcha xotin-qizlar kiritiladi.

D) Har bir hududda istiqomat qilayotgan, 33 yoshdan oshgan, ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash, bilim va kasb o'rganishga, moddiy ta'minotga ehtiyoji bo'lgan, shuningdek, bandligi ta'minlanishi kerak bo'lgan barcha xotin-qizlar kiritiladi.

E) 20 yoshdan oshgan, ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash, bilim va kasb o'rganishga, moddiy ta'minotga ehtiyoji bo'lgan, shuningdek, bandligi ta'minlanishi kerak bo'lgan barcha xotin-qizlar kiritiladi.

2-AMALIY MASHG'ULOT: SHAXSDA HAYOT MAZMUNINI, O'ZINI ANGLASH KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH.

Reja:

1. Shaxsda hayot mazmunini, o'zini anglash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga doir blis-so'rov.
2. Mavzuga oid “Kichik esse” yozish.
3. “O'z-o'zini rivojlantirishning 33 qoidasi” asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mashg'ulotning borishi

I. Shaxsda hayot mazmunini, o'zini anglash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga doir blis-so'rov savollariga javob yozish.

Topshiriq blis-so'rovi.

1. Shaxsning hayot mazmuni tushunchalari –
2. Ham uy bekasi, ham mohir dasturchi –
3. Ma'naviy yetuklik, to'g'rilik, chin inson bo'lishning hayotdagi foydasi -
4. "Gender tengligi" tushunchasi -

II. Mavzuga oid "Kichik esse" yozish.

"Kichik esse" uchun taklif etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" - deya e'tirof etilishi.
2. Ma'naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralari.
3. Xotin-qizlarni ijtimoiylashuvini kuchaytirish.

III. "O'z-o'zini rivojlantirishning 33 qoidasi" asosida pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

O'z-o'zini rivojlantirishning 33 qoidasi:

1. Kamolot, takrorlanmas (yagona) bo'lishga intiling!
2. O'zingizni o'zingiz tahlil qilishga e'tibor qarating!
3. O'zingizga nisbatan talabchan bo'ling!
4. O'zingiz uchun goho dam olishni uyushtiring, "mehnatning quli" bo'lmang!
5. Boshqalarga achining, ammo, o'zingizni ham unutmang!
6. Orzu-istaklaringizning quliga aylanmang!
7. O'zingiz uchun o'zgacha xos hayot tarzini yarating!
8. Muloqot madaniyatini o'zlashtiring!
9. Bosiqlik talab etilganda jiddiy, bosiq bo'ling!
10. O'z kuchingiz va qobiliyatingizga ishoning!
11. Vaqt tutqich bermaydi, shu bois uni qo'ldan boy bermang!

12. Xatolardan saboq chiqaring. Unutmang, hatto qirollar ham xatoga yo'l qo'yadi.

13. Ilm o'rganing!

14. Mehnat insonni takomillashtirishini unutmang!

15. Harakatlaringizning izchil bo'lishiga erishing!

16. Bugun bajarish mumkin bo'lgan ishni ertaga qoldirmang!

17. Boshqalarni nima uchun kechirmasangiz, o'zingizni ham shular uchun kechirmang!

18. Kishining o'z ustidan hukmronlik qilishi, boshqalarning ustidan hukmronlik qilishi uchun garovidir!

19. Mukammal bo'lmaganliklari uchun o'zgalardan xafa bo'lmang!

20. Hissiyotingizni boshqaring, shundagina yengilmas bo'lasiz!

21. Ruhiy zo'riqish (stress)larni bartaraf etishni o'rganing!

22. Irodangizni chiniqtirib boring!

23. Tanangizni nazorat qila olsangizgina hukmdorga aylanasiz!

24. Kamchiliklaringizga qarshi kurashda mohir jangchi bo'ling!

25. Oliy maqsadlarga intilishni o'rganing!

26. Ko'pchilik o'rniga ishlash – qorga yozish kabi befoyda ekanligini unutmang!

27. Tartib tartibli bo'lishning muhim omili!

28. O'zingizni himoya qilishni, g'ururli bo'lishni o'rganing!

29. Izzattalabligingizdan foydalanib, qirol bo'ling!

30. Hiyla-nayranglar qurboni bo'lmang!

31. Xatti-harakatlaringiz ustidan ichki sezgi (intuitsiya)ning ustun kelishiga yo'l qo'yib bering!

32. O'zingizga tez-tez "Nima uchun?" degan savolni berib turing!

33. Muvaffaqiyatsizliklardan cho'chimang – ular Sizni olg'a intilishga rag'batlantiradi!

3-AMALIY MASHG'ULOT: REPRODUKTIV SALOMATLIKNING IJTIMOY – PSIXOLOGIK JIHATLARI (SOG'LOM OILANI REJALASHTIRISH USULLARI)

Reja:

1. Reproktiv salomatlikning ijtimoiy – psixologik jihatlari (sog'lom oilani rejalashtirish usullari) ga doir blis-so'rov.
2. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.
3. Mavzuga oid testlarni yechish.

Mashg'ulotning borishi

I. Reproktiv salomatlikning ijtimoiy – psixologik jihatlari (sog'lom oilani rejalashtirish usullari) ga doir blis-so'rov.

Topshiriq blis-so'rovi.

1. Reproktiv salomatlikni muhofaza qilish va reprovktiv huquqlarini amalga oshirish –
2. Reproktiv salomatlik tamoyillari -
3. Oilani rejalashtirish masalalari -

II. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.

1. **Keys bayoni.** Reproktiv salomatlikning ijtimoiy – psixologik jihatlari (sog'lom oilani rejalashtirish usullari) muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi.

Keys topshirig'i: Reproktiv salomatlikning ijtimoiy – psixologik jihatlari (sog'lom oilani rejalashtirish usullari)ga doir vazifalarni bosqichlar bo'yicha yozing.

Bosqichlar	Vazifalar
1-bosqich	-----
2-bosqich	-----
3-bosqich	-----

III. Mavzuga oid testlarni yechish.

1. “Reproduktiv” so‘zi nima ma’noni bildiradi?

- A) lot. re-tiklanish, takrorlanish ma’nosida, produco – yarataman.
- B) lot. re-qayta, takrorlanish ma’nosida, produco – yarataman.
- D) ing. re-tiklanish, takrorlanish ma’nosida, produco – tashkil qilish.
- E) lot. re-takrorlash, ma’nosida, produco – ishlab chiqish.

2. Reproduktiv salomatlik tamoyillari nechta?

- A) 12 ta
- B) 8 ta
- D) 9 ta
- E) 10 ta

3. Oilani rejalashtirishda qaysi jihatlarga ko‘proq ahamiyat qaratish kerak?

- A) Ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, tibbiy
- B) Ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, psixologik, tibbiy
- D) Ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, psixologik, tibbiy
- E) Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, psixologik, tibbiy

4. Yilning qaysi kuni “Xalqaro axoli kuni” deb nishonlanadi?

- A) 15-avgust
- B) 11-iyul
- D) 14-sentyabr
- E) 22-mart

5. Xalqaro “Oila kuni” yilning qaysi kunida nishonlanadi?

- A) 15 may
- B) 16 aprel
- D) 14 mart
- E) 12 iyul

4-AMALIY MASHG'ULOT: XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY FAOLLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI (MOTIVATSIYA, IJTIMOIY INTEGRATSIYA)

Reja:

1. Xotin-qizlarni ijtimoiy faollashtirishning psixologik usullari (motivatsiya, ijtimoiy integratsiya yuzasidan blis-so'rov savollariga javob berish.
2. Mavzuga oid "Kichik esse" yozish.
3. Mavzuga oid testlarni yechish.

Mashg'ulotning borishi

I. Xotin-qizlarni ijtimoiy faollashtirishning psixologik usullari (motivatsiya, ijtimoiy integratsiyasiga doir blis-so'rov.

Topshiriq blis-so'rovi.

1. Xotin-qizlarning kasbiy, mehnat, oila, siyosiy jihatdan ijtimoiy integratsiyasini amalga oshirish muhimligi -
2. O'zbek ayoli portretiga psixologik chizgilar -
3. Otasi o'qiganning biri o'qiydi, onasi o'qiganning bari -

II. Mavzuga oid "Kichik esse" yozish.

"Kichik esse" uchun taklif etiladigan mavzular:

1. Ayol-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish davr talabi.
2. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasida ayol-qizlarning o'rni.
3. Millatning eng buyuk tarbiyachisi ayoldir.
4. "Jannat onalar oyog'i ostidadir".

III. Mavzuga oid testni yechish.

1. Motiv turlarini toping.

- A) Anglangan va anglanmagan motivlar
- B) Abstrank va xissiy motivlar
- D) Psixologik va pedagogik motivlar
- E) Irsiy va refleksiv motivlar

5-AMALIY MASHG'ULOT: "AYOLLAR DAFTARI" VA "YOSHLAR DAFTARI", "AYOLLAR MASLAHAT KENGASHLARI" – XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN YANGI TIZIM.

Reja:

1. "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari", "Ayollar maslahat kengashlari" – xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tizim blis-so'rov savollariga javob berish.
2. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.
3. Mavzuga oid testlarni yechish.

Mashg'ulotning borishi

I. "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari", "Ayollar maslahat kengashlari" – xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tizimga doir blis-so'rov.

Topshiriq blis-so'rovi.

3. "Ayollar daftari" nima? va ularni shakllantirish mexanizmlari –
4. "Yoshlar daftari" nima va ularni shakllantirish mexanizmlari –
5. "Ayollar maslahat kengashlari"ning maqsad va vazifalari -

II. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.

Keys bayoni. "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari", "Ayollar maslahat kengashlari" – xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tizim muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi.

Keys topshirig'i: “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”, “Ayollar maslahat kengashlari” – xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tizimga doir vazifalarni bosqichlar bo'yicha yozing.

Bosqichlar	Vazifalar
1-bosqich	-----
2-bosqich	-----
3-bosqich	-----

III. Mavzuga oid testlarni yechish.

1. “Ayollar daftari” bilan qaysi tashkilot shug'ullanadi?

A) O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi

B) “Mahalla va oila” ilmiy – tadqiqot instituti

D) Yoshlar agentligi

E) Joylardagi mahalla fuqarolar yig'ini raislari

2. Ayollar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish siyosatini amalga oshirishning yangi tizimi “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ga ro'yxatga kiritish nechchi yoshdagi ayollarni qamrab oladi?

A) 18-30 yosh

B) 12-18 yosh

D) 16-30 yosh

E) 12-30 yosh

GLOSSARIY

ATAMALAR	IZOHLAR
Adaptatsiya	(lot. adaptatio – to'g'rilanmoq, moslanmoq, sozlanmoq); tashqi sharoitlarga moslashish; sezgi organlari (analizatorlar)ning ta'sirot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi. A. hodisasida sezgirlik ortish tomoniga ham, kamayish tomoniga ham o'zgarishi mumkin; kuchli ta'sirot dan kuchsiz ta'sirotga o'tganda, sezgirlik asta-sekin ortib boradi, ta'sirot kuchayganda esa, sezgirlik, aksincha, kamayib boradi. A. qonuniyati, organik sezgilardan boshqa, barcha sezgilar sohasiga xosdir. Mas., ko'rish A.si, eshitish A.si, hid bilish A.si, teri-tuyush A.si va boshq. A.ning: fiziologik A. (analizatorlar sezgirligining o'zgarishi sifatidagi A.); shaxs yangi guruhlariga qo'shilgandagi ijtimoiy - psixologik A.; faoliyatning yangi turlarini bajara boshlagandagi professional A. kabi turlari farqlanadi.
Anketa	(fran. enquete – savollar ro'yxati); 1. tekshiriluvchiga oldindan tayyorlangan savollar tarqatilib, ularga tegishli yozma javoblar olishdan iborat psixologik ilmiy tekshirish usuli. Anketa usulida tekshiriluvchining faoliyatga munosabati, o'z-o'zini baholashi, aql sifatleri, individual xususiyatlari, bilim darajasi, madaniy saviyasi, dunyoqarashi, e'tiqodi kabilar o'rganiladi.
Anomiya	(frans. anomi - qonunning yo'qligi, ishlamasligi); jamiyatning qadriyatli-me'yoriy inqirozi, undagi mavjud, an'anaviy qadriyatlarning buzilishi - ommaviy huquqiy desotsializatsiyani (ijtimoiylikning buzilishini) yuzaga keltiradi. Bu holatni E. Dyurkgeym anomiya deb atadi. Anomiya holatida jamiyatning ko'pchilik a'zosi uchun ijtimoiy,

	ayniqsa huquqiy me'yorlarning ahamiyati yo'qoladi. Xulqning etalon obrazlaridan mahrum bo'lgan individda, o'zini-o'zi boshqarish darajasi keskin pasayib ketadi, bunday holatda u ijtimoiy nazorat ostidan chiqib ketadi.
Apatiya	(Yunon. <i>apathia</i> - hech narsaga qiziqmaydigan); 1. ruhsizlik kayfiyati, loqaydlik, xafsalasizlik. A. toliqish, og'ir kechinmalar yoki kasallik tufayli yuzaga keladigan, atrofdagilarga qiziqishni yo'qotish va befarqlikda namoyon bo'ladigan psixik holat. A. hissiy befarqlik holati. Bu holatda sub'ekt atrofdagi narsa-hodisalarga nisbatan hech qanday e'tibor, ahamiyat, qiziqish, munosabatni namoyon qilmaydi, hamma narsaga befarq bo'lib qoladi.
Affekt	(lot. <i>affectus</i> - ruhiy hayajon, ehtiros, to'liqinlanish); 1. keskin nizoli vaziyatlarda to'satdan yuzaga keluvchi xaddan tashqari nerv-psixik (asabiy) qo'zg'alish holati; 2. asosida kuchli, shiddatli va nisbatan qisqa muddatli emotsional (hissiy) kechinmalar yotuvchi psixologik holat.
Motivlar kurashi	Bir xil ahamiyatli motivlardan birini tanlashga qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan irodaviy xatti-harakatlar bosqichi. M.k. bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan istaklarning to'qnashuvi. Motivlar kurashi qisqa muddatli yoki ko'p asabiy zo'riqish talab qiladigan (gohida juda iztirobli), juda uzoq davom etadigan bo'lishi mumkin. Motivlar kurashi turli istaklarning kurashidir.
Muloqot tanqisligi	Muloqotning buzilishi. Bolaning boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqot jadalligi va sifatining pasayishi. Bunday holat, odatda bola yopiq tipdagi bolalar tashkilotlarida (kasalxonalar, bolalar uylari, internatlarda) bo'lishi yoki ot-onalar bolalariga yetarlicha e'tibor bermaydigan oilalarda bo'lishi bilan bog'liq.

Himoya mexanizmlari	Odam, shaxs sifatida o'zini turli psixologik jarohatlardan saqlaydigan ongsiz usullar majmuini bildiruvchi psixoanalitik tushuncha. Ya'ni H.m.lari yordamida odam o'zini psixologik jarohatlardan saqlaydi.
Kommunikatsiya	(lot. communictio - muloqot qilaman, gaplashaman); 1. butun jamiyat masshtabida (miqyosida) tashkiliy ravishda amalga oshiriladigan, ijtimoiy muloqot. 2. muloqot akti, ikki va undan ortiq individlar o'rtasidagi, o'zaro tushunishga asoslangan aloqa; bir shaxs tomonidan boshqa odamga yoki odamlarga ma'lumot uzatish. K. fikr olishuv, o'zgalarning fikrini tushunish va ularga o'z fikrini til vositasi orqali tushuntira olish qobiliyati, ma'lumotlarni til va boshqa belgilar vositasida uzatish.
Matriarxat	Onalik davri; 1. ibtidoiy jamoa shakli. M. davrida urug'-aymoqchilik, nasl-nasab, urug' guruhi o'sha davrlarda qabilaning xo'jalik va ijtimoiy hayotida ayollar mavqeining ustuvor holati bilan belgilangan.
Shaxslararo munosabatlar	Odamlar guruhida muloqot jarayonida ularning o'zaro munosabatlari natijasi sifatida yuzaga keladigan ijtimoiy hodisa turi.
Psixologik himoya mexanizmlari	Shaxsning yaxlitligiga tahdid solishi ehtimol bo'lgan, uni xavf ostida qoldirishi mumkin bo'lgan nizolar bilan bog'liq, salbiy kechinmalar ta'sirini minimallashtirishga yo'naltirilgan mexanizmlar tizimi.
Motiv	(lot. moveo - harakatlantiraman); ma'lum bir ehtiyojni qondirish bilan bog'liq bo'lgan, faoliyatga undovchi kuch. M. odamni faoliyatga undaydi va uning faoliyatiga mazmun, anglanganlik beradi. Odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab. Odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Binobarin ehtiyoj turiga

	qarab M. ham har xil bo'ladi. Psixologiyada M. ikki katta kategoriyaga bo'linadi, bular tabiiy motivlar va yuksak moddiy hamda ma'naviy motivlar. M.lar ularning mazmunini aks ettirish shakliga qarab ham bir-biridan farq qiladi: hissiyot, tasavvur, fikr, tushuncha, g'oya, ma'naviy, ideal va boshqa motivlar.
Motivatsion holat	Shunday holatki – bunda, miya ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan ob'ektlarning parametrlarini modellashtiradi va talab qilinadigan ob'ektga ega bo'lish bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat sxemasini tuzadi. Odamning motivatsion holatlariga: ustanovkalar, qiziqishlar, xohish, istak, intilish va ishtiyoqlar kiradi.
Motivatsiya	1. Shaxsning nima uchun ma'lum vaqtda boshqa fikr va harakatlarni emas, faqat aynan shu fikrni bildirishga va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishidan iborat mantiqiy operatsiya; 2. M. organizmning yo'naltirilgan faolligini yuzaga keltiruvchi (chaqiruvchi), ehtiyoj bilan shartlangan ma'lum bir nerv tuzilishi (funksional sistema)ning qo'zg'alishi. Odamni faol faoliyatga undovchi motivlar majmui. M. dolzarblashgan ehtiyoj bilan shartlangan holda ayrim nerv tizimlarining (funksional tizimlarning) qo'zg'alishi.
Muloqot	Ikki va undan ortiq odamlarning o'zaro munosabati. M.da odamlar o'rtasida bilish yoki affektiv yo'naltiruvchanlik xarakteriga ega bo'lgan ma'lumot almashinuvi amalga oshadi. 2. M. odamlarning ijtimoiy tajriba, madaniy merosni uzatish va hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish maqsadida belgilar tizimi vositasida ijtimoiy o'zaro munasabatlarga kirishishidir.
Patriarxat	Ibtidoiy jamoa tuzumida matriarxatdan keyingi bosqich (q.

	Matriarxat); bunda erkaklar mavqei ustun bo'lgan uruqqa erkak bosh (boshliq) bo'lgan. Matriarxatdan patriarxatga o'tish davrini F.Engels "ayollarning mudhish mag'lubiyati" deb baholaydi. Chunki, bu davr ibtidoiy jamoa tuzumida xususiy mulkchilik davriga to'g'ri keladi.
Ong osti (ongsizlik)	Odam hulqi va uning ongi mazmuniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata oladigan, lekin faol anglanilmaydigan psixik jarayonlar va holatlar majmui. O.o. psixoanaliz ta'limotlarining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, XVIII asrning ikkinchi yarmida ilmiy muomalaga kiritilgan.
Psixiatriya	(Yunon. psyche – jon, iatria - davolash); Meditsina bo'limi. Psixik kasalliklar, ularning paydo bo'lish sabablari, sodir bo'lishi, oldini olish hamda davolash haqidagi fan. P.ning asosiy metodi bo'lib neyrofiziologik, bioximik, immunologik, genetik, psixologik metodlardan foydalangan holda o'tkaziladigan klinik tekshiruv hisoblanadi. Psixik faoliyatdagi buzilishlar qonuniyatlarini tadqiq etuvchi umumiy psixiatriya yoki umumiy psixopatologiya va psixopatiyalar, nevrozlar, reaktiv holatlar kabi ruhiy kasalliklar bilan shug'ullanuvchi xususiy psixiatriya farqlanadi.
Psixika	(Yunon. psychikos – ruhiy, jonga oid); ob'ektiv olamni (voqelikni) sub'ektiv aks etish. P. odam faoliyati va xulqining maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi, mavjud voqelikni ongga bog'liq bo'lmagan holda va ob'ektiv aks etishidan iborat miya xususiyatidir. P. tarkibiga psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va sh.k.lar kiradi.
Psixik holatlar	Shaxsning ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ijobiy hamda salbiy emotsional kechinmalari; mamnuniyat va g'azab, ishonch va ishonchsizlik, faollik va nafaollik kabi hislar.

Psixik ta'sirlanish	Shaxslararo aloqaning psixofiziologik darajasida ko'tarinki hissiy holatlarni bir individdan boshqasiga tarqalishi, xulqni o'zini-o'zi mustahkamlashining ortib borishi bilan xarakterlanadigan psixik hodisa. P.t. psixik zo'riqish sharoitida ko'tarinki emotsional holatlarni bir individdan boshqasiga o'tkazilishi jarayoni, sirkulyar o'sib boruvchi ommaviy emotsional qo'zg'alish holati. Psixik ta'sirlanish odamlarning psixik o'zaro munosabatlarining diffuz, ong osti shaklidir.
Psixik charchash	Psixik funksiyalarning haddan tashqari kuchli yoki muttasil ishlashi natijasida, ular ish qobiliyatining vaqtincha qisman yo'qolishidir. P.ch. ko'pincha aqliy mehnat vakillarida uchraydi, uning oldini olish uchun me'yorida ovqatlanish, me'yorida ishlash va me'yorida dam olish kerak. P.ch. markaziy nerv sistemasiga bevosita bog'liqdir.
Psixoxanaliz	(yunon. psyche – ruh va analysis - bo'lib-bo'lib yubormoq, ajratmoq, ajratish, parchalash); XIX asrning oxirlarida Z.Freyd tomonidan asos solingan psixologik yo'nalish. Isterik nevrozlarni davolash va o'rganish metodidan kelib chiqqan. Keyinchalik umumpsixologik nazariya yaratilgan. Bu nazariyaga ko'ra, ruhiy hayotni rivojlantiruvchi kuchi diqqat markazida motivlar, mayllar, mazmunlar bo'lgan. Psixikaning tuzilishli sxemasi ishlab chiqilgan, unda uch bosqich: onglilik, ong osti, ongsizlik farqlangan.
Psixodiagnos-tika	Odamlarning psixologik rivojlanganliklari darajasini aniqlash va ularni differensiatsiya qilish, ularning psixikasi va hulqini baholash kabi muammolarni o'rganadi va yechadi.
Psixodiagnostik metodikalar	Bu odamlarning individual-psixologik xususiyatlarini o'lchash va baholashga mo'ljallangan maxsus psixologik vositalar.
Psixologik	Psixologik bilimlarni, psixologiyaning ilg'or ilmiy yutuqlari va

targ'ibot	tajribalarini keng yoyish. P.t. ilmiy tekshirish institutlarining xodimlari, universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi pedagogika va psixologiya kafedralarining o'qituvchilari, tajribali maktab o'qituvchilari tomonidan tashkil qilinadi. P.t.ning shakl va usullari xilma-xildir: ma'ruzalar, suhbatlar, maslahatlar, muno-zaralar, savol-javob kechalari, psixologik tajribalar o'tkazish va hokazo.
Psixologik tahlil	Inson psixik faoliyatining psixologik shart-sharoitlari va tarkibini ochib berishdan iborat ilmiy-tekshirish usullaridan biri. P.t.ning vazifasi faoliyatning psixologik komponentlarini aniqlash, kishini faoliyatga undashda turli psixik jarayon va xususiyatlarning roli, faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan psixik xususiyatlarni ko'rsatishdan iboratdir.
Psixologiya	(Yunon. psyche – jon, logos - ilm); miyaning ob'ektiv voqelikni aks ettiruvchi funksiyasi bo'lgan psixika haqidagi fan. P. psixikaning yuzaga kelish mexanizmlari va umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.
Oila psixologiyasi	Psixologiya, ijtimoiy psixologiya fanlarining alohida sohasi. O.p.ning maqsadi - oila psixologiyasiga oid eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar va ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir; premeti - oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari; vazifalari quyidagilardan iborat: yoshlarda oilada shaxsning shakllanishidagi roli haqida to'laqonli tasavvurni shakl-lantirish; yoshlarni oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi va yuzaga kelgandan so'ng oilaviy hayot davomida bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi ilmiy asoslangan bilimlar bilan tanishtirish; yoshlarda oilaviy hayotda muqarrar ravishda sodir bo'ladigan o'zgarishlar, muammolar, qonuniyatlar haqidagi ilmiy asoslangan to'laqonli tasavvurni

	shakllantirish va ularni bu jarayonlarga tayyorlash; yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo'nalishdagilaridan esa saqlanishga o'rgatish; yoshlarda oilaviy hayotni o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslangan tarzda talqin etib, muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona (oilaga va uning mustahkamligiga salbiy ta'sir etmagan holda) chiqish imkonini beruvchi malakalarni shakllantirish; yoshlarda o'zlariga turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlash malakalarini shakllantirish; yoshlarni oiladagi muloqotga tayyorlash; yoshlarni oilani rejalashtirishga o'rgatish; yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash; yoshlarda oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarni shakllantirish; o'quvchilarda oilani o'rganuvchi psixologik tashxis metodikalari bilan ishlash va ular yordamida olinadigan natijalarni to'g'ri talqin etish malakalarini shakllantirish.
Psixonevrozlar	(Yunon. psyche – jon, neuron - nerv); markaziy nerv sistemasining funksional buzilishi (organik zararlanmagan holda) sababli kelib chiqadigan psixik kasalliklarning umumiy nomi.
Psixoterapiya	(Yunon. psyche – jon, therapeia – g'amxo'rlik, parvarish, davolash); meditsina psixologiyasining bemorlarni psixik ta'sir ko'rsatish orqali davolash usullarini o'rganish va amalda tatbiq qilish haqidagi bo'limi; bemorlarni tezroq sog'aytirish uchun qo'llaniladigan barcha psixik omillar va choralar yig'indisi; tashqi vaziyatni o'zgartirish, faqat muayyan bemor uchun o'ylab tuzilgan rejim, vrachlarning bemorga nisbatan ijobiy hissiy munosabati. P.ning asosiy quroli so'z, ya'ni tushuntirish, ishontirish, inontirish, gipnoz qilish va hokazolardir.

Relaksatsiya	(lot. <i>relaxatio</i> – zo‘riqishning kamayishi, yengillashish); 1. sub’ektda kuchli jismoniy zo‘riqish yoki kuchli kechinmalardan so‘ng, yuzaga keladigan xotirjamlik, bo‘shashish holati; 2. hozirgi zamon oilasining asosiy funksiyalaridan biri; 3. uyqu, gipnoz, farmokologik ta’sir vaqtlarida kuzatiladigan uzoq muddatli R. va zo‘riqish bilan almashinib turiladigan nisbatan qisqa muddatli R. farqlanadi. R. effektidan psixoterapiyaning alohida elementi (autogen mashqlarda, harakat terapiyalarida) sifatida foydalaniladi; 4) hozirgi zamon oilasining, oila a‘zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash funksiyasi. Psixologik himoya mexanizmlaridan biri.
Refleks	(lot. <i>reflexus</i> – aks etish); organizmning tashqi yoki ichki ta’sirlarga markaziy nerv sistemasi orqali (ishtirokida) beradigan javob reaksiyasi. “Refleks” atamasi ilmiy muomalaga (fiziologiyaga) fransuz olimi Rene Dekart tomonidan XVII asrda kiritilgan. Biroq psixik faoliyatni tushuntirib berish uchun u faqat 1863 yili rus materialistik fiziologiyasining asoschisi I.M.Sechenov tomonidan qo‘llanilgan. I.M.Sechenov ta’limotlarini rivojlantirar ekan I.P.Pavlov refleksning amal qilishi, ishlash xususiyatlarini eksperimental yo‘llar bilan tadqiq qildi. Barcha reflekslar ikki guruhga: shartli va shartsizga farqlanadi.
Oila	G‘arb ilmida, “Oila” degan so‘z ikki xil ataladi. 1. Family (oila) – bu biologik tomondan birlashish va nasl qoldirish. 2. Hous ehold (oila) – bu ikki vazifani o‘z ichiga oladi, ya’ni unga oilaning iqtisodiy jihatlari – mol-mulk ta’minoti va oila a‘zolarini milliy, diniy, iqtisodiy jihatdan tarbiyalash vazifasi kiradi.

Stress	Zo'riqish, kuchlanish, lot. strees – zo'riqish); 1. organizmning jismoniy va psixik shikast yetkazishi mumkin bo'lgan ta'sirlarga nisbatan bildiradigan adaptatsion - himoya munosabatlari majmui; 2. zo'riqish holati - odam organizmiga ta'sir etayotgan turli noxush omillar ta'siriga javoban yuzaga keladigan fiziologik himoya munosabatlari majmui. Kuchli ta'sir ostida yuzaga keluvchi zo'riqish holati.
Suitsid	lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'z joniga qasd qilish, ongli ravishda o'zini hayotdan mahrum qilishdir.
Ustanovka	Organizmning ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishga anglanmagan holda tayyorlik holati. U. odamning o'zini o'rab turgan odamlar yoki ob'ektlarni ma'lum darajada idrok qilish, baholash va ular bilan munosabatda bo'lishga anglanmagan holda tayyorlik holati. U. shaxsning muayyan faoliyatni (idrok, tafakkur, maqsadga muvofiq harakatlar va hokazo) bajarishga qaratilgan, avvalgi tajribasi bilan belgilangan tayyorgarligi; kishining uni muayyan tarzda harakatga undovchi tayyorgarlik shakli. Tayyorgarlikda idrok yoki harakatning ustunligiga qarab, U. sensor va motor ustanovkalarga bo'linadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Rasmiy xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2014. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // Xalq so'zi, 2017-yil. 8-fevral. № 28 (6722) // http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – J. I. – Toshkent: O'zbekiston, 2017
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – J. II. – Toshkent: O'zbekiston, 2018
5. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajagimizning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2017 – 2021 yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.// Xalq so'zi gazetasi 2017-yil, 3-mart.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi PF-5106-son Farmoni// Xalq so'zi gazetasi 2017-yil 5-iyul.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3304-sonli “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi Qarori // <https://lex.uz/docs/3362873>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori // <https://lex.uz/docs/3923110>
10. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3289-son “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // <https://lex.uz/docs/3481190>

11. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. / Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. – T.: «O'zbekiston», 2017.

Monografiya, ilmiy maqola, ilmiy to'plamlar

12. Abidov B.K. Maktabgacha ta'lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi) // Zamonaviy ta'lim, 2017, -№ 11.

13. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar /sharhlar muallifi va tarjimon U. Uvatov/. Nashrga tayyorlovchi Asad Dilmurod. – T.: Kamalak, 1992. -B. 25-45

14. Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 30 b.

15. Anvar Hojiahmad. Jannat kaliti. –T.: Movarounnahr, 1998.-B. 208

16. Buyuk allomalarimiz // Tahrir hay'ati: H.S. Karomatov, Z. Husnitdinov, A. Mansurov va boshq.; mas'ul muharrir: Z. Islomov. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002. – B. 57

17. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. –Toshkent: "Aloqachi", 2006. – 164b.

18. Jo'rayev N. Ma'naviyat – inson qalbining sarchashmasi. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 30 b.

19. Yo'ldoshev J., Hasanov S. "Avesto"da axloqiy-ta'limiy qarashlar. –T.: O'qituvchi, 1992, -B. 24

20. Maxmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Dis. ... ped. fan. d-ri. – T., 2007. – 282 b.

21. Mahkamov U. O'qituvchilarning axloqiy madaniyatini rivojlantirish muammolari. –T.: Fan. 1996. -200 b.
22. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. – T. O'qituvchi, 1994. –112 b.
23. Musurmonova O. Oila ma'naviyati - milliy g'urur. – T.: O'qituvchi, 1999. – 200 b.
24. Musurmonova O. Oila - jamiyat tayanchi. – T. Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 251 bet.
25. Musurmonova O. Oilada bola tarbiyasining aktual masalalari. – T: 88.
26. Musurmonova O. Farzandlarimga nasihatlar. – T. Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 268 bet.
27. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – Toshkent: Faylasuflar jamiyati, 2004. – B.31.
28. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. d-ri.diss.. – Toshkent: TDPU, 1998. – 288 b.
29. Odinaxon Muhammad Sodiq. Qizlarjon... –T.: "Hilol-Nashr" nashriyot bosmaxonasi, 2019. -192 b.
30. Rahimova K.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy tasavurlari shakllanishida rolli o'yinlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ta'siri. Dis. ...psix.f.n. –T., 2000. -195 b.
31. Uvatov U. Donolardan saboqlar. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994
32. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. 2-nashr. - T.: Ma'naviyat, 2000 -112 b.
33. Forobiy Abu Nosir. Fozil odamlar shahri. –T.: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
34. Shayxova X., Nazarov K. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. –T.: O'zbekiston, 1992
35. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv-metodik qo'llanma. –Toshkent: «Fan va texnologiyalari», 2008. – 147 b.

36. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. -232 b.
37. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti. ped.f.dokt. ... diss.avt. -Toshkent: 2010, -B.18
38. Д.А. Маджидова Меҳнат мигрантларининг оилаларда ота-она-бола муносабатларининг педагогик-психологик ташҳиси ва коррекцияси. Т., “Фан” нашриёти. 2021. – 60 б.
39. Б.М. Ботиров, С.Р.Ботирова Суицидал фаолликни пасайтириш ва уни прогнозлаш муаммолари. Монография. – Т., “Фан” нашриёти. 2021 й. 114 б.
40. Х.У. Абдусаматов Болада ота образи шаклланишида турли ижтимоий-психологик омилларни ўрни. Услубий қўлланма – Т. “Фан” нашриёти. 2021 й 52 б.
41. Х.У. Абдусаматов Оила институтга никоҳдан ташқари муносабатлар таъсирининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Монография. – Т., “Фан” нашриёти. 2021 й. 123 б.
42. Г.В. Хрульнова, Р.А. Базарова, Ш.Р. Аллабергенова Жестокое обращение с детьми: выявление и реагирование. Пособи. – Т., “Фан”. 2021 г. 80 с.
43. Н.М. Эгамбердиева, С.Д. Ходжаев, Х.Х. Сайидвалиева, Н.Н. Сафарова, Ш.Г. Султанова, С.Д. Джолдасова Ижтимоий шартнома механизми: назарий таҳлил. Услубий қўлланма. – Т., “Фан” нашриёти. 2021 й. 92 б.
44. К.Б. Қодиров, Н.Т. Норкулова, Н.М. Муллабаева, Л.Ф. Ҳакимова, Ф.Б. Байжонов Одам савдосидан жабрланганлар психоэмоционал ҳолатлари психодиагностикаси ва психокоррекцияси. – Т., “Фан” нашриёти. 2021 й. 92 б.
45. А. Бўстонов, Т. Тоғайқулов, Т. Ўринов, Фуқаролар йиғинлари ходимлари фаолиятини манзилли ташкил этиш. Услубий тавсиялар – Т., “Фан” нашриёти. 2021 й. 90 б.

46. Н.М. Эгамбердиева, О.М. Мусурмонова, Х.Х. Абдурамонов, Б.Б. Мавлонов Маҳалла – ёруғ юзимиз ва виждонимиз кўзгуси. – Т., “Фан” нашриёти. 2021 й. 80 б.
47. Ҳ.Д. Норқулов Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масалалари. Монография. – Т., “Фан” нашриёти. 2021 й. 163 б.

Internet resurslar

1. www.ziyonet.uz
2. www.istedod.uz
3. www.lex.uz
4. www.moiti.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.tdpu.uz
7. www.edu.uz